

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
GEOLOGIYA VA KONCHILIK ISHI FAKULTETI  
“EKOLOGIYA VA MEHNAT MUHOFAZASI” KAFEDRASI**



***SANOAT XAVFSIZLIGI  
FANIDAN***

***MODULLI ELEKTRON O'QUV-USLUBIY  
MAJMUA***

Bilim sohasi:	1010000	- Xizmatlar ko'rsatish sohasi
Ta'lim sohasi:	1020000	- Gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi
Ta'lim yo'nalishi:	5640200	- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi

Qarshi-2022


Fanning modullielektron o'quv-uslubiy majmuasi Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 4 oktyabdagi 892- sonli buyrugining bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqildi.


**Tuzuvchi:** - Maxmatqulov N.I. QMII "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasida katta o'qituvchisi


**Taqrizchilar:** - Yakubov T. QMII "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

-Berdiyev A.R., Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.

Fanning modulli elektron o'quv-uslubiy majmuasi "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasining 2022 yil 16.11.6 - conli, Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy komissiyasining 2022 yil 24.11.4 - conli, institut Uslubiy Kengashining 2022\_\_ yil 26.11 dagi 4 - conli, yig'ilishlarida ko'rib chiqilib tasdiqlangan.

QMII O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i:  A. Mallayev

Fakul'tet uslubiy komissiyasi raisi  K. Xakimov

"Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedra mudiri:  Z.Z. Uzaqov

## **I. KIRISH**

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma‘naviy-ahloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir.

Insoniyat sivilizatsiyasi sanoat xavfsizligini ta‘minlash, zararli va xavfli omillardan himoyalaniish muammosini hal etish – odamlarni meyoriy sharoitda faoliyat olib borishi, uni o‘rab turgan atrof muhitdagi ruxsat etilgan meyoridan ortiq xavfli va zararli omillardan himoya qilish bugungi kunda asosiy muammolardan bir bo‘lib qolmoqda.

Ishlab chiqarish obeklaridagi barcha sohalarida ishlayotgan zamonaviy mutaxassislar xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida, atrof muhitda bo‘layotgan salbiy o‘zgarishlarni anglash, tushinish, oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga tegishli qarorlar qabul qilish uchun yetarli darajada bilim saviyasiga ega bo‘lishi lozim. Aynan ushbu bilimni «Sanoat xavfsizligi» fani o‘rganadi.

Ushbu «Sanoat xavfsizligi» Fanning modulli elektron o‘quv-uslubiy majmuasi fan bo‘yicha davlat ta‘lim standarti va namunaviy dastur asosida tuzilib “Mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi” ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. Unda fanning maqsad va vazifalari talabalar bilim va ko‘nikmasiga bo‘lgan talablar, mashg‘ulotlarning to‘liq matni, texnik xaritasi, glossariy, baholash mezonlari va nazorat test va savollar, amaliy va seminar mashg‘ulotlari uchun zarur texnik vositalar mustaqil ish bo‘yicha ko‘rsatmalar va tavsiya etilgan adabiyotlar ruyxati keltirilgan.

Ushbu o‘quv usubiy elektron modulli majmuadan mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bakalavr ta‘lim yo‘nalish talabalari uchun dars jarayonida foydalanishi uchun tavsiya etiladi.

### **1.1. O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta‘limdagi o‘rni**

Insonning jamiyatni taraqqiy ettirish hamda ishlab chiqarishni boshqarishda asosiy kuch ekanligini hisobga olib, uning xavfsizligi va sog‘ligini saqlash ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidagi muhim omil hisoblanadi.

Ushbu dastur «Xavfli ishlab chiqarish obektlarida xavfsizlik to‘g‘risida»gi, va «Ish beruvchilarning fuqorolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini o‘rganish, zamon talablariga javob berish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan.

Shu bilan birga bakalavrlarg muntazam kasbiy usishida interaktiv metodlar, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yunaltirilgan innovatsion usullar, mustaqil ta‘lim olishni nazarda

tutuvchi mashg'ulotlar olib borish ko'zda tutilgan bulib, sanoat xavfsizligi shaxs va jamiyat hayotda muhim manfaatlarining xavfli ishlab chikarish obektlaridagi avariya va nohush hodisalardan hamda ularning okibatlaridan himoya qilish bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.

### **1.2.O'quv fanining maqsadi va vazifasi**

Fanning asosiy maqsadi - bo'lajak "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi mutaxassisliklariga aholini va hududlarni xavfli ishlab chiqarish obektlaridagi avariya muhofaza qilishni ta'minlash hamda davlat organlarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini va aholini sanoat xavfsizligining xolati to'g'risida xabardor etish, xavfli ishlab chikarish obektidan foydalanuvchi tashkilot sanoat xavfsizligi qoidalarini o'rgatishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan eng yuqori normaga teng yoki undan ortiq miqdorlarda ishlab chiqariladigan, foydalaniladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saklanadigan, tashkladigan, xavfli ishlab chiqarish obektlari uchun sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish, sanoat xavfsizligi xavfli ishlab chikarish obektidagi avariya xavfiga berilgan xar tomonlama bahoni, avariyaning oldini olish, xavfli ishlab chikarish obektidan foydalanishni amalga oshiradi.

### **1.3. Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikmalari va malakalariga qo'yiladigan talablar**

Sanoat korxonalarida sodir bo'lgan avariya va xalokalar sodir bo'lganda muhofazalanish metodlarini, to'g'ri xatti – xarakat kilishni o'rgatishdir. Ushbu maksadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, iqtisodiy xodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv xamda ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagilar:

*Talaba:*

-sanoat xavfsizligi sohasida qabul qilingan normativ huquqiy xujjatlarning asosiy talablari;

- sanoat xavfsizlikni ta'minlash prinsiplari, uslublari va vositalarini taxdil qilish;

-sanoat xavfsiz sharoitlarini ta'minlash;

-ishlab chikarishdagi zararli va xavfli manbalari turlari, ularning yuzaga kelishining oldini olish usullari;

- jamoa va shaxsiy ximoya kilish vositalarini ishla olish;

birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish;

avariya va xalokatlar sodir bo‘lganda moddiy boyliklarni saklash va qutqarish vositalarini ishlatish;

-sanoat korxonalarida yong‘in xavfsizligi va elektr xavfsizligiga qo‘yiladigan talablar bilishi;

-texnika xavfsizligi qoidalari va meyorlari bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

#### **1.4. Fanining boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan o‘zaro bog‘liqligi**

“Sanoat va radiatsiya xavfsizligi” fani “Hayot faoliyati xavfsizligi”, “Mehnat muhofazasi”, “Fizika”, “Himiya”, “Atrof muhit himoyasi va ekologiya”, “Favqulodda vaziyatlar va fuqorolar muhofazasi” kabi fanlar bilan o‘zviy bog‘langan. Inson o‘z faoliyatida bir necha omillar bilan bog‘lanadi va o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Lekin, insoniyatning XX asr sivilizatsiyasida radiatsion nurlar alohida o‘rin tutadi.. Chunki bu yangi soha bo‘lib iqtisodiyot tarmog‘ining barcha sohasida ishlatilmoqda. Shu bilan birga uning inson hayot faoliyati davridagi umumlashgan xavfli va zararli omillari ortib bormoqda.

Sanoat xavfsizligi fanini o‘rganish nafaqat texnosferada xavflar tug‘ilganda, balki ishlab chiqarish jarayonida ishlovchilarni nurlanish kasalligidan kasalligiga chalinishlarini qisqartirish, baxtsiz hodisalar oldini olish, shuningdek, Biosferada (atrof-muhitda) yuz beradigan nurlatish ta’sirida insonlar o‘limi va moddiy zararlar miqiyosini kamaytirish imkonini beradi.

## **ASOSIY QISMI**

### **II. MA’RUZAR TO‘PLAMI**

#### **1-MA’RUZA. SANOAT XAVFSIZLIGI FANIGA KIRISH**

**O‘quv rejasi:**

1. Sanoat xavfsizligi haqida tushuncha
2. Sanoat xavfsizligi fanining maksadi, vazifalari va o'rganish obektlari hamda asosiy terminlar
3. Sanoat xavfsizligini ta'minlash usullari.
4. Ishlab chiqarishda xavfli va zararli omillar
5. Texnika xavfsizligi bo'yicha beriladigan yo'riqnomalar.

*Tayanch so'z va iboralar-* sanoat xavfsizligi, xavfli va zararli omillar, favkulodda vaziyatlar, hayot faoliyati xavfsizligi, xavf, xavfsizlik atrof muxit, texnika xavfsizligi, kirish. yo'riqnomasi, ish joyidagi yo'riqnomasi

## **1. Sanoat xavfsizligi haqida tushuncha**

Xozirgi vaktga kelib inson xayot-faoliyaat xavfsizligini ta'minlash muammolari keskinlashdi. Shu sababli turli xavf-xatarlardan ximoyaalanish masalalari, shu jumladan radiatsiyaaviy xavfsizlik masalalari xam juda muxim masalalar biri hisoblanmokda.

Ushbu fanda sanoat xavfsizlik fanining xozirgi xolati, istikboli, xamda respublikamizgi ijtimoiy-iktisodiy isloxotlar natijalari va xududiy xavfsizlik muammolari fanni rivojlanish tendensiyasiga ta'sir masalalarini, inson faoliyaati soxalarida sanoat xavfsizlikni ta'minlash, qo'lay ishlash muhiti sharoitlarini yaratish uchun mutaxassislarni nazariy va amaliy jixatdan tayyorlash, favkulodda vaziyatlarda ularni to'g'ri xarakat kilishga va ximoyaalanishga, xamda xavfli va zararli omillar atrof-muxitga ta'sirini o'rgatish masalalarini kamrab olgan ma'ruza, va seminar mashg'ulotlar to'plamidan iborat

*Sanoat xavfsizligi-* sanoat xavfsizligi shaxs va jamiyat hayotiy muhim manfaatlari xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi avariya va noxush hodisalardan hamda ularning oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir.

Avariya va noxush hodisa- xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi noxush hodisa xavfli ishlab chiqarish obyektlarida qo'llaniladigan texnika qurilmalar ishdan chiqishi yoki shikastlanishi, texnologiya jarayoni rejimidan chetga chiqish, sanoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilik hujjatlarida, shuningdek, normativ texnik hujjatlarda ko'rsatilgan talablarning buzilishidir.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari jumlasiga:

1) quyidagi xavfli moddalar:

-portlash-yong'in xavfi bo'lgan muhitni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan moddalar;

-tasdiqlangan standartlarga muvofiq tirik organizmga ta'sir qilish darajasiga ko'ra I, II va III xavflilik darajalariga (o'ta xavfli, yuqori darajada xavfli va o'rtacha darajada xavfli) mansub zararli moddalar;

-muayyan turdagi tashqi ta'sir chog'ida issiqlik ajratgan va gazlar hosil qilgan holda o'z-o'zidan juda tez tarqaladigan kimyoviy o'zgaruvchan portlovchi moddalar;

-inson sogʻligʻi va atrof muhit uchun xavfli konsentratsiyali moddalar mavjud boʻlgan ishlab chiqarish chiqindilari foydalaniladigan, ishlab chiqariladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saqlanadigan, tashiladigan, yoʻq qilinadigan;

2) 0,07 megapaskaldan ortiq bosim ostida yoki ishlatiladigan suyuqlikning normal atmosfera bosimidagi qaynash haroratidan ortiq haroratda ishlaydigan uskunalardan foydalaniladigan;

3) koʻchmas asosga oʻrnatilgan yuk koʻtarish mexanizmlari, eskalatorlar, osma yoʻllar, funikulyorlardan (togʻ temir yoʻllaridan) foydalaniladigan;

4) qora va rangli metallar eritmaları hamda ushbu eritmalar asosida qotishmalar olinadigan;

5) konchilik ishlari, foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish ishlari, shuningdek yer osti sharoitida ish olib boriladigan korxonalar yoki ularning sexlari, uchastkalari, maydonchalari, shuningdek boshqa ishlab chiqarish obyektlari kiradi.

## **2. Sanoat xavfsizligi fanining maksadi, vazifalari va oʻrganish obektlari hamda asosiy terminlar**

*Fanning asosiy maqsadi* - boʻlajak “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” bakalavriat taʼlim yoʻnalishi mutaxassisliklariga aholini va hududlarni xavfli ishlab chiqarish obektlaridagi avariyalardan muhofaza qilishni taʼminlash hamda davlat organlarini, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarini va aholini sanoat xavfsizligining xolati toʻgʻrisida xabardor etish, xavfli ishlab chiqarish obektidan foydalanuvchi tashkilot sanoat xavfsizligi qoidalarini oʻrgatishdan iborat.

*Fanning asosiy vazifalari* - Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan eng yuqori normaga teng yoki undan ortiq miqdorlarda ishlab chiqariladigan, foydalaniladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saklanadigan, tashkladigan, xavfli ishlab chiqarish obektlari uchun sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish, sanoat xavfsizligi xavfli ishlab chiqarish obektidagi avariya xavfiga berilgan xar tomonlama bahoni, avariyaning oldini olish, xavfli ishlab chiqarish obektidan foydalanishni amalga oshiradi.

“Sanoat va radiatsiya xavfsizligi” fani “Hayot faoliyati xavfsizligi”, “Mehnat muhofazasi”, “Fizika”, “Himiya”, “Atrof muhit himoyasi va ekologiya”, “Favqulodda vaziyatlar va fuqorolar muhofazasi” kabi fanlar bilan oʻzviy bogʻlangan. Inson oʻz faoliyatida bir necha omillar bilan bogʻlanadi va oʻzaro taʼsirda boʻladi. Lekin, insoniyatning XX asr sivilizatsiyasida radiatsion nurlar alohida oʻrin tutadi.. Chunki bu yangi soha boʻlib iqtisodiyot tarmogʻining barcha

sohasida ishlatilmoqda. Shu bilan birga uning inson hayot faoliyati davridagi umumlashgan xavfli va zararli omillari ortib bormoqda.

### **3. Sanoat xavfsizligini ta'minlash usullari.**

Sanoat xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat tomonidan tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Sanoat va xavfsizlik sohasidagi davlat nazorati O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Sanoat xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi jamoat nazorati O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Obyektda va uning atrofidagi sanoat xavfsizligi quyidagicha ta'minlanadi:

- sanoat inshootlarini konstruksiyasi sifati;
- sanoat inshootlarini joylashtirish uchun maydon va maydonni oqilona tanlash;
- sanoat inshootlarini manbalarini jismoniy himoya qilish;
- eng xavfli obyektlar atrofida va ularning ichida hududni rayonlashtirish;
- texnologik tizimlarning ishlash shartlari;
- sanoat inshootlarini gigiyenik baholash va faoliyatni litsenziyalash;
- mahsulotlar va texnologiyalarni gigiyenik baholash;
- sanitar- gigiyenik kuzatuv tizimining mavjudligi;
- obyektning meyoriy ishlashi, uni rekonstruksiya qilish va tugatish (tugatish) vaqtida xodimlar va aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;
- xodimlar va aholining xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha savodxonligini oshirish;
- monitoring tizimini tashkil etish;
- normal sharoitda va avariya holatida himoya qilish tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish samaradorligi;
- axborot va xabar berish tizimini tashkil etish.
- xavfli va zararli omillar ruxsat etilgan ta'sir darajasidan oshib ketadigan joylarda kamaytirilishi kerak;
- umumjamoa va shaxiy himoya vositalari bilan ta'minlanganligi.

Tashkilotlarda olib boriladigan monitoringi ishchilar (xodimlar) ning individual xavfli va zararli omillardan zararlanishini kuzatishni va hisobga olishni ta'minlaydi.



Sanoat ob'ektlaridan foydalanuvchi tashkilot xavfsizligi uchun javobgardir va quyidagilarni ta'minlaydi:

-O'zbekiston Respublikasi va haqaro tashkilotlar tomonidan joriy qilingan normativ huquqiy xujjalar va qoidalar, meyorlar talablariga rioya qilish;

-xavfli va zararli manbalarini o'z ichiga olgan ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun sanitariya-epidemiologik xulosasini va litsenziya olish;

-xavfsizlikni ta'minlash va kuzatuv maydonida xavfli va zararli omillar ta'sirini nazorat darajasini bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqish;

-mehnatni muhofaza qilish qoidalari, xavfsizlik, boshqa sanitariya meyorlari va qoidalariga mos keladigan ishlash sharoitlarini yaratish;

-tashkilotda xavfsizlikni ta'minlash va takomillashtirish bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

-ish joylarida, binolarda, tashkilot hududida, sanitariya muhofazasi zonasida va kuzatuv zonasida, shuningdek, moddalar chiqarilishi va chiqindi zonalarini muntazam ravishda kuzatib borish;

-xodimlarning individual zararlanish xolatlarini nazorat qilish va hisobga olish;

-xodimlarni ish joylaridagi radiatsiya darajasi va ular tomonidan olingan individual nurlanish dozalari to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilish;

-xodimlarni, xavfsizligi xizmatlari mutaxassislari, zararli manbalari bilan ishlashni doimiy yoki vaqtincha bajaradigan boshqa shaxslar uchun xavfsizligi masalalari bo'yicha o'qitish va sertifikatlash;

-shaxsiy tarkibni dastlabki (ishga qabul qilinganidan keyin) va davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazish;

-xavfsizligi sohasida davlat boshqaruvi, davlat nazorati va nazoratini amalga oshirishga vakolatli ijro etuvchi hokimiyat organlariga favqulodda vaziyat yoki avariya sodir bo'lganligi to'g'risida o'z vaqtida xabar berish;

-xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat boshqaruvi, davlat nazorati va nazoratini amalga oshiruvchi ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdor shaxslarining farmonlari va buyruqlarini bajarish.

Xavfsizlikni ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda, xavfli va zararli manbalaridan foydalanganda fuqarolar olgan zararlanish ko'rsatkichini qilish va hisobga olishda davlat tizimini ishlab chiqishdani iborat Bular qo'yidagilar:

- xavfli va zararli omillar ta'sir natijasida fuqarolar sog'lig'iga yetkazilgan zararning yuqori xavfi uchun kompensatsiya turlari va miqdorlarini belgilash;

-avariya natijasida fuqarolar sogʻligʻiga yetkazilgan zarar va ularning mulkiga yetkazilgan zararni qoplash;

-ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanish bilan bogʻliq faoliyat turlari;

-ionlashtiruvchi nurlanish manbalarining eksporti va importini davlat tomonidan tartibga solish;

- tibbiy profilaktika tadbirlarini oʻtkazish;

-fuqarolarni avariya vaziyat va xavfsizlikni taʼminlash choralari toʻgʻrisida xabardor qilish;

- fuqarolarni xavfsizlik choralariga oʻrgatish;

- avariya natijasida jabrlangan fuqarolarga yordam berish;

- fuqarolar sanoat ifloslanish joylarida turishi uchun maxsus rejimlarni joriy etish;

-tegishli hududda avariya oqibatlarini bartaraf etish;

- avariya xavfi yuzaga kelgan taqdirda tezkor tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

Oʻzbekiston Respublikasi hududida yashovchi Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari fuqaroligi boʻlmagan shaxslar xavfsizligini taʼminlash boʻyicha qonunchilik talablariga rioya qilishlari va xavfsizligini taʼminlash boʻyicha respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining talablariga rioya qilishlari shart.

#### **4. Ishlab chiqarishda xavfli va zararli omillar**

*Ishlab chiqarish sharoiti* - insonni oʻrab turgan atrof muhitning bir qismini tashkil qilib, uning tarkibiga tabiat-iqlimga bogʻliq boʻlgan hamda insonning kasbiy faoliyatiga taʼsir etuvchi xavfli va zararli omillar (shovqin, silkinish, zaharli tutunlar, gazlar, changlar, nurlanishlar) kiradi.

*Xavfli omillar*– muayyan bir sharoitda inson sogʻligiga zarar keltirishi yoki organizmni halokatga olib kelish tushuniladi. Aksariyat xavfli omillarga - ishlab chiqarishdagi zaharli, kimyoviy, biologik moddalar, ionlantirish xususiyatiga ega boʻlgan nurlar va boshqa kuchli taʼsir etuvchi omillar kiradi.

*Zararli omillar* - inson ish faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi yoki biror bir kasallikka olib keluvchi holatlar tushuniladi.

Ish sharoitida ish qandayligiga va ish joyi qanday tashkil etilganligiga bogʻliq. Xavfli va zararli omillar taʼsir etish xususiyatlari ularning tarkibiga, tuzilishiga, fizik-kimyoviy xossalriga, miqdoriga, inson tana aʼzolari yoʻllariga taʼsir etishi, holati, uchuvchanligi, suvda va yogʻda eruvchanligi va boshqa koʻrsatkichlariga bogʻliqdir.

Zaharli kimyoviy moddalar yoʻl qoʻyiladigan oxirgi darajasidan yuqori miqdorda yoki biologik xavfli taʼsirlari (patogen mikroorganizmlar) inson tanasiga oʻtishi natijasida kuchli kimyoviy yoki biologik zaharlanishlar yuz berib, insonning halok boʻlishiga olib keladi.

Shuningdek, ionlantirish xususiyatiga ega bo'lgan nurlar yuqori miqdordagi dozasi ta'sirida ham inson hayoti xavf ostida qoladi.

*Zaharli omillar* – ishlab chiqarishdagi changlar, tutunlar, gazlar, bug'lar, yo'l qo'yiladigan oxirgi darajasidan yuqori qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish mikroiklimining gigiyenik meyorlari, shovqinlar, tit-rashlar, yoritilganlik, elektr va magnit maydonlari ta'sirlari kiradi.

Xavfli va zararli ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tasnifiga ko'ra 4 ta: fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik guruhlarga bo'linadi.

Xavfli va zararli omillarning quyidagi turlari mavjud:

- kimyoviy - zaharli moddalar paydo bo'lishi va inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi;
- fizikaviy - shovqin, silkinish va boshqa turdagi titrashlar, nurlanishlar, iqlim o'zgarishlari, atmosfera bosimi o'zgarishi, yoritilish darajasi, chang-to'zonlar ko'tarilishi;
- biologik - kasallangan mikroorganizmlar, mikroorganizmlar, biologik pestitsidlar va boshqa kasallik keltiruvchi manbalar;
- jismoniy (statistik va dinamik) zo'riqish - og'ir yukni olib ko'tarish, inson jismoniy holati buzilishi, inson tana a'zolari katta bosim ostida bo'lishi va boshqa xolatlar;
- fiziologik - jismoniy harakatlanish cheklanishi - ginokeniziy.
- psixologik - aqliy faoliyatni keragidan ortiq ishlatish, his-hayajon ortib ketishi.

### **5 Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalarning maqsadi va vazifasi.**

Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar mazmuni va o'tkazilish davriga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: kirish, ish joyida birlamchi, reja bo'yicha (navbatdagi), rejadan tashqari va davriy (mavsumiy).

*Kirish yo'riqnomasi.* Kirish yo'riqnomasi korxonada rahbari, xavfsizlik texnikasi bo'yicha muhandis yoki bosh muhandis hamda kasaba uyushmasi qo'mitasi tasdiqlagan dastur asosida o'tkaziladi. Kirish yo'riqnomasi asosan quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- xo'jalikning ish rejimi va ichki tartib qoidalari;
- mehnat intizomi va uni mehnat xavfsizligiga ta'siri;
- mehnat muhofazasi bo'yicha konunlar to'g'risida ma'lumot;
- mehnat muhofazasi bo'yicha jamoa shartnomalari;
- xo'jalikda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar va ularni kelib chiqish sabablari;
- yong'inni oldini olish tadbirlari;
- elektr xavfsizligining asosiy qoidalari;
- yuklarni ko'tarish, tushirish, kimyoviy moddalar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari;
- uydan ishga kelish yoki ishdan qaytish xavfsizlik qoidalari;

- maxsus kiyim boshlar va boshqa himoya vositalaridan foydalanish tartibi;
- baxtsiz hodisa ruy berganda birinchi yordam ko'rsatish qoidalari;
- ichkilikbozlikka qarshi kurash tadbirlari;
- jamoa o'rtasida ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishgaqaratilgan tadbirlar.

Kirish yo'riqnomasi o'tkazilgandan so'ng xavfsizlik texnikasi bo'yicha muhandis maxsus jurnalga bu haqda qayd etadi va unga yo'riqnomani o'tgan shaxs hamda yo'riqnomadan o'tgan ishchi imzo qo'yadi.

*Ish joyidagi birlamchi yo'riqnoma.* Birlamchi yo'riqnoma o'tkazish jarayonida ishchini asosan qo'yidagilar bilan tanishtirish lozim bo'ladi:

- ushbu ish joyidagi texnologik jarayonlar va tashkiliy-texnikqoidalar;
- ish joyini tashkil etish bo'yicha talablar;
- mashina yoki agregatning tuzilishi, ishlashi va xavflijoylari;
- ushbu ish turi bo'yicha xavfsizlik texnikasi;
- mashina yoki agregatda ishlashning xavfsiz usullari;
- texnologik jihozlar bilan ishlash qoidalari;
- elektr jihozlari va ular bilan ishlash qoidalari;
- ish joyining yoki ish maydonining xavfli zonalari;
- ish joyining yoki ish maydonining «signalizatsiya»si va undanfoydalanish tartiblari.

*Reja bo'yicha yo'riqnoma.* Ishning xarakteri va xavflilik darajasiga qarab ish joyidagi birlamchi yo'riqnomadan 3 yoki 6 oy keyin o'tkaziladi. Ushbu yo'riqnoma ishchilarni mehnat muxofazasibo'yicha bilimlarini oshirish va tekshirish maqsadida ish joyidagi birlamchi yo'riqnoma dasturi asosida ish joyida brigada, bo'lim, sex boshligi tomonidan o'tkaziladi va yo'riqnoma o'tkazgan xodimning hamda ishchining imzosi bilan jurnalga qayd etiladi.

*Rejadan tashqari yo'riqnoma.* Bu yo'riqnoma ishlab chiqarish texnologiyasi yoki texnikasi o'zgarganda, ishchi bir ishdan boshqa ishga o'tkazilganda, xavfsizlik texnikasi qoidalari buzilganda va baxtsiz hodisa ro'y berganda, shuningdek ishda 60 kundan ortiq tanaffuz bo'lgan bo'lgan holatlarda ( yuqori mehnat xavfsizlik talablari qo'yiladigan ishlar uchun 30 kun) o'tkaziladi.

*Kundalik yo'riqnoma.* O'ta xavfli ishlaydigan ishchilar uchun "naryad-ruxsat" shaklida maxsus yo'riqnomalar o'tkaziladi.

1-ilova

Kirishyo'riqnomasi

Ishchiningismivafamilyasi \_\_\_\_\_

Qaysi ishga (lavozimga) tavsiyaetilgan \_\_\_\_\_

Yo‘riqnomaning qisqachamazmuni:

2-ilova

1-forma

Xavfsizlik texnikasi bo‘yicha kirish yo‘riqnomasini hisobga olish varaqasi

Familiyasi \_\_\_\_\_ Ismi \_\_\_\_\_

Otasiningismi \_\_\_\_\_

Tugilganyili \_\_\_\_\_

Mutaxassisligi \_\_\_\_\_

Umumiyishstaji \_\_\_\_\_

Ushbuishbo‘yichastaji \_\_\_\_\_

Ishjoyi \_\_\_\_\_

(bo‘lim, brigada, ferma, sexvab.)

Ishchiningimzosi \_\_\_\_\_

Yo‘riqnoma o‘tuvchining imzosi \_\_\_\_\_

Yo‘riqnoma o‘tilgansana \_\_\_\_\_

3-ilova

2-forma

Xavfsizlik texnikasi bo‘yicha yo‘riqnomani qayd etish j u r n a l i

№	Yo‘riqnoma o‘tilgansana	Ishchiningf.i.sh.	Kasbi (ishturi)	Yo‘riqnomatur	Yo‘riqnomamavzusi	Yo‘riqnomadano‘tganishchiningimzosi	Yo‘riqnoma o‘tganxodimnif.i.sh., vaznfasi	Yo‘riqnoma o‘tganxodimningimzosi	Eslatma.

4-ilova

3-Forma

### Kurso‘qishlariniqaydetishjurnali

№	Sana	Ishchiningf.i.sh.	Mutaxassisligi(kasbi)	Mavzunomi	O‘tilgansoathajmi	O‘qituvchiningf.i.sh., vazifasi	O‘qituvchiningimzosi	Eslatma

**Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:**

1. Sanoat xavfsizligi fanini o‘kitishdan nimalarni maksad qilib qo‘yaaydii?

2. Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikmalari va malakalariga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Fanining boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqligi nimalardan iborat?
4. Fanda qo'llaniladigan asosiy terminlarning mazmuninin tushuntiring
5. Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar o'tishdan maqsad nima?
6. Yo'riqnomalar qanday turlarga bo'linadi?
7. Kirish yo'riqnomasining mazmuni nimadan iborat?
8. Zararli omillarga nimalar kiradi?
9. Xavfli omillarga nimalar kiradi?
- 10 xavfli va zararli omillar turlarini nimalardan iborat?

## **2-MA'RUZA. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "HAVFLI ISHLAB CHIQARISH OBEKTLARINING SANOAT XAVFSIZLIGI TO'G'RISIDA"GI QONUNNING MAHIYATI**

### **O'quv rejasi:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Havfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonunning asosiy maqsad va mohiyati.
2. Sanoat xavfsizligi sohasida davlat tomonidan tartibga solish
3. Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanishga oid sanoat xavfsizligi talablari
4. Xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish

**Tayanch so'z va iboralar-** *sanoat xavfsizligi, ishlab chiqarish, avariya, davlat boshqaruvi, qonunchilik, xavfli obyektlar, identifikatsiyalash, ekspertiza, sug'urta, deklaratsiya, texnik jixatdan tekshirish, noxush hodisalar*

### **1. O'zbekiston Respublikasining "Havfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonunning asosiy maqsad va mohiyati.**

O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida qonuni, Qonunchilik palatasi tomonidan 2006 yil 29 iyunda qabul qilingan. Senat tomonidan 2006 yil 25 avgustda ma'qullangan 2006 yil 28 sentabrda kuchga kirgan. 23 moddadan iborat.

"Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida qonuni Qonunning *maqsadi*- xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

*Sanoat xavfsizligi*- bu shaxs va jamiyat hayotiy muhim manfaatlarining xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi avariya va noxush hodisalardan hamda ularning oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir.

*Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi avariya*- inshootlar yoki xavfli ishlab chiqarish obyektlarida qo'llaniladigan texnika qurilmalarining buzilishi, nazorat qilib bo'lmaydigan portlash yoki xavfli moddalar ajralib chiqishidir.

*Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi noxush hodisa*- xavfli ishlab chiqarish obyektlarida qo'llaniladigan texnika qurilmalar ishdan chiqishi yoki shikastlanishi, texnologiya jarayoni rejimidan chetga chiqish, sanoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilik hujjatlarida, shuningdek, normativ texnik hujjatlarda ko'rsatilgan talablar buzilishidir.

Qonunning 4 –moddasiga ko'ra xavfli ishlab chiqarish obyektlari jumlasiga:

1) quyidagi xavfli moddalar:

-portlash-yong'in xavfi bo'lgan muhitni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan moddalar;

-tasdiqlangan standartlarga muvofiq tirik organizmga ta'sir qilish darajasiga ko'ra I, II va III xavflilik darajalariga (o'ta xavfli, yuqori darajada xavfli va o'rtacha darajada xavfli) mansub zararli moddalar;

-muayyan turdagi tashqi ta'sir chog'ida issiqlik ajratgan va gazlar hosil qilgan holda o'z-o'zidan juda tez tarqaladigan kimyoviy o'zgaruvchan portlovchi moddalar;

-inson sog'lig'i va atrof muhit uchun xavfli konsentratsiyali moddalar mavjud bo'lgan ishlab chiqarish chiqindilari foydalaniladigan, ishlab chiqariladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saqlanadigan, tashiladigan, yo'q qilinadigan;

2) 0,07 megapaskaldan ortiq bosim ostida yoki ishlatiladigan suyuqlikning normal atmosfera bosimidagi qaynash haroratidan ortiq haroratda ishlaydigan uskunalardan foydalaniladigan;

3) ko'chmas asosga o'rnatilgan yuk ko'tarish mexanizmlari, eskalatorlar, osma yo'llar, funikulyorlardan (tog' temir yo'llaridan) foydalaniladigan;

4) qora va rangli metallar eritmaları hamda ushbu eritmalar asosida qotishmalar olinadigan;

5) konchilik ishlari, foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish ishlari, shuningdek yer osti sharoitida ish olib boriladigan korxonalar yoki ularning sexlari, uchastkalari, maydonchalari, shuningdek boshqa ishlab chiqarish obyektlari kiradi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari sanoat xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan xavfli ishlab chiqarish obyektlarining davlat reyestrída hisobga olinadi. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini hisobga olish va ularning davlat reyestrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ushbu Qonunning 4-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Sanoat xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

## **2. Sanoat xavfsizligi sohasini davlat tomonidan tartibga solish**

Sanoat xavfsizligi sohasida davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek qonunchilikka muvofiq sanoat xavfsizligi sohasida ayrim vakolatlarga ega bo‘lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sanoat xavfsizligi sohasida davlat tomonidan tartibga solish:

- sanoat xavfsizligi talablarini belgilashni;
- sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini;
- xavfli ishlab chiqarish obyektlarida qo‘llaniladigan texnika qurilmalarini sertifikatlashtirishni;
- faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalashni;
- sanoat xavfsizligi ekspertizasini;
- qonunchilikka muvofiq boshqa choralarni o‘z ichiga oladi.

*Sanoat xavfsizligi talablari*- qonunchilik hujjatlarida, shuningdek normativ texnik hujjatlarda nazarda tutilgan shartlar, taqiqlar, cheklashlar va boshqa majburiy talablar bo‘lib, ularga rioya etilishi sanoat xavfsizligini ta‘minlaydi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatishni amalga oshirish uchun loyiha hujjatlari sanoat xavfsizligi ekspertizasiga ijobiy xulosasi bo‘lishi zarur.

Xavfli ishlab chiqarish obyektini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatish jarayonida loyiha hujjatlaridan chetga chiqishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektini foydalanishga qabul qilib olish belgilangan tartibda o‘tkaziladi. Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati sanoat xavfsizligi talablari xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan bajarilishini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

## **3. Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanishga oid sanoat xavfsizligi talablari**

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot:

- sanoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilik hujjatlarida, shuningdek normativ texnik hujjatlarda ko‘rsatilgan talablarga rioya etishi;
- xavfli ishlab chiqarish obyekti xodimlari shtatining belgilangan talablarga muvofiq to‘ldirilishini ta‘minlashi;



-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi ishga oid malaka talablariga javob beradigan va ko'rsatilgan ishga tibbiy jihatdan loyiq shaxslarni qo'yishi;

-xavfli ishlab chiqarish obyektlari xodimlarining tayyorgarlikdan va attestatsiyadan o'tkazilishini ta'minlashi;

-ishlab chiqarish jarayoni ustidan nazorat qiluvchi zarur asboblardan va tizimlarning belgilangan talablarga muvofiq mavjud bo'lishi hamda ishlashini ta'minlashi;

Qonunning 15-moddasiga muvofiq sanoat xavfsizligi ekspertizasi o'tkazilishini;

-begona shaxslarning xavfli ishlab chiqarish obyektiga ruxsatsiz kirishining oldini olishi;

-xavfli moddalarni saqlashga oid sanoat xavfsizligi talablarining bajarilishini ta'minlashi;

-sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini belgilangan tartibda ishlab chiqishi va tasdiqlashi;

-maxsus vakolatli davlat organi va qonunchilikka muvofiq sanoat xavfsizligi sohasida ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlarining buyruqlari, qarorlari va yozma ko'rsatmalarini bajarishi;

-avariya yoki noxush hodisa yuz bergan, shuningdek sanoat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar aniqlangan taqdirda, xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanishni to'xtatib turishi;

-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirishda ishtirok etishi, avariya olib kelgan sabablarni bartaraf etish va ularning oldini olish choralarini ko'rishi;

-xavfli ishlab chiqarish obyektida noxush hodisaning yuzaga kelganligi sabablarini tahlil qilishi, mazkur sabablarning bartaraf etilishi va oldini olish choralarini ko'rishi;

-maxsus vakolatli davlat organini, qonunchilikka muvofiq sanoat xavfsizligi sohasida ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va aholini xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya to'g'risida o'z vaqtida belgilangan tartibda xabardor qilishi;

-avariya yuz bergan taqdirda, xavfli ishlab chiqarish obyektlari xodimlarining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish choralarini ko'rishi;

-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya va noxush hodisalar hisobini olib borishi shart.

-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik va uning oqibatlarini tugatish tadbirlarini rejalashtirishi hamda amalga oshirishi;

-tegishli professional avariya-qutqaruv xizmatlari bilan xizmat ko'rsatishga doir shartnomalar tuzishi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda esa o'z avariya-qutqaruv xizmatlarini yoki xodimlari jumlasidan shtatsiz avariya-qutqaruv tuzilmalarini tashkil etishi;

-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik va uning oqibatlarini tugatish uchun qonunchilikka muvofiq moliyaviy mablag‘lar va moddiy resurslarning zaxirasiga ega bo‘lishi;

-xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yoki noxush hodisa yuz bergan taqdirda, xodimlarini bajariladigan harakatlarga o‘qitishi;

-xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya ehtimolini nazarda tutgan holda kuzatish, xabar qilish, aloqa va harakatlarga ko‘maklashish tizimlarini tashkil etishi, shuningdek mazkur tizimlarni yaroqli holatda saqlab turishi shart.

Xavfli ishlab chiqarish obyektining xodimlari:

-sanoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilik hujjatlarida, shuningdek normativ texnik hujjatlarda ko‘rsatilgan talablarga rioya etishlari;

-sanoat xavfsizligi sohasida tayyorgarlikdan va attestatsiyadan o‘tishlari;

-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya yoki noxush hodisa haqida tegishli shaxslarni darhol xabardor qilishlari;

-xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yoki noxush hodisa yuz bergan taqdirda, ishlarni belgilangan tartibda to‘xtatib turishlari;

-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik va uning oqibatlarini tugatish bo‘yicha ishlarni amalga oshirishda belgilangan tartibda ishtirok etishlari shart.

Xavfli ishlab chiqarish obyektida qo‘llaniladigan texnika qurilmalari sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligi jihatidan qonunchilikda belgilangan tartibda majburiy sertifikatlashtirilishi Qonunning 13-modda belgilangan

Qonunning 14-modda esa, Sanoat xavfsizligi sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Quyidagilar belgilangan tartibda sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o‘tkazilishi kerak:

-xavfli ishlab chiqarish obyektini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatishga doir loyiha hujjatlari;

-xavfli ishlab chiqarish obyektida qo‘llaniladigan texnika qurilmalari;

-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi binolar va inshootlar;

-sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi va xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanish bilan bog‘liq boshqa hujjatlar.

-Sanoat xavfsizligi ekspertizasini uni o‘tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiyaga ega bo‘lgan tashkilotlar xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanayotgan yoki undan foydalanishni mo‘ljallayotgan tashkilot mablag‘lari hisobidan o‘tkazadi.

Ekspertiza xulosasi sanoat xavfsizligi ekspertizasi natijasidir.

Sanoat xavfsizligi ekspertizasini o'tkazish va ekspertiza xulosasini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

#### **4. Xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish**

Xavfli ishlab chiqarish obyektidagi har bir avariya vujudga kelishi fakti bo'yicha uning sabablarini texnik jihatdan tekshirish maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Tekshiruv komissiya tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

-hududida xavfli ishlab chiqarish objekti joylashgan mahalliy davlat hokimiyati organi vakillari;

-xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot vakillari;

-qonunchilikka muvofiq boshqa tashkilotlar vakillari.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshiruvchi komissiya tekshiruvga sanoat xavfsizligi, qidiruv, loyihalash, ilmiy-tadqiqot ishlari, sug'urta, uskunalarni tayyorlash sohasidagi va boshqa sohalardagi ekspert tashkilotlari, ekspertlar va mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtirilib, unda avariya sabablari va holatlari, yetkazilgan zarar miqdori, sanoat xavfsizligi talablari yo'l qo'yilgan buzilishlari, xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilotning buzilishlarga yo'l qo'ygan xodimlari, avariya kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik va uning oqibatlarini tugatish uchun ko'rilgan choralar hamda bunday avariya oldini olishga qaratilgan takliflar ko'rsatiladi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot belgilangan sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini tashkil qilishi va amalga oshirishi shart.

Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazorati tashkil qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus vakolatli davlat organiga yoki sanoat xavfsizligi sohasida qonunchilikka muvofiq ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlariga taqdim etiladi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergan holda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik qonunchilikda belgilanadigan tartibda majburiy sug'urta qilinishi kerak.

Ish beruvchi xavfli ishlab chiqarish obyekti xodimlarining hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga zarar yetkazganlik uchun mehnatga oid qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladi.

#### **Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunning asosiy maqsad va mohiyati nimalardan iborat?
2. Sanoat xavfsizligi sohasida davlat tomonidan tartibga solish qanday ahamiyatga ega?
3. Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanishga oid sanoat xavfsizligi talablari nimalardan iborat?
4. Xavfli ishlab chiqarish obyektidagi xodimlari sanoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi majburiyatlarini nimalardan iborat?
5. Xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya sabablarini qanday qilib texnik jihatdan tekshirishni amalga oshiradi?
6. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi nimalardan iborat?
7. Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergan holda zarar yetkazganlik uchun javobgarlik qonunchilikda qanday belgilangan?
8. Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanish bilan bog‘liq faoliyatga litsenziyalash qanday tartibda amalga oshiriladi?
9. Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanish bilan bog‘liq faoliyatniga identifikatsiyalash qanday tartibda amalga oshiriladi?
10. Xavfli ishlab chiqarish obyektini qurish va rekonstruksiya qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?

### **3- MA’RUZA. XAVFLI ISHLAB CHIQRISH OBEKTLARINI IDENTIFAKATSIYA QILISH TARTIBINI O‘RGANISH**

#### **O‘quv rejasi:**

1. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizomning ahamiyati
2. Xavfli ishlab chiqarish obyektlari kategoriyasi va tipi
3. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi
4. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash varaqasi

*Tayanch so‘z va iboralar:* xavfli ishlab chiqarish obyektlari, identifikatsiyalash, kategoriyasi, tipi, Nizom, qaror, ekspertiza, reyestr, sug‘urta, fuqarolik javobgarligi, ekspert tashkiloti, standartlar, meyorlar

#### **1. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizomning ahamiyati**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrda «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi 271-son qarorga asosan xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi to‘g‘risida Nizom tasdiqlangan.

Ushbu Nizom xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi, prinsiplari va shartlarini belgilaydi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash, xavfli ishlab chiqarish obyektlari davlat reyestrda hisobga olish, shuningdek xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilotlar fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish (bundan keyin sug'urta deb ataladi) maqsadida amalga oshiriladi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash sanoat xavfsizligi ekspertizasi doirasida xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilot yoki ekspert tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi. Sug'urta qilish maqsadida xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash faqat ekspert tashkiloti tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Identifikatsiyalash, xavfli ishlab chiqarish obyektlari davlat reyestrda hisobga olish uchun asos hisoblanadi.

## **2. Xavfli ishlab chiqarish obyektlari kategoriyasi**

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari jumlasiga quyidagi xavfli moddalar:

1) portlash-yong'in xavfi bo'lgan muhitni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan moddalar:

tasdiqlangan standartlarga muvofiq tirik organizmga ta'sir qilish darajasiga ko'ra I, II va III xavflilik darajalariga (o'ta xavfli, yuqori darajada xavfli va o'rtacha darajada xavfli) mansub zararli moddalar;

muayyan turdagi tashqi ta'sir chog'ida issiqlik ajratgan va gazlar hosil qilgan holda o'z-o'zidan juda tez tarqaladigan kimyoviy o'zgaruvchan portlovchi moddalar;

inson sog'lig'i va atrof muhit uchun xavfli konsentratsiyali moddalar mavjud bo'lgan ishlab chiqarish chiqindilari foydalaniladigan, ishlab chiqariladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saqlanadigan, tashiladigan, yo'q qilinadigan;

2) 0,07 megapaskaldan ortiq bosim ostida yoki ishlatiladigan suyuqlikning normal atmosfera bosimidagi qaynash haroratidan ortiq haroratda ishlaydigan uskunalardan foydalaniladigan;

3) ko'chmas asosga o'rnatilgan yuk ko'tarish mexanizmlari, eskalatorlar, osma yo'llar, funikulyorlardan (tog' temir yo'llaridan) foydalaniladigan;

4) qora va rangli metallar eritmaları hamda ushbu eritmalar asosida qotishmalar olinadigan;

5) konchilik ishlari, foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish ishlari, shuningdek yer osti sharoitida ish olib boriladigan korxonalar yoki ularning sexlari, uchastkalari, maydonchalari, shuningdek boshqa ishlab chiqarish obyektlari kiradi.

Xavflilik darajasi bo'yicha xavfli ishlab chiqarish obyektlari quyidagi tiplarga bo'linadi:

Birinchi tipdagi xavfli ishlab chiqarish obyektlari — ushbu Nizomga 2-ilova 1 va 2-jadvallarida ko'rsatilgan miqdorda, ularning cheklangan meyoriga teng bo'lgan yoki undan ortiq bo'lgan xavfli moddalar foydalaniladigan, ishlab chiqariladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saqlanadigan, tashiladigan, yo'q qilinadigan yuqori xavflilik darajasidagi obyektlar;

Ikkinchi tipdagi xavfli ishlab chiqarish obyektlari — birinchi tipga tegishli bo'lmagan, Nizomga 2-ilova 1 va 2-jadvallarida ko'rsatilgan miqdorda, ularning cheklangan meyoridan kam bo'lgan xavfli moddalar foydalaniladigan, ishlab chiqariladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saqlanadigan, tashiladigan, yo'q qilinadigan obyektlar;

Uchinchi tipdagi xavfli ishlab chiqarish obyektlari — obyektlar birinchi va ikkinchi tiplariga tegishli bo'lmagan, ushbu Nizom 2—5 kichik bandlarida ko'rsatilgan xavflilik belgilariga ega bo'lgan obyektlar.

Birinchi va ikkinchi tipdagi xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash quyidagi qoidalar hisobga olingan holda amalga oshiradi:

2-ilova 1-jadvalida ko'rsatilmagan xavfli moddalar uchun 2-ilova 2-jadvali moddalari qo'llaniladi;

agar xavfli ishlab chiqarish obyektlari o'rtasidagi masofa 500 metrdan kamni tashkil etsa, xavfli moddaning jami miqdori hisobga olinadi;

agar ayni bir kategoriyadagi xavfli moddalar bir nechta turlari qo'llanilsa, ularning jami boshlang'ich (cheklangan) miqdori:

$$\sum_{i=1}^n m(i) / M(i) > 1 \quad \text{sharti bilan aniqlanadi} \quad (3.1)$$

bunda:  $m(i)$  — qo'llaniladigan modda miqdori;  $M(i)$  — barcha 1 dan  $n$  gacha  $i$  uchun 2-ilova 1 va 2-jadvallariga muvofiq ayni bir moddaning boshlang'ich (cheklangan miqdori).

Quyidagilar xavfli ishlab chiqarish obyektlarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan asosiy prinsiplar hisoblanadi:

-zonalashtirish prinsipi-prinsipi tegishli texnologik jarayonlar amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish maydonchalari yoki ishlab chiqarish binolari birlashtiruvchi mezoni sifatida ajratib ko'rsatish yo'li bilan xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilotlar tarkibida barcha xavfli ishlab chiqarish obyektlarini aniqlashni anglatadi.

Agar korxonada bir-biridan 500 metrdan ortiq masofada joylashgan bir nechta ishlab chiqarish maydonchalarida joylashgan taqdirda, maydonchalar har biri alohida xavfli ishlab chiqarish obyekti sifatida qaraladi.

identifikatsiyalash to'liqligi va ishonchliligi prinsipi- xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilot tarkibida har bir xavfli ishlab chiqarish obyekti xavfi va tipi barcha belgilari aniqlanishini va sanoat xavfsizligi ekspertizasi xulosasida aks ettirilishini anglatadi.

mustaqillik prinsipi- xavfli ishlab chiqarish obyektining bir tipi uchun xarakterli bo'lgan xavflilik bir necha belgilariga ega bo'lgan obyekt uchun eng kam sug'urta so'mmasi miqdori ko'rsatib o'tilgan belgilar soniga bog'liq bo'lmasligini anglatadi.

kamroq xavfli tip, xavfliroq tip bilan yutilishi prinsipi- agar obyekt turli tiplarga mansub bo'lgan xavflilik bir necha belgilarga ega bo'lsa, u holda eng xavfli tipga mansubligini anglatadi.

### **3. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi**

Identifikatsiya varaqasi har bir xavfli ishlab chiqarish obyekti uchun ushbu Nizomga 1- ilovada keltirilgan shakl bo'yicha to'ldiriladi.

Sanoat xavfsizligi ekspertizasi doirasida xavfli ishlab chiqarish obyektini identifikatsiyalash buyurtmachi bilan ekspert tashkiloti o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Identifikatsiyalashni o'tkazish muddatlari, qoidaga ko'ra, ekspertiza obyekti murakkabligi bilan belgilanadi, biroq ekspertiza boshlangan paytdan boshlab 3 oydan ortiq bo'lmasligi kerak.

Sanoat xavfsizligi ekspertizasi doirasida identifikatsiyalash natijalari xavfli ishlab chiqarish obyektining identifikatsiya varaqasi shaklida rasmiylashtiriladi va ushbu varaqa sanoat xavfsizligi ekspertizasi xulosasiga ilova qilinadi.

**1-ilova**

### **Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash varaqasi**

#### **1. Xavfli ishlab chiqarish obyekti**

1.1. Obyektning to'liq nomi	
1.2. Obyekt joylashgan joy (manzili)	

#### **2. Obyektning xavfliligi belgilari**

2.1. «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasi 1-bandida ko'rsatilgan xavfli moddalardan foydalanish, ularni ishlab chiqarish, qayta ishlash, hosil qilish, saqlash, tashish, yo'q qilish	1
2.2 0,07 megapaskaldan ortiq bosim ostida yoki ishlatiladigan suyuqlikning normal atmosfera bosimidagi qaynash haroratidan ortiq haroratda ishlaydigan uskunalardan foydalanish	2
2.3. Ko'chmas asosga o'rnatilgan yuk ko'tarish mexanizmlari, eskalatorlar, osma yo'llar, funikulyorlardan (tog' temir yo'llaridan) foydalanish	3
2.4. Qora va rangli metallar eritmaları hamda ushbu eritmalar asosida qotishmalar olish	4
2.5. Konchilik ishlari, foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish ishlari, shuningdek yer	5

### 3. Obyekt tipi

3.1. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi to'g'risidagi nizomga 2- ilovasidagi 1 va 2-jadvallarda ko'rsatilgan belgilangan cheklangan meyorlarga teng yoki undan ortiq miqdordagi xavfli moddalar mavjud bo'lgan obyektlar	1
3.2. 3.1-kichik bandda ko'rsatilgan obyektlarga tegishli bo'lmagan, xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi to'g'risidagi Nizomga 2-ilovadagi 1 va 2-jadvallarda ko'rsatilgan belgilangan cheklangan meyordan kam miqdordagi xavfli moddalar mavjud bo'lgan obyektlar	2
3.3. Ushbu varaqaning 3.1 va 3.2-kichik bandlarida ko'rsatilgan obyektlarga tegishli bo'lmagan, 2.2—2.5-kichik bandlarda ko'rsatilgan xavflilik belgilariga ega bo'lgan obyektlar	3

### 4. Foydalanadigan tashkilot (ta' sis hujjatlariga muvofiq)

4.1. Tashkilotning to'liq nomi	
4.2. Tashkilotning pochta manzili	
4.3. Telefon, faks	
4.4. Idoraviy mansublik	

Izoh: 1.1, 1.2, 4.1 — 4.4-kichik bandlarda bo'sh o'ng hoshiya to'ldiriladi, 2.1 — 2.5 va 3.1 — 3.3-kichik bandlarning o'ng hoshiyasida xavflilikning zarur belgilari kodlari va obyekt tipi qayd etiladi.

2-ilova

### Xavfli moddalar soni cheklangan meyorlari

1-jadval

Xavfli moddaning nomi	Cheklangan meyor, tonna
Ammiak	500
Ammoniy nitrat (tarkibidagi ammoniy nitratdan hosil bo'lgan azot massaning 28 foizidan ortig'ini tashkil etadigan ammoniy nitrat va ammoniy aralashmasi, shuningdek ammoniy nitrat konsentratsiyasi massaning 90 foizidan ortiq bo'lgan ammoniy nitratning suvli eritmalari)	2500
O'g'it shaklidagi ammoniy nitrat (ammoniy nitrat asosidagi oddiy o'g'itlar, shuningdek tarkibidagi ammoniy nitratdan hosil bo'lgan azot massaning 28 foizidan ortig'ini tashkil etadigan murakkab o'g'itlar (murakkab o'g'itlar tarkibida ammoniy nitrat fosfat va (yoki) kaliy bilan birgalikda mavjud bo'ladi)	10 000
Akrilonitril	200
Xlor	25
Etilen oksidi	50
Sianli vodorod	20
Ftorli vodorod	50
Oltingugurtli vodorod	50
Oltingugurt dioksidi	250
Oltingugurt trioksidi	75



Qo'rg'oshin alkili	50
Fosgen	0,75
Metilizotsianat	0,15

**2-jadval**

<b>Xavfli moddalar turlari</b>	<b>Cheklangan meyor, tonna</b>
Alanganadigan gazlar	200
Tovar-xom ashyo omborlari va bazalardagi yonadigan suyuqliklar	50 000
Texnologik jarayonda foydalaniladigan yoki magistral quvurlar bilan uzatiladigan yonadigan suyuqliklar	200
Zaharli moddalar	200
Yuqori zaharli moddalar	20
Oksidlanadigan moddalar	200
Portlovchi moddalar	50
Atrof tabiiy muhit uchun xavf tug'diradigan moddalar	200

**Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrda 271-son qarorning mazmun va mohiyati nimada namyon bo'ladi?
2. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash deganda nima tushuniladi?
3. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining identifikatsiya varaqasi nimadan iborat?
4. Xavfli ishlab chiqarish obyektlari tipi nimalardan iborat?
5. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi deganda nima tushuniladi?
6. Xavfli ishlab chiqarish obyektlariga qanday oyeqtlar kiradi?
7. Xavfli ishlab chiqarish obyektlari xususiyatlariga ko'ra asosiy prinsiplar nimalardan iborat?
8. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi nimalardan iborat?

**4-MA'RUZA XAVFLI SANOAT OBEKTLARINI DEKLARATSIYA QILISH**

**O'quv rejasi:**

1. Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish tartibi to'g'risidagi Nizomning mazmuni
2. Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi ishlab chiqish tartibi
3. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini taqdim etish, saqlash va ularni hisobga olish
4. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi tuzilishiga talablar

***Tayanch so'z va iboralar:** Xavfli ishlab chiqarish obyektlari, sanoat xavfsizligi, avariya, jarohatlanishlar, ma'lumotlar, tahlil, Nizom, ekspertiza xavfsizlik deklaratsiyasi, hisob-kitob-tushuntirish xati*

**1. Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish tartibi to'g'risidagi Nizomning mazmuni**

O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2008 yil 10 dekabrda «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi 271-son qarorga asosan Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish va davlat organlariga, jamoat birlashmalari va fuqarolarga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan.

Ushbu Nizom «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 19-moddasiga muvofiq xavfsizlik chora-tadbirlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta’minlash, xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariylarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarning yetarliligi va samaradorligini baholash maqsadida xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish hamda davlat organlariga, jamoat birlashmalari va fuqarolarga sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini taqdim etish tartibini belgilaydi.

## **2. Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish**

*Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi* — avariya xavfini har tomonlama baholash natijalari, avariylarning oldini olish va sanoat xavfsizligi meyorlari va qoidalari talablariga muvofiq xavfli ishlab chiqarish obyektining foydalanishga tayyorligi tashkil etilishini ta’minlash bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlarning yetarliligi tahlili, shuningdek xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya oqibatlarini lokalizatsiya qilish va bartaraf etish natijalari ko‘rsatilgan hujjat;

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish quyidagilarni nazarda tutadi:

-avariya xavfini va uning bilan bog‘liq xavf-xatarni har tomonlama baholash;

-avariyalar oldini olish, sanoat xavfsizligi talablariga muvofiq xavfli ishlab chiqarish obyektini foydalanishga tayyorligini ta’minlash bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar yetarliligini tahlil qilish, shuningdek xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariylarni lokalizatsiya qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish;

-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariylar oqibatlari ko‘lamini va sodir bo‘lgan taqdirda yetkazilgan zarar miqdorini kamaytirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish.

*Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasiga hisob-kitob-tushuntirish xati* — avariya xavfi asosli bahosi va avariylar oldini olish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar yetarliligini asoslovchi materiallar keltirilgan hujjat;

Qonunchilikka muvofiq xavfli ishlab chiqarish obyektlari birinchi tipiga muvofiq bo'lgan loyihalananayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan xavfli ishlab chiqarish obyektlari sanoat xavfsizligini majburiy deklaratsiyalashga tegishli bo'ladi.

Boshqa xavfli ishlab chiqarish obyektlari sanoat xavfsizligini deklaratsiyalash ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi.

Majburiy deklaratsiyalanishi kerak bo'lgan xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiya qilish xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot, shuningdek sanoat xavfsizligi ekspertizasini o'tkazish yuzasidan akkreditatsiyaga ega bo'lgan ekspert tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xavfli ishlab chiqarish obyekti sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi ushbu obyektidan foydalanayotgan tashkilot tomonidan mustaqil ravishda yoki xavfli ishlab chiqarish obyektlar sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish yuzasidan akkreditatsiyaga ega bo'lgan tashkilot bilan tuzilgan shartnoma asosida ishlab chiqiladi.

Loyihalashtirilayotgan xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi xavfli ishlab chiqarish obyektini qurish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiya qilish va tugatish yuzasidan loyiha hujjatlari tarkibida ishlab chiqiladi.

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi tuzilishiga qo'yiladigan talablar ushbu Nizomga 2- ilovada keltirilgan.

Loyihalashtirilayotgan xavfli ishlab chiqarish obyekti uchun sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi loyiha buyurtmachisi tomonidan tasdiqlanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xavfli ishlab chiqarish obyekti deklaratsiyasi ushbu obyektidan foydalanayotgan tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Quyidagi xollarda sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini qayta ko'rib chiqiladi.

1) sanoat xavfsizligini, avariylarni lokalizatsiya qilish va avariya oqibatlarini bartaraf etishni ta'minlashga ta'sir ko'rsatadigan sharoitlar o'zgarganda kechi bilan 1 yil muddatda;

2) sanoat xavfsizligi, avariylarni lokalizatsiya qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi amalda bo'lgan talablar (qoidalar va meyorlar) o'zgarganda kechi bilan 1 yil muddatda;

3) O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining qo'shma qarori qabul qilinganda ushbu qarorlarda nazarda tutilgan muddatlarda qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi 5 yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqilishi kerak.

### **3. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini taqdim etish, saqlash va ularni hisobga olish**

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi yoki undan foydalanishni nazarda tutuvchi tashkilot rahbari:

ekspertiza xulosasini rasmiylashtirilgan kundan boshlab bir oy muddatda sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini Favqulodda vaziyatlar boshqarma, "Sanoatkontexnazorat" inspeksiyasi va mahalliy davlat hokimiyati organiga taqdim etadi..

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi birinchi nusxasi (asli) va ekspertiza xulosasi xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilotda saqlanadi.

#### 1-ilova

### Sanoat xavfsizligi deklaratsiyalanadigan xavfli ishlab chiqarish obyektlari to'g'risida ma'lumotlar

Tashkilot to'liq nomi	Tashkilot to'liq pochta manzili, telefoni, faksi	Yuqori tashkilot (idora), mavjud bo'lsa	Obyekt to'liq nomi	Obyekt joylashgan joyi	Qonuni 4-moddasiga muvofiq obyektg xavflilik belgilari	Xavfsizlik deklaratsiya langan yil
-----------------------	--	---	--------------------	------------------------	--	------------------------------------

#### 2-ilova

### 4. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi tuzilishiga talablar

1. Deklaratsiya quyidagi tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi:

-titul varaq;

-deklaratsiyani ishlab chiqqan tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar;

-mundarija;

-1-bo'lim «Umumiy ma'lumotlar»;

-2-bo'lim «Xavfsizlik tahlili natijalari»;

-3-bo'lim «Sanoat xavfsizligi talablarini ta'minlash»;

-4-bo'lim «Xulosalar»;

-5-bo'lim «Vaziyat rejasi».

-Deklaratsiyaga ilovalar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1-ilova «Hisob-kitob-tushuntirish xati»;

-2-ilova «Axborotnoma».

Titul varaq deklaratsiya birinchi sahifasi hisoblanadi va hujjatni ishlab chiqish va qidirish uchun zarur bo'lgan axborotlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Titul varaqda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

a) deklaratsiya qilinayotgan obyektidan foydalanuvchi tashkilotning rahbari yoki loyihaning buyurtmachisi tomonidan deklaratsiyani tasdiqlash grifi;

b) tarkibiga deklaratsiyalanadigan obyekt kiradigan tashkilot tomonidan belgilanadigan ro'yxatdan o'tkazish tartib raqami;

v) belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan beriladigan ro'yxatdan o'tkazish tartib raqami;

g) deklaratsiyalanayotgan obyektning (bitta obyekt deklaratsiyalangan taqdirda) yoki deklaratsiyalanayotgan obyektlarning (bir nechta obyekt deklaratsiyalangan taqdirda) aniq nomi ko'rsatilgan holda deklaratsiyaning nomi, shuningdek tashkilotning nomi;

d) deklaratsiyalanayotgan obyektning xavfli ishlab chiqarish obyektlari davlat reyestridagi ro'yxatdan o'tkazish tartib raqami;

ye) deklaratsiyalanayotgan obyektning joylashgan joyi va deklaratsiya tasdiqlangan yil.

Deklaratsiyani ishlab chiqqan tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

a) deklaratsiyani ishlab chiqqan tashkilotning nomi va unga ilovalar, uning pochta manzili, telefoni, faksi, sanoat xavfsizligini deklaratsiyalash bilan bog'liq faoliyat turini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya yoki ruxsatnoma to'g'risidagi ma'lumotlar, ularda faoliyat turining nomi, litsenziyaning ro'yxatdan o'tkazilgan tartib raqami va berilgan sanasi ko'rsatiladi;

b) bajaruvchilar ro'yxati, unda deklaratsiyani ishlab chiqishda qatnashgan shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi va ish joyi ko'rsatiladi.

Mundarijada deklaratsiya barcha bo'limlari nomi, ushbu elementlar boshlanadigan sahifalar ko'rsatiladi:

1-bo'lim «Umumiy ma'lumotlar» quyidagilardan iborat bo'ladi:

a) tashkilot rekvizitlari (tashkilot to'liq va qisqartirilgan nomi, yuqori organi, vazirlik yoki idora, kompaniya, konser (ular mavjud bo'lsa) nomi, ularda tashkilot rahbarlari manzili, telefoni, familiyasi va lavozimi, tashkilot to'liq pochta manzili, telefoni, faksi va teletaypi, tashkilot faoliyati deklaratsiyalanayotgan obyektidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan asosiy yo'nalishlari qisqacha ro'yxati);

b) deklaratsiyalash asoslanishi (xavfli ishlab chiqarish obyekt deklaratsiyalanayotgan obyektlarga tegishliligiga asos bo'lgan xavfli moddalar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar, deklaratsiyani ishlab chiqish to'g'risidagi qaror qabul qilinishiga asos bo'lgan normativ huquqiy hujjatlar ro'yxati);

v) joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlar (deklaratsiyalanayotgan obyekt joylashadigan joy tavsifi, hudud hajmi va chegaralari, deklaratsiya qilinayotgan obyektning sanitariya-himoya va/yoki qo'riqlanadigan zonalarini to'g'risidagi ma'lumotlar);

g) xodimlar va aholi to'g'risidagi ma'lumotlar (deklaratsiya qilinayotgan obyekt xodimlarining umumiy soni va eng ko'p ishlaydigan smenasining soni, eng yuqori darajadagi

gipotetik avariyaning shikastlovchi omillari ta'sir ko'rsatadigan zonalarda bo'lishi mumkin bo'lgan yaqin-atrofdagi yirik tashkilotlar va aholi punktlari ro'yxati, unda xodimlar va aholi soni ko'rsatiladi);

d) faqat faoliyat ko'rsatayotgan obyektlar uchun ko'rsatiladigan sug'urta ma'lumotlari (sug'urtalovchi tashkilotning nomi va manzili, shuningdek uning sug'urta litsenziyalari to'g'risidagi ma'lumotlar, sug'urta summasi miqdori ko'rsatilgan holda sug'urta shartnomalari ro'yxati).

2-bo'lim «Xavfsizlik tahlili natijalari» quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

a) deklaratsiya qilinayotgan obyektning identifikatsiya qilishda hisobga olinadigan xavfli moddalar to'g'risidagi ma'lumotlar (xavfli moddaning nomi, moddaning xavflilik darajasi va odam organizmiga ta'sir ko'rsatish xarakteri);

b) texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar (asosiy texnologik potoklar sxemasi, u blok-sxemadan iborat bo'ladi, sxemada xavfli moddalarning nomlari va ularning deklaratsiyalanayotgan obyektning texnologik tizimida ko'chish yo'nalishlari ko'rsatiladi, shuningdek xavfli moddalarning taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar, ularda texnik qurilmalarda — apparatlarda (idishlarda), quvurlarda bo'ladigan xavfli moddalarning umumiy miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'ladi, ularning bitta idishdagi yoki eng yuqori sig'imli quvur uchastkasidagi eng yuqori miqdori ko'rsatiladi. Ma'lumotlar deklaratsiyalanadigan obyektning barcha tarkiblari uchun xavfli moddaning eng yuqori reglamentli miqdorlari bo'yicha ko'rsatiladi);

v) xavf tahlilining asosiy natijalari (avariyalar kelib chiqishi va rivojlanishi shart-sharoitlari tahlili natijalari, avariya xavfini baholash natijalari).

Avariya kelib chiqishi va rivojlanishi shart-sharoitlari tahlili natijalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1) avariya omillari va ularning kelib chiqishi va rivojlanishiga ko'maklashadigan asosiy sabablar ro'yxati;

2) eng katta va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariya ssenariylari qisqacha tavsifi.

Avariya xavfini baholash natijalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1) xavfni baholashda qo'llanadigan hisob-kitob modellari va metodlari ro'yxati;

2) avariya qatnashadigan xavfli moddalar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar;

3) shikastlovchi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan zonalar soni to'g'risidagi ma'lumotlar;

4) jabrlanishi mumkin bo'lganlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar;

5) yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar to'g'risidagi ma'lumotlar;

6) xodimlarga, aholiga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan hamda mol-mulkka va atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan ziyon to'g'risidagi ma'lumotlar.

3-bo'lim «Sanoat xavfsizligi talablarini ta'minlash» quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan obyektдан foydalanishga sanoat xavfsizligi talablarini ta'minlash to'g'risidagi ma'lumotlar (faoliyat ko'rsatayotgan obyektlar uchun O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi organlari farmoyishlari va ko'rsatmalari bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, deklaratsiyalanayotgan obyektlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari uchun mavjud yoki zarur litsenziyalar ro'yxati, xodimlarni kasb bo'yicha va avariyaqa qarshi harakat qilishga tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar, ularda sanoat xavfsizligi sohasidagi bilimlarni tekshirishning muntazamligi va xodimni ishga kiritish tartibi ko'rsatiladi; sanoat xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ishlab chiqarishda nazorat qilish tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar, avariya holatlarini to'plash va tahlil qilish tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar, sanoat xavfsizligining o'tkazilgan ekspertizalari ro'yxati, unda ekspertizani o'tkazgan ekspert tashkilotlarining va ekspertiza obyektining nomi ko'rsatiladi; ishlab turgan obyektдан foydalanish shart-sharoitlarining meyor va qoidalar talablariga muvofiqligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

b) avariya oqibatlarini lokalizatsiya qilish va bartaraf etish bo'yicha harakatlarga tayyorgarlik yuzasidan sanoat xavfsizligi talablarini ta'minlash to'g'risidagi ma'lumotlar (deklaratsiyalanayotgan obyektдаги avariya oqibatlarini lokalizatsiya qilish va bartaraf etish bo'yicha aniq tadbirlar, sanoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha avariyaqa qarshi kuchlarning, avariya-qutqaruv xizmatlari va boshqa xizmatlarning tarkibi, deklaratsiyalanayotgan obyektдаги avariya oqibatlarini lokalizatsiya qilish va bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar, deklaratsiyalanayotgan obyektда avariya vujudga kelgan taqdirda xabar qilish tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar, unda xabar qilish sxemalari va avariyaqa sodir bo'lgandagi harakatlar tartibi ko'rsatiladi).

4-bo'lim «Xulosalar» quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

a) xavfsizlik darajasining umumlashtirilgan bahosi, unda deklaratsiyalanayotgan obyektning eng yuqori xavfli tarkiblari va xavf ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadigan eng ahamiyatli omillar ko'rsatiladi;

b) avariya xavfini kamaytirishga yo'naltirilgan rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar ro'yxati.

«Vaziyat rejasi» nomli 5-bo'lim o'z oqibatlariga ko'ra eng xavfli va deklaratsiyalanayotgan obyektдаги avariyaqaarning eng yuqori darajada bo'lishi mumkin bo'lgan (namunaviy) ssenariylari uchun shikastlanishi mumkin bo'lgan eng ko'p zonalarg grafik tasviridan iborat bo'lishi kerak.

«Vaziyat rejasi»da masshtab hisobida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan obyekt sanoat maydoni (hududi) va sanitariya-himoya zonasining chegarasi;

b) korxonalar, aholi punktlari, odamlar ko'p to'planadigan joylar;

v) avariylarning shikastlovchi omillari ta'sir ko'rsatadigan zonalar.

«Hisob-kitob-tushuntirish xati» nomli 1-ilova quyidagi tarkibda ---titul varaq;

-bajaruvchilar ro'yxati;

-Mundarija;

-1-bo'lim «Tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar»;

-2-bo'lim «Xavfsizlik tahlili»;

-3-bo'lim «Xulosalar va takliflar»;

-4-bo'lim «Vaziyatlar rejalari»;

-«Foydalanilgan manbalar ro'yxati».

*Izoh Hisob-kitob-tushuntirish xati» 5- ma'ruzada batafsil berilgan*

#### **Mavzuni uzlashtirish uchun savollar:**

1. Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish tartibi to'g'risidagi Nizomning asosiy mazmuni nimadan iborat?

2. Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi ishlab chiqish tartibi nimalardan iborat?

3. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini taqdim etish, saqlash va ularni hisobga olish qanday amalga oshiriladi?

4. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi qanday tarkibiy tuzilishlardan iborat?

5. Xavfsizligi deklaratsiyasi titul varaqida nimalar ko'rsatiladi?

6. Xavfsizligi deklaratsiyasi ishlab chiqqan tashkilot to'g'risidagi qanday ma'lumotlar aks etadi?

7. Xavfsizligi deklaratsiyasi 1-bo'lim «Umumiy ma'lumotlar» nimalar ko'rsatiladi?

8. Xavfsizligi deklaratsiyasi 2-bo'lim «Xavfsizlik tahlili natijalari» nimalar ko'rsatiladi?

9. Xavfsizligi deklaratsiyasi 3-bo'lim «Sanoat xavfsizligi talablarini ta'minlash» nimalar ko'rsatiladi?

10. Xavfsizligi deklaratsiyasi 4-bo'lim «Xulosalar» nimalar ko'rsatiladi?

11. Xavfsizligi deklaratsiyasi 5-bo'lim «Vaziyat rejasi» nimalar ko'rsatiladi?

12. Xavfsizligi deklaratsiyasi ilovalarda nimalar ko'rsatiladi?

#### **5-MA'RUZA VAZIRLAR MAXKAMASINING 2008 YIL 10 DEKABRDA 271-SONLI KARORI ASOSIDA «XISOB-TUSHUNTIRISH XATI»NI TUZISH TARTIBI**

#### **O'quv rejasi:**

1. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning tarkibiy tuzilishi
2. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning titul varaq tuzilishi



3. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning tashkilot to‘g‘risidagi ma’lumotlar
4. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning xavfsizlik tahlili
5. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning xulosalar va takliflar
6. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning vaziyatlar rejalari
7. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasining axborot varag‘i

***Tayanch so‘z va iboralar:*** Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi, hisob-kitob-tushuntirish xati, titul varaq, xavfsizlik tahlili, xulosalar va takliflar, vaziyatlar rejalari, axborot varag‘i, sanoat xavfsizligi

### **1. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning tarkibiy tuzilishi**

Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish jarayonida «Hisob-kitob-tushuntirish xati» deklaratsiyaga 1-ilova qilinadi.

*Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasiga hisob-kitob-tushuntirish xati* — avariya xavfi asosli bahosi va avariya oldini olish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar yetarliligini asoslovchi materiallar keltirilgan hujjat;

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasiga hisob-kitob-tushuntirish xatining tarkibiy tuzilishi quyidagi tarkibda bo‘ladi:

titul varaq;

bajaruvchilar ro‘yxati;

Mundarija;

1-bo‘lim «Tashkilot to‘g‘risidagi ma’lumotlar»;

2-bo‘lim «Xavfsizlik tahlili»;

3-bo‘lim «Xulosalar va takliflar»;

4-bo‘lim «Vaziyatlar rejalari»;

«Foydalanilgan manbalar ro‘yxati».

### **2. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning titul varaqasi tuzilishi**

Titul varaq deklaratsiyaning birinchi sahifasi hisoblanadi va hujjatni ishlab chiqish va qidirish uchun zarur bo‘lgan axborotlar manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Titul varaqda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

a) hisob-kitob-tushuntirish xatini ishlab chiqqan tashkilotning rahbari tomonidan hisob-kitob-tushuntirish xatini tasdiqlash grifi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi tomonidan beriladigan ro‘yxatdan o‘tkazish tartib raqami (u deklaratsiyaga berilgan ro‘yxatdan o‘tkazish tartib raqamiga muvofiq bo‘lishi kerak);

v) deklaratsiyaga hisob-kitob-tushuntirish xatining nomi, unda deklaratsiyalanayotgan (bitta obyekt deklaratsiyalangan taqdirda) yoki deklaratsiya qilinayotgan obyektlarning (bir nechta obyekt deklaratsiyalangan taqdirda) aniq nomi ko'rsatiladi, shuningdek tarkibiga ushbu obyekt kiradigan tashkilotning nomi;

g) deklaratsiyalanayotgan obyektning xavfli ishlab chiqarish obyektlari davlat reyestridagi ro'yxatdan o'tkazish tartib raqami;

d) daftarning tartib raqami (hisob-kitob-tushuntirish xati ikkita va undan ko'p daftardan iborat bo'lgan taqdirda);

ye) hisob-kitob-tushuntirish xatini ishlab chiqqan tashkilotning joylashgan joyi va uning tasdiqlangan yili.

Hisob-kitob-tushuntirish xati ikkita yoki undan ko'p bo'lgan taqdirda har qaysi daftar birinchi daftarning sahifasiga va mavjud ma'lumotlarga muvofiq bo'lgan ushbu daftarga tegishli titul varaqqa ega bo'lishi kerak.

Bajaruvchilarning ro'yxati.

Bajaruvchilarning ro'yxatida mas'ul bajaruvchilarning va hisob-kitob-tushuntirish xatini ishlab chiqishda qatnashgan birgalikdagi bajaruvchilarning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi va ish joyi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Mundarija.

Mundarijada hisob-kitob-tushuntirish xati barcha bo'limlarining nomi, ushbu elementlar boshlanadigan sahifalar ko'rsatiladi.

Hisob-kitob-tushuntirish xati ikkita va undan ko'p daftardan iborat bo'lgan taqdirda ularning har birida o'z mundarijasi bo'lishi kerak. Birinchi daftarning mundarijasida butun hujjatlarning mazmuni keltirilgan bo'lishi kerak, unda sahifalar va daftarlarning tartib raqamlari, keyingi daftarlarda — faqat tegishli daftarning mazmuni ko'rsatiladi.

### **3. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar**

1-bo'lim «Tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlar»da quyidagilar bo'lishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan obyektning tarkibiy ro'yxati;

b) deklaratsiyalanayotgan obyektning topografiyasi va joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlar (deklaratsiyalanayotgan obyekt joylashgan rayonning topografiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar, deklaratsiyalanayotgan obyektning taqiqlangan, qo'riqlanayotgan va sanitariya-himoya zonalarining mavjudligi va chegaralari, deklaratsiyalanayotgan obyekt joylashgan rayondagi tabiiy-iqlim sharoitlari, loyihada qurilish maydonining seysmik rayoni qismidagi qidiruvlar bo'yicha hisobotlardan foydalanilishi, gruntlar, tabiiy-iqlim va boshqa tashqi ta'sirlar

tavsiflari to'g'risidagi ma'lumotlar) (loyihalash hujjatlari tarkibida ishlab chiqilayotgan deklaratsiya uchun rasmiylashtiriladi);

v) xodimlar va yaqin atrofda yashaydigan aholi to'g'risidagi ma'lumotlar (deklaratsiyalanayotgan obyektning uning ma'muriy birliklari va tarkiblari bo'yicha xodimlarning joylashishi to'g'risidagi ma'lumotlar, ularda xodimlarning o'rtacha soni va eng ko'p ishlaydigan smenalar soni ko'rsatiladi; eng yuqori darajadagi gipotetik avariyaning shikastlovchi omillari ta'siridagi zonalarda bo'lishi mumkin bo'lgan yaqin atrofdagi tashkilotlarning joylashishi to'g'risidagi ma'lumotlar, ularda deklaratsiyalanayotgan obyektдан uzoqdalik va xodimlarning soni ko'rsatiladi; eng yuqori darajadagi gipotetik avariyaning shikastlovchi omillari ta'siridagi zonalarda bo'lishi mumkin bo'lgan aholi punktlarining joylashishi to'g'risidagi ma'lumotlar, ularda deklaratsiyalanayotgan obyektдан uzoqdalik va xodimlarning soni ko'rsatiladi. Deklaratsiyalanayotgan obyektning tarkibiy ro'yxati xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiya qilish sohasida amaldagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak).

#### **4. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning xavfsizlik tahlili**

«Xavfsizlik tahlili» nomli 2-bo'limda quyidagilar bo'lishi kerak:

a) xavfli moddalarning tavsifi (moddalar, formula, tarkibning nomi, umumiy ma'lumotlar (molekulyar og'irlik, qaynash harorati, zichlik) portlash xavfi to'g'risidagi ma'lumotlar, toksik xavflilik to'g'risidagi ma'lumotlar, reaksiya berish qobiliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, moddaning hidi to'g'risidagi ma'lumotlar, korroziya faolligi to'g'risidagi ma'lumotlar, ehtiyot choralari tavsifi, odamlarga ko'rsatadigan ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar, himoya qilish vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar, moddani zararsiz holatga o'tkazish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar, modda ta'sir ko'rsatgan taqdirda shikastlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish choralari to'g'risidagi ma'lumotlar);

b) texnologiyalar va apparatni rasmiylashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar (ularda prinsipial texnologik sxema, asosiy texnologik asbob-uskunalar va deklaratsiyalanayotgan obyektning tarkibi bo'yicha texnologik jarayonning qisqacha tavsifi, xavfli moddalar deklaratsiyalanayotgan obyektning tarkibi bo'yicha aylanadigan asosiy texnologik asbob-uskunalarining joylashish rejasi, xavfli moddalar aylanadigan asosiy texnologik asbob-uskunalarining ro'yxati, xavfli moddalarning asbob-uskunalar bo'yicha taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi);

v) xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha texnik yechimlarning tavsifi (asbob-uskunalarining siyraklanishiga yo'l qo'ymaslikka va xavfli moddalarning avariya vaqtida tashqariga chiqishining oldini olishga yo'naltirilgan yechimlarning tavsifi, avariylar rivojlanishining oldini olishga va xavfli moddalarning tashqariga chiqishini lokalizatsiya qilishga yo'naltirilgan yechimlarning

tavsifi, portlash, yong'in xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan yechimlarning tavsifi, avtomatik ravishda tartibga solish, blokirovka qilish, signalizatsiyalar va boshqa xavfsizlikni ta'minlash vositalari tizimlarining tavsifi);

g) xavfning tahlili (ma'lum avariya tahlili, avariya kelib chiqishi va rivojlanishi shart-sharoitlarining tahlili, avariya xavfini baholash).

Ma'lum avariya tahlilida quyidagilar bo'lishi kerak:

1) avariya va deklaratsiyalanayotgan obyektida mavjud bo'lgan nosozliklar ro'yxati (faqat faoliyat ko'rsatayotgan obyektlar uchun rasmiylashtiriladi);

2) boshqa shunga o'xshash obyektlarda mavjud bo'lgan avariya yoki aylanayotgan xavfli moddalar bilan bog'liq avariya ro'yxati;

3) sodir bo'lgan avariya asosiy sabablari tahlili.

Avariya kelib chiqishi va rivojlanishi shart-sharoitlarining tahlili quyidagilardan iborat bo'ladi:

1) avariya kelib chiqishi va rivojlanishiga ko'maklashuvchi bo'lishi mumkin bo'lgan sabablar va omillarni aniqlash;

2) sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariya namunaviy ssenariylarini aniqlash;

3) hisob-kitob qilishning qo'llanadigan fizik-matematik modellari va usullarini asoslash;

4) avariya qatnashuvchi xavfli moddalar miqdorini baholash;

5) shikastlovchi omillar ta'sirida bo'lishi mumkin bo'lgan zonalar hisob-kitobi;

6) jabrlanganlarning bo'lishi mumkin bo'lgan sonini baholash;

7) bo'lishi mumkin bo'lgan zararni baholash.

Avariya xavfini baholash xodimga, aholiga yetkazilgan zararning muqarrarligini hamda mol-mulkka va atrof tabiiy muhitga yetkazilgan ziyonni baholashdan iborat bo'ladi.

## **5. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning xulosalar va takliflar**

3-bo'lim «Xulosalar va takliflar» quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan obyektning eng xavfli tarkiblari ro'yxati;

b) xavf ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi eng ahamiyatli omillar ro'yxati;

v) xavfli ishlab chiqarish obyektining xavfsizlik darajasini baholash;

g) avariya xavfini kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni joriy etish bo'yicha takliflar.

2.7. 4-bo'lim «Vaziyat rejalari»da deklaratsiyalanayotgan obyektning tarkibi bo'yicha avariyaning mumkin bo'lgan va eng yuqori darajadagi muqarrar (namunaviy) ssenariysi

zonalarining grafik tasviri, shuningdek joylashish zonalarini hisob-kitob qilish uchun boshlang'ich ma'lumotlar ko'rsatilgan holda ushbu ssenariylarning qisqacha tavsifi bo'lishi kerak.

## **6. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning vaziyatlar rejalari**

Vaziyat rejalari masshtab hisobida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- a) deklaratsiyalanayotgan obyektning sanoat maydoni (hududi);
- b) tashkilotlar, aholi punktlari, odamlar ko'p to'planadigan joylar;
- v) avariylarning shikastlovchi omillari ta'sir ko'rsatadigan zonalar.

«Foydalanilgan manbalar ro'yxati»da quyidagilar bo'lishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan obyektidagi sanoat xavfsizligi talablarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va normativ texnik hujjatlar ro'yxati.

b) hisob-kitob-tushuntirish xatini ishlab chiqishda foydalaniladigan tashkilot hujjatlari ro'yxati;

v) adabiyotlar manbalari ro'yxati.

«Axborot varag'i» nomli ilova fuqarolar va jamoat tashkilotlari so'rovlari bo'yicha xavfli ishlab chiqarish obyekti to'g'risidagi axborotlarni belgilangan tartibda berish uchun xizmat qiladi.

## **7. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi axborot varag'i**

«Axborot varag'i»da quyidagilar bo'lishi kerak:

a) tarkibiga deklaratsiyalanadigan obyekt kiradigan tashkilotning nomi;

b) xabardor qilish va jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun mas'ul shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi, telefoni);

v) deklaratsiyalanayotgan obyektidan foydalanish bilan bog'liq ishlab chiqarish faoliyatining qisqacha tavsifi;

g) deklaratsiyalanayotgan obyektida aylanadigan xavfli moddalarning ro'yxati va asosiy tavsiflari;

d) sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariylar ko'lamlari va oqibatlari hamda xavfsizlik choralari to'g'risidagi qisqacha ma'lumotlar;

ye) avariylar sodir bo'lgan taqdirda aholini xabardor qilish usullari va ularning zarur harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

### **Mavzuni uzlashtirish uchun savollar:**

1. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasining «Hisob-kitob-tushuntirish xati mazmuni nimadan iborat?

1. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasining «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning tarkibiy tuzilishiga nimalar kiradi?
2. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning titul varaq tuzilishi nimalardan iborat?
3. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning tashkilot to'g'risidagi qanday ma'lumotlar kiritiladi?
4. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning xavfsizlik tahliliga qanday ma'lumotlar kiritiladi?
5. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning xulosalar va takliflarga nimalar kiriladi?
6. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» ning vaziyatlar rejalariga nimalar kiriladi?
7. Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasining axborot varag'i nimalardan iborat?

## 6-MA'RUZA SANOAT XAVFSIZLIGI EKSPERTIZASI TIZIMI

### O'quv rejasi:

1. Ekspertizadan o'tkaziladigan xavfli ishlab chiqarish obyektlari
2. Ekspertizani o'tkazish tartibi
3. Ekspertiza tizimi qatnashchilari
4. Ekspertiza tizimining asosiy vazifalari
5. Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilotlarning asosiy funksiyalari

*Tayanch so'z va iboralar:* Nizom, ekspertiza, deklaratsiya, idenfikatsiya, xavfli sonat obyektlari, texnik jixozlar, muofiqlashtirish kengashi, akredatsiya, avariya, konstruksiya, ekspertiza xulosasi, ekspertiza tizimi

### 1. Ekspertizadan o'tkaziladigan xavfli ishlab chiqarish obyektlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktabr, "Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish va ekspertiza xulosasini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 784-son qarori bayon etilgan.

Qaror bilan tasdiqlangan Nizomga ko'ra:

Ushbu Nizomga muvofiq quyidagilar ekspertizadan o'tkaziladi:

a) xavfli ishlab chiqarish obyektini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatishga doir loyiha hujjatlari;

b) xavfli ishlab chiqarish obyektida ushbu Nizom 1-ilovaga muvofiq ro'yxat bo'yicha qo'llaniladigan texnik qurilmalar:

-xizmat muddati tugaganligi bo'yicha;

-haqiqiy xizmat muddati yigirma yildan oshadigan bo'lsa, texnik hujjatlarida bunday qurilma xizmat muddati haqida ma'lumotlar bo'lmaganda;

-konstruksiyani o'zgartirish, bunday texnik qurilma ko'tarib turuvchi elementlari materiallarini almashtirish bilan bog'liq ishlar amalga oshirilgach yoki xavfli ishlab chiqarish

obyektida avariya yoki noxush hodisa tufayli texnik qurilma shikastlanganda qayta tiklash bo'yicha ta'mirlash ishlaridan so'ng;

-ekspertiza xulosalarida belgilangan ekspluatatsiya muddati tugaganligi bo'yicha;

-qonun hujjatlariga muvofiq sanoat xavfsizligi sohasida alohida vakolatlarga ega vakolatli organ yoki davlatning boshqa organlarining mansabdor shaxsi tomonidan texnik qurilmaning xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuzaga kelishi xavfini keltirib chiqaradigan shikastlanishi yoki xususiyatlarining yo'l qo'yiladigan normalardan chetga chiqishi aniqlangan va bu boradagi ko'rsatmalar belgilangan tartibda rasmiylashtirishgan holatda;

-buyurtmachi tashabbusi bilan;

v) xavfli ishlab chiqarish obyektida texnologik jarayonlarni amalga oshirish, «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasi 1-bandida nazarda tutilgan xavfli moddalarni saqlash uchun mo'ljallangan binolar va inshootlar;

-loyiha hujjati mavjud bo'lmaganda yoki loyiha hujjatida binolar va inshootlardan foydalanish muddati haqida ma'lumotlar bo'lmasa;

-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi binolar va inshootlarning ko'tarib turuvchi konstruksiyalariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan avariya yoki tabiiy hodisalardan so'ng;

-qonun hujjatlariga muvofiq sanoat xavfsizligi sohasida alohida vakolatlarga ega vakolatli organ yoki davlatning boshqa organlarining mansabdor shaxsi tomonidan texnik qurilmaning xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuzaga kelishi xavfini keltirib chiqaradigan shikastlanishi yoki xususiyatlarining yo'l qo'yiladigan normalardan chetga chiqishi aniqlangan va bu boradagi ko'rsatmalar belgilangan tartibda rasmiylashtirishgan holatda;

-buyurtmachining tashabbusi bilan;

g) xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi deklaratsiyalari.

## **2. Ekspertizani o'tkazish tartibi**

Ekspertiza ekspert tashkiloti va buyurtmachi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida o'tkaziladi.

Ekspertiza ilm-fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan tadqiqotlar mustaqilligi, xolisligi, puxtaligi va to'liqligi prinsiplariga asoslanadi.

Ekspertizani o'tkazish muddati ekspertiza obyektining murakkabligiga qarab belgilanadi, ammo bu muddat sanoat xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlari va normativ texnik hujjatlarga muvofiq zarur bo'lgan materiallar va hujjatlar to'plami olingan hamda ekspertizani o'tkazish bo'yicha boshqa barcha shartlar bajarilgan kundan boshlab uch oydan oshmasligi kerak.

Ushbu Nizom 2-ilovaga muvofiq sxema bo'yicha ekspertiza o'tkaziladi va ekspertiza xulosasi beriladi.

Ekspertiza quyidagi bosqichlardan iborat:

- ekspertizani o'tkazish uchun arizani qabul qilish;
- hujjatlarni dastlabki baholash hamda ekspertizani amalga oshirish uchun shartnoma tuzish;
- ekspertiza obyektining unga qo'yiladigan sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligini baholash;
- ekspertiza natijalari bo'yicha ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish va berish.

Buyurtmachi ekspertizani amalga oshirish uchun ekspert tashkilotiga ushbu Nizomga 3- ilovada keltirilgan shakl bo'yicha rasmiylashtirilgan buyurtmanomani bevosita, uning olingani to'g'risidagi bildirishnoma bilan birga pochta aloqa vositasi orqali yoxud elektron shaklda taqdim etadi.

Ekspertiza objekti o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda, buyurtmanomaga ushbu Nizomga 4-ilovada ko'rsatilgan hujjatlar ilova qilinadi.

Buyurtmanoma ro'yxatga olingan kundan boshlab, uch ish kuni davomida taqdim etilgan hujjatlar dastlab baholanadi.

Dastlabki baholashda ushbu Nizomga 4-ilovada keltirilgan ro'yxat bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar o'rganib chiqiladi.

Taqdim etilgan hujjatlarni dastlabki baholash natijalari salbiy bo'lsa, ekspert tashkiloti bir ish kuni davomida buyurtmachiga buyurtmanomani ko'rib chiqish rad etilgan asosli sabablar ko'rsatilgan bildirishnomani yuboradi.

Taqdim etilgan hujjatlarni dastlabki baholash natijalari ijobiy bo'lsa, ekspert tashkiloti o'n ish kuni davomida buyurtmachi bilan ekspertizani o'tkazish shartnomasini rasmiylashtiradi.

Ekspertizani o'tkazishda taqdim etilgan hujjatlarda nazarda tutilmagan, ammo sanoat xavfsizligi talablariga muvofiq bajarilishi shart bo'lgan ishlar hajmlari aniqlangan holatlarda, bu ishlar shartnomaga qo'shimcha bitim asosida bajarilishi mumkin.

Ekspert tashkiloti buyurtmachi shartnomada belgilangan miqdordagi to'lovni to'lagandan so'ng ekspertiza obyektini baholashga kirishadi.

Ekspert tashkiloti ekspertiza obyektini baholash uchun ushbu Nizomga 5- ilovada keltirilgan tarkibda ekspert guruhini shakllantiradi.

Ekspert guruhi ekspertiza obyektining haqiqiy holati va unga qo'yiladigan sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligini baholaydi, ekspertiza obyektiga taalluqli hujjatlar to'liqligi va ishonchliligini aniqlaydi.



Ekspertizani o'tkazishda nomuvofiqliklar va kamchiliklar aniqlangan hollarda, ekspert tashkiloti bir kun muddatda sanoat xavfsizligi ekspertizasini o'tkazishda aniqlangan nomuvofiqliklar hamda kamchiliklar to'g'risida ushbu Nizomga 6-ilovaga muvofiq shaklda protokolni rasmiylashtiradi.

Protokolda ko'rsatilgan nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'tkazilgan tadbirlar buyurtmachi tomonidan ushbu Nizomga 7-ilovaga muvofiq shaklda rasmiylashtiriladi va tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga ekspert tashkilotiga yuboriladi.

Ekspert tashkiloti buyurtmachi tomonidan nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bartaraf etish borasida o'tkazilgan tadbirlar, keltirilgan asoslar va xavfsiz foydalanish bo'yicha ko'rilgan choralarni tahlil qiladi. Zarur bo'lganda joyiga chiqib, ekspertiza obyektini qayta baholanishi, tegishli tekshiruvlar va texnik diagnostika o'tkazilishi mumkin.

Salbiy ekspertiza xulosasi quyidagi hollarda bir ish kuni davomida rasmiylashtiriladi:

-nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan o'tkazilgan tadbirlarning natijalarini tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga kelishilgan muddatlarda taqdim etilmasa;

-buyurtmachi tomonidan nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bartaraf etish tadbirlari yetarlicha o'tkazilmaganda;

-buyurtmachi taqdim etgan hujjatlarda buzib ko'rsatilgan yoki yolg'on ma'lumotlar borligi aniqlansa;

-o'tkazilgan tekshirish va texnik diagnostika asoslangan salbiy natijalari olinganda;

-ekspertiza obyektini sanoat xavfsizligi talablariga mos kelmasa.

Salbiy ekspertiza xulosasi rasmiylashtirilgan hollarda buyurtmachi salbiy ekspertiza xulosasini rasmiylashtirishga asos bo'lgan nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bartaraf etib, ekspertizani o'tkazish uchun takroran ariza berishi mumkin.

Takroriy ekspertiza ushbu Nizomga ko'rsatilgan tartibda o'tkaziladi.

Ekspertiza natijalari ijobiy bo'lganda bir ish kuni davomida ijobiy ekspertiza xulosasi rasmiylashtiriladi.

Ekspertiza xulosalari ushbu Nizomga 8-ilovada belgilangan muddatlarda beriladi.

Ekspertiza xulosasi quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

-kirish qismi;

-asosiy qism;

-natijalar.

Ekspertiza xulosasi kirish qismida ekspertiza maqsadlari, ekspertizani o'tkazish asoslari (ekspertizani o'tkazish shartnomasi), ekspert tashkiloti to'g'risida ma'lumotlar, ekspertizani o'tkazgan ekspertlar va mutaxassislar haqida ma'lumotlar, buyurtmachi haqida ma'lumotlar, qo'llaniladigan qisqartmalar ko'rsatiladi.

Ekspertiza xulosasi asosiy qismida ekspertiza xulosasi ta'siri joriy qilinadigan ekspertiza obyektlari ro'yxati, ekspertizani o'tkazish jarayonida ko'rib chiqilgan hujjatlar haqida ma'lumotlar, ekspertiza obyekti to'g'risida ma'lumotlar, o'tkazilgan ekspertiza natijalari, sanoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar keltiriladi.

Ekspertiza xulosasi natijalari ekspertiza obyekti sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi haqidagi xulosalarni o'z ichiga oladi.

Texnik qurilmalar, binolar va inshootlar ekspertiza xulosasida qo'shimcha ravishda:

-o'tkazilgan tekshirish va texnik diagnostika asoslanadi;

-ekspertiza obyekti texnik holatini baholash va prognoz qilish bo'yicha qoldiq resursni (xizmat muddati) aniqlashni o'z ichiga olgan hisob-kitob va tahlil qilish jarayonlari amalga oshiriladi;

-tekshirish va texnik diagnostikani amalga oshirgan tashkiloti haqida ma'lumotlar;

-ekspertiza obyektidan keyinchalik foydalanish bo'yicha belgilangan muddat va shartlar ko'rsatiladi.

Ekspertiza xulosasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

-sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazishda aniqlangan nomuvofiqliklar va kamchiliklar protokoli;

-protokolda qayd etilgan nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bartaraf etishga doir o'tkazilgan tadbirlar haqida ma'lumotlar;

-o'tkazilgan tekshiruvlar va texnik diagnostika natijalari;

-ekspertizani o'tkazishda foydalanilgan qonun hujjatlari va normativ texnik hujjatlar ro'yxati;

- identifikatsiya varag'i;

-xavfli ishlab chiqarish obyektlarning ushbu Nizomga 9-ilovaga muvofiq sxema bo'yicha umumlashtirilgan varag'i.

Ekspertiza xulosasi asl nusxasi va taqdim etilgan hujjatlar buyurtmachiga ekspertizani o'tkazish uchun shartnoma shartlari haqiqatdan bajarilganda beriladi.

Ekspertiza xulosasi nusxasi uch ish kuni davomida ekspert tashkiloti tomonidan vakolatli organga belgilangan tartibda yuboriladi.

Buyurtmachi-yuridik shaxs qayta o'zgartirilganda, uning nomi yoki yuridik manzili o'zgarganda buyurtmachi ekspertiza xulosasini avval rasmiylashtirgan ekspert tashkilotiga ushbu Nizomga 3-tlovada keltirilgan shakldagi buyurtmanomani shu Nizomga 4-ilovaning 6-bandida qayd etilgan hujjatlarni ilova qilgan holda qayta ro'yxatdan o'tgandan so'ng yetti ish kuni davomida taqdim etishi shart.

Ekspertiza xulosasi sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazgan ekspert tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha qayta rasmiylashtiriladi.

Ekspertiza xulosasi dublikatini berganlik uchun bazaviy hisoblash miqdori 10 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lov undiriladi.

Ekspertiza xulosasini avval rasmiylashtirgan ekspert tashkiloti ekspertiza xulosasi dublikatini buyurtmachi ekspertiza xulosasini berganlik uchun shartnomada belgilangan miqdordan kam bo'lmagan summani oldindan to'lagan kundan boshlab uch ish kunidan oshmaydigan muddatda rasmiylashtirishi shart.

### **3. Ekspertiza tizimi qatnashchilari**

Quyidagilar ekspertiza tizimi qatnashchilari hisoblanadi:

-muvofiq lashtiruvchi-maslahat organi — O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining «Sanoat xavfsizligi» DUK;

-O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan tashkil etiladigan metodik kengash;

-O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan tashkil etiladigan normativ hujjatlar bilan ta'minlash komissiyasi;

-akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlari;

-sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspertlar;

-xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar.

### **4. Ekspertiza tizimining asosiy vazifalari**

Quyidagilar ekspertiza tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

xavfli ishlab chiqarish obyektini ekspertiza qilinishi uchun mustaqil, xolisona va betaraf huquqiy muhit yaratish;

-respublika xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat avariylari ehtimolini prognozlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

-xavfli ishlab chiqarish obyektlarida barqaror faoliyat ko'rsatishini oshirish;

-ekspert tashkilotlari, ekspertlar, shu jumladan sanoat xavfsizligi ekspertizasi natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish va hisobga olish;

xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilotlar respublikadagi mavjud akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlari to'g'risida xabardorligini kengaytirish;

sanoat xavfsizligi ekspertizasi sohasidagi xalqaro hamkorlik.

Quyidagilar sanoat xavfsizligi sohasida maxsus vakolatli davlat organining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

- sanoat xavfsizligi talablarini belgilash;
  - ekspertiza tizimi qatnashchilari faoliyatini tartibga soladigan tashkiliy-metodik hujjatlarni ma'qullash;
  - sanoat xavfsizligi sohasida ekspertiza tizimi va akkreditatsiya yagona qoidalari va tartib-qoidalarini belgilash va tasdiqlash, ularga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;
  - sanoat xavfsizligi ekspertizasi va akkreditatsiya sohasida mamlakatimiz hamda xorij organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;
  - sanoat xavfsizligi sohasida ekspertlarni akkreditatsiya qilish, tekshirish va ekspertiza kengashini normativ hujjatlar bilan ta'minlash komissiyalari tarkiblarini tasdiqlash;
  - sanoat xavfsizligi sohasida ekspertiza tizimini takomillashtirish dasturlari loyihalarini ishlab chiqish;
  - sanoat xavfsizligi sohasida ekspertlarni attestatsiyadan o'tkazish va ular faoliyatini nazorat qilish;
  - xavfli ishlab chiqarish obyektlari davlat reyestrini yuritish;
  - sanoat xavfsizligi sohasida ekspertlarni, ekspertiza xulosalari va xavfsizlik deklaratsiyalarini hisobga olish;
  - ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ularni nazorat yo'sinida tekshirish uchun haq to'lash tartibini belgilash;
  - sanoat xavfsizligi sohasida ekspertiza o'tkazish va akkreditatsiya qoidalari buzilgan taqdirda sanoat xavfsizligi sohasida ekspertning guvohnomasi amal qilishini va ekspertiza xulosasini bekor qilish yoki to'xtatib qo'yish;
  - sanoat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
  - sanoat xavfsizligi sohasida ekspertlarni maxsus tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazishning umumiy qoidalarini belgilash;
  - ekspertiza va attestatsiya qoidalariga rioya qilish masalalari bo'yicha huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlik qilish.
- Quyidagilar muvofiqlashtiruvchi- maslahat organlari asosiy funksiyalari hisoblanadi:
- ekspertiza tizimi barcha qatnashchilarin faoliyatini muvofiqlashtirish;
  - ekspertiza tizimida va akkreditatsiyada amal qiladigan normativ hujjatlarni rasmiylashtirish va nashr etishni tashkil etish;
  - akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlarining hisobga olish ma'lumotlari e'lon qilinishini tashkil etish;
  - ekspert tashkilotlari faoliyati, ekspertiza tizimining normativ-metodik bazasi holati to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;

-ekspertiza tizimi qatnashchilari va a'zolarini sanoat xavfsizligi sohasidagi axborot bilan ta'minlashda ko'maklashish;

-sanoat xavfsizligi sohasida qoidalar, tartiblar va akkreditatsiya mezonlari bo'yicha manfaatdor tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslarga maslahatlar berish;

-sanoat xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organiga ekspertiza tizimi qoidalari va nizomlarini takomillashtirishga doir takliflar kiritish;

-zamonaviy xalqaro talablarga javob beradigan ekspertiza tizimini tashkil etishga doir tashkiliy ishlarni amalga oshirish.

Quyidagilar metodik kengashning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

-sanoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha normativ-texnik, tashkiliy-metodik va boshqa hujjatlarni qayta ko'rib chiqishga doir takliflar kiritish;

-sanoat xavfsizligi ekspertizasi sohasida ishlarni tashkil etish va amalga oshirish masalalari bo'yicha sanoat xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organiga takliflar kiritish va ularni muhokama qilish;

-xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilotlar xodimlarini, shuningdek sanoat xavfsizligi sohasida ekspertlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish.

Quyidagilar normativ hujjatlar bilan ta'minlash komissiyasi asosiy funksiyalari hisoblanadi:

-ekspertiza kengashi qatnashchilari faoliyatining tartibga soluvchi hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

sanoat xavfsizligi, shu jumladan ekspertiza tizimi sohasida yagona, tashkiliy va tarmoq qoidalari ishlab chiqilishi va qayta ko'rib chiqilishini tashkil etish.

Quyidagilar akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlari asosiy funksiyalari hisoblanadi:

-ular asosida ekspertiza o'tkaziladigan normativ texnik hujjatla, normativ-huquqiy hujjatlarni tanlash va fondini yuritish;

-xavfli ishlab chiqarish obyektini identifikatsiya qilinishi, ekspertiza qilinishi va deklaratsiyalanishini tashkil etish va amalga oshirish;

-ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish va berish;

-berilgan ekspert xulosalari reyestrlarini yuritish;

-ekspertiza bo'yicha mehnat sarfi hisoblangan normativlari va ishlar qiymatini belgilash.

Quyidagilar sanoat xavfsizligi sohasida attestatsiyadan o'tkazilgan ekspertlarning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

-xavfli ishlab chiqarish obyektini identifikatsiyalash va deklaratsiyalash ishlarini bajarish;

-ekspertiza bo'yicha ishlarni bajarish;

-ekspertiza o'tkazishda sinovlarda qatnashish;

-akkreditatsiya bo'yicha vakolatli organ —ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish, ular faoliyati ustidan tekshirish bo'yicha komissiyalarda qatnashish.

### 5.Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilotlarning asosiy funksiyalari

Quyidagilar xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilotlarning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

-sanoat xavfsizligi sohasida qonunchilikka, shuningdek normativ texnik hujjatlardagi talablarga rioya qilish;

-xavfli ishlab chiqarish obyektlari xodimlarini tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazishni ta'minlash;

-sanoat xavfsizligi ekspertizasi o'tkazilishini, belgilangan xavfli ishlab chiqarish obyektida qo'llaniladigan inshootlar va texnika qurilmalari diagnostikasi, sinovi, tekshirilishini ta'minlash;

-xavfli ishlab chiqarish obyektlari identifikatsiyalanishini ta'minlash;

-belgilangan tartibda sanoat xavfsizligi deklaratsiyalarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

-xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya va noxush hodisalar hisobini yuritish.

-ekspertiza tizimi qatnashchilarining faoliyati ular to'g'risidagi tegishli nizomlar bilan tartibga solinadi.

1-ilova

#### Sanoat xavfsizligi ekspertizasi tizimi tuzilmasi



#### Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. Qanday xavfli ishlab chiqarish obyektlari ekspertizadan o'tkaziladi?
2. Ekspertizani o'tkazish tartibi nimalardan iborat?

- 3- Ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish talablari nimalardan iborat?
4. Ekspertiza xulosasini berish tartibi nimalardan iborat?
5. Ekspertiza xulosasini qayta rasmiylashtirish tartibi nimalardan iborat?
6. Ekspertiza xulosasining dublikatini berish, uning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish, ekspertiza xulosasini bekor qilish tartibi nimalardan iborat?
7. Kimlar ekspertiza tizimi qatnashchilari hisoblanadi?
8. Ekspertiza tizimining asosiy vazifalari nimalar hisoblanadi?:
9. Muvofiqlashtiruvchi-maslahat organlari asosiy funksiyalari nimalar hisoblanadi?
10. Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilotlarning asosiy funksiyalari nimalar hisoblanadi

## **7-MA'RUZA. PORTLOVCHI VA ZAHARLI MODDALARNI YARATISH, ISHLAB CHIQRISH, TASHISH, SAQLASH VA REALIZATSIYA QILISH FAOLIYATINI LITSENZIYALASH TARTIBI**

### **O'quv rejasi:**

1. Portlovchi va zaharli moddalarni yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida Nizomning umumiy qoidalar
2. Litsenziya talablari va shartlari
3. Litsenziya olish uchun zarur hujjatlar
4. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish

***Tayanch so'z va iboralar:** portlovchi, zaharli moddalar, mahsulotlar,, materiallar, litsenziyalash, Nizom, realizatsiya, yaratish, ishlab chiqarish, tashish, qurol-yarog'lar, o'q-dorilar, tibbiyot, ekspert guruhi, rekvizitlari*

### **1. Portlovchi va zaharli moddalarni yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida Nizomning umumiy qoidalar**

Portlovchi va zaharli moddalarni, ularni qo'llagan holda materiallar va mahsulotlarni, shuningdek, portlatish vositalarini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida Nizom, (bundan keyin portlovchi va zaharli moddalarni, realizatsiya qilish faoliyati deb aytiladi) portlovchi va zaharli moddalarni, ularni qo'llagan holda materiallar va mahsulotlarni, shuningdek, portlatish vositalarini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom amal qilishi qurol-yarog'lar va o'q-dorilarni yaratish, ishlab chiqarish, shuningdek, zaharli moddalardan tibbiyot maqsadlarida foydalanish faoliyatiga tatbiq etilmaydi.

Portlovchi va zaharli moddalarni, realizatsiya qilish faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun litsenziyalar berish, litsenziyani amal qilishini to'xtatib turish yoki to'xtatish, shuningdek, uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda

ishlar bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (“Sonoatkontexnazorat” inspeksiyasi) (keyingi o‘rinlarda litsenziyalovchi organ deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Litsenziyalovchi organ litsenziya berish yoki berishni rad etish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatish yoxud uni bekor qilish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi mutaxassislaridan iborat idoralararo ekspert guruhi tashkil etiladi. Idoralararo ekspert guruhi shaxsiy tarkibi litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlanadi.

Litsenziyalovchi organ tegishli xulosalar tayyorlash maqsadida litsenziya berish yoki berishni rad etish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatish yoxud uni bekor qilish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqish uchun boshqa ekspertlarni ham jalb etishga haqli.

Portlovchi va zaharli moddalarni realizatsiya qilish faoliyati Nizomning 1-ilovaga muvofiq ro‘yxat bo‘yicha litsenziyalanadi.

Litsenziya faqat yuridik shaxslarga uning amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi.

## **2. Litsenziya talablari va shartlari**

Quyidagilar portlovchi va zaharli moddalarni, realizatsiya qilish faoliyati amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

litsenziyaning portlovchi va zaharli moddalarni, realizatsiya qilish faoliyati qonun hujjatlariga, davlat standartlariga, texnika xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish qoidalariga, tabiatni muhofaza qilish hamda sanitariya norma va talablariga albatta rioya etish;

portlovchi va zaharli moddalar, ularni qo‘llagan holda materiallar va mahsulotlar, shuningdek, portlatish vositalari yaratiladigan, ishlab chiqariladigan obyektlarning ishonchli qo‘riqlanishini, ularni tashish kuzatib borilishini ta‘minlash hamda portlovchi va zaharli moddalardan ruxsatsiz foydalanishga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan rejimni belgilash va boshqa choralar ko‘rish;

faoliyatig litsenziyalanayotgan turiga tegishli qismi bo‘yicha portlovchi va zaharli moddalar, ularni qo‘llagan holda materiallar va mahsulotlar, shuningdek, portlatish vositalari mavjudligini va sarflanishini hisobga olib borish;

litsenziya talabgori tomonidan portlovchi va zaharli moddalarni, ularni qo‘llagan holda materiallar va mahsulotlarni, shuningdek, portlatish vositalarini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilishning amalga oshirilishini tartibga soluvchi zarur normativ-texnik hujjatlarning mavjudligi;



litsenziya talabgorida faoliyati litsenziyalanayotgan turini amaldagi norma va qoidalar talablariga muvofiq to'liq hajmda bajarish uchun unga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan zarur moddiy-texnika bazasining (binolar, xonalar, hududlar, apparatlar, asbob-uskunalar, transport, nazorat, o'lchash, hisoblash va tashkiliy texnika vositalarining) mavjudligi;

shtatda tegishli malakaga ega bo'lgan, norma va qoidalar talablariga muvofiq portlovchi va zaharli moddalar bilan ishlashga ruxsat etilgan texnik xodimning, shu jumladan litsenziyada ko'rsatilgan faoliyat turi bo'yicha tegishli ma'lumotga va kamida bir yil ish stajiga ega bo'lgan rahbarlar hamda muhandis-texnik xodimlarning mavjudligi;

surunkali ruhiy kasalliklar, giyohvandlik, toksikomaniya, alkogolizm bo'yicha hisobda turuvchi, shuningdek, portlovchi va zaharli moddalarni qo'llanish bilan bog'liq qasddan jinoyat sodir etganligi uchun muddati o'talmagan yoki olib tashlanmagan sudlanganligi bo'lgan xodimlarning yo'qligi;

faoliyatning litsenziyalanayotgan turi bilan bog'liq ishlarni bevosita bajaruvchi xodimlarning muntazam ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi;

zaharli moddalarning yonishini va sirqib chiqib ketishini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vositalarning mavjudligi va ishga tayyor holatda saqlanishi.

Litsenziya bitimida Nizomda qayd etilgan aniq litsenziya talablari va shartlari nazarda tutilishi mumkin.

### **3. Litsenziya olish uchun zarur hujjatlar**

Litsenziya talabgori litsenziya olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

litsenziya berish to'g'risida yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisobraqami, yuridik shaxs amalga oshirishni mo'ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi (uning bir qismi) ko'rsatilgan ariza;

faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirishga ruxsat etilgan tegishli malakali texnik xodimlarning ichki ishlar hududiy organlari bilan belgilangan tartibda kelishilgan ro'yxati;

litsenziya talabgorida portlovchi va zaharli moddalarni amaldagi norma va qoidalar talablariga muvofiq saqlash joylarining (portlovchi materiallar omborining tayyorligi to'g'risidagi dalolatnoma, ombor ijaraga olinganligi haqida shartnoma va boshqalar), ularni tashish uchun texnik vositalar, portlovchi moddalarni tayyorlash uchun asbob-uskunalarining mavjudligini tasdiqlovchi texnik hujjatlar;

xodimning litsenziyalanadigan faoliyat bilan bog'liq halokatli vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha harakatlar rejasi.

Hujjatlar litsenziyalovchi organi mas'ul shaxsi tomonidan ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, ro'yxat nusxasi hujjatlar qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan holda ariza beruvchiga yuboriladi (topshiriladi).

Litsenziya talabgori ishonchli bo'lmagan yoki buzilgan ma'lumotlar taqdim etgani uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Talabgori litsenziya berish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish uchun qonun hujjatlarida belgilangan va ariza taqdim etilgan kunda amalda bo'lgan eng kam oylik ish haqining to'rt baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Litsenziatning litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilgani uchun yig'im summasi litsenziyalovchi organning g'aznachilik hisob raqamiga o'tkaziladi. Litsenziya talabgori berilgan arizadan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im qaytarilmaydi.

Portlovchi va zaharli moddalarni, ularni qo'llagan holda materiallar va mahsulotlarni, shuningdek, portlatish vositalarini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyati Nizomning 2-ilovaga muvofiq sxema bo'yicha litsenziyalanadi.

Litsenziya berish yoki berishni rad etish to'g'risidagi qaror litsenziyalovchi organ litsenziya talabgori arizasini olgan kundan boshlab, yigirma kundan ortiq bo'lmagan muddatda qabul qilinadi.

Litsenziyalovchi organ litsenziya talabgori hujjatlarini ular qabul qilingan kunda ko'rib chiqish uchun idoralararo ekspert guruhiga yuboradi.

Idoralararo ekspert guruhi litsenziya talabgori hujjatlarni o'n kundan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqadi va litsenziyalovchi organga ekspert xulosasini taqdim etadi.

Litsenziyalovchi organ va idoralararo ekspert guruhi litsenziya talabgori litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligini aniqlash uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan muddat doirasida:

litsenziya talabgorida litsenziyalanadigan faoliyat turini amalga oshirish uchun mavjud shart-sharoitlarni joyiga borib o'rganish;

tegishli xulosalar tayyorlash uchun ekspertlarni shartnoma asosida jalb etish huquqiga ega.

Litsenziyalovchi organ ekspert xulosasi olingandan keyin besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda uni ko'rib chiqadi va qabul qilingan qaror protokolini tasdiqlaydi. Litsenziya berishga qaror qilinganligi to'g'risidagi bildirishnoma litsenziya talabgoriga bank hisob raqami rekvizitlari, davlat bojini to'lash muddati ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi.

Litsenziya bitimi litsenziyalovchi organ va litsenziat o'rtasida tuziladi hamda quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

bitimni imzolagan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi;

tomonlarning rekvizitlari;

amalga oshirilishiga litsenziya beriladigan faoliyat turining nomi;

litsenziatga qo'yiladigan litsenziya talablari va shartlari;  
tomonlarning litsenziya bitimi talablari va shartlari buzilganligi uchun javobgarligi;  
litsenziat tomonidan litsenziya bitimining talablari va shartlari bajarilishini litsenziyalovchi organ tomonidan nazorat qilish tartibi.

Litsenziya bitimi ikki nusxada — litsenziat va litsenziyalovchi organ uchun bir nusxadan tuziladi.

Litsenziya blankalari qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi. Litsenziya blankalari namunalari litsenziyalovchi organ tomonidan ishlab chiqiladi, litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlanadi va litsenziyalovchi organ buyurtmasi bo'yicha «Davlat belgisi» davlat-ishlab chiqarish birlashmasida bosmaxona usulida tayyorlanadi. Litsenziyalovchi organ rahbari litsenziyalar blankalarig hisobga olinishi, saqlanishi va ulardan maqsadli foydalanilishi uchun shaxsan javob beradi.

Litsenziyalar mas'ul shaxs tomonidan rasmiylashtiriladi va litsenziyalovchi organ rahbari (uning o'rinbosari) tomonidan imzolanadi.

Litsenziya talabgori tomonidan davlat boji to'langanini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilib, litsenziya bitimini imzolagandan keyin uch kun muddatda beriladi.

Litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, rad etish to'g'risidagi bildirishnoma litsenziya talabgoriga rad etishning aniq sabablari va litsenziya talabgori ko'rsatib o'tilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqishga taqdim etishi uchun yetarli bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi (topshiriladi). Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi kerak.

Litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar litsenziya talabgori tomonidan bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlarni litsenziya talabgorining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda olingan kundan boshlab o'n kundan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqiladi.

Bunda litsenziyalovchi organ hujjatlar qayta taqdim etilgandan keyin besh kun mobaynida idoralararo ekspert guruhi bilan birgalikda ular yuzasidan ekspert xulosasini tayyorlaydi va litsenziya talabgoriga litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi hamda tegishli qaror protokoli loyihisini tasdiqlaydi.

Litsenziat qayta tashkil etilib, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bir oy muddatda litsenziyalovchi organga ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar ilova qilingan litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Litsenziyalovchi organ litsenziyani qayta rasmiylashtirishda litsenziyalar reyestriga tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Litsenziyalovchi organ tegishli hujjatlar ilova qilingan litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza olingan kundan boshlab besh kun mobaynida litsenziyani qayta rasmiylashtiradi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirishda litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi litsenziyalovchi organning g'aznachilik hisobraqamiga o'tkaziladi.

Yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan litsenziya o'rniga litsenziatning arizasiga ko'ra dublikat berilishi mumkin.

Litsenziya dublikatini berishda litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi.

#### **4. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish**

Litsenziyalovchi organ litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilishda o'z vakolatlari doirasida:

litsenziatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashmasdan, uning litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirish;

litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirish chog'ida paydo bo'ladigan masalalar yuzasidan litsenziatdan zarur axborotni so'rash va olish;

tekshirishlar natijalari asosida litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlarining aniq buzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;

litsenziat zimmasiga aniqlangan buzilishlarni bartaraf etishni yuklaydigan qaror chiqarish, bunday buzilishlarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;

litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish yoki uni bekor qilish to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaror qabul qilish va sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirish chog'ida litsenziyalovchi organ tekshiruvchi xodimlari tomonidan ikki nusxada dalolatnoma tuziladi va uning bir nusxasi litsenziatga beriladi, ikkinchi nusxasi litsenziyalovchi organda qoladi.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish, uni bekor qilish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi amal Qonunining 22, 23 va 24-moddalarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

Litsenziyaning qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va uni bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, litsenziyalovchi organning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

## A. Portlovchi moddalar va portlatish vositalari RO‘YXATI

### Portlovchi moddalar:

ammiakli selitralar asosida (ammonitlar, ammonallar, akvatollar, grammonitlar, granulitlar, detonitlar, dinamonlar, karbatollar, poremitlar va boshqalar);

nitrobirikmalar va ularning aralashmalari (trotil, dinitronaftalin, nitroglitserin, nitroglekol, TEN — pentaeritittetra- nitrat, geksogen, oktogen, tetril va boshqalar);

tutunli va tutunsiz poroxlar, zaryadlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar;

issiqqa chidamli portlovchi moddalar, zaryadlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar.

### Portlatish vositalari:

o‘t o‘tkazuvchi pilta, poroxlarni yoqishning maxsus vositalari;

piston — portlatgichlar, pistonsiz portlatishda tezlantiradigan vositalar, elektrportlatgichlar, shuningdek, elektr alangalatuvchilar va quduqlarda o‘q otib portlatish ishlari uchun issiqqa chidamli portlovchi patronlar;

tez portlovchi piltalar, tez portlovchi tasmalar, pirotexnik rele;

oraliq portlatgichlar va shashka-portlatgichlar.

### B. Zaharli moddalar:

akrilonitril (ventoks);

metil spirti;

mishyakli anhidrid;

mishyaksimon anhidrid;

dixlorid simoblar (sulema) va boshqa simob tuzlari;

nikel tetrakarbonili;

sariq fosfor;

sianidli vodorod va uning tuzlari (natriy sianid, kaliy sianid, kadmiy sianid, kumush sianid, simob sianid va oksitsianid, qo‘rg‘oshin sianid, mis sianid, rux sianid, kalsiy sianid);

sian qotishma;

«siklon»;

etilmerkuxlorid.

## Portlovchi va zaharli moddalarni, ularni qo‘llagan holda materiallar va mahsulotlarni, shuningdek portlatish vositalarini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash varag‘i

### Mavzuni uzlashtirish uchun savollar:

1. Portlatish vositalarini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida Nizomining mazmun va mohiyati nimalardan iborat?
2. Litsenziya talablari va shartlari nimalardan iborat?
3. Litsenziya olish qanday hujjatlar taqdim etiladi?

4. Litsenziya berish yoki berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish shartlari nimalardan iborat?
5. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish, dublikat berish qanday amaga oshiriladi?
6. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish qanday amaga oshiriladi?
7. Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, to‘xtatish va litsenziyani bekor qilish qanday amaga oshiriladi?
8. Litsenziyalar reyestri qanday tartibda yuritiladi?
9. Litsenziya olish uchun Davlat bojini to‘lash tartibi va miqdori qancha bo‘ladi?
10. Portlovchi moddalar va portlatish vositalari nimalar kiradi?

## **8-MA’RUZA. IONLASHTIRUVCHI NURLANISH MANBALARI MUOMALADA BO‘LADIGAN SOHALARDAGI FAOLIYATNI LITSENZIYALASH TARTIBI**

### **O‘quv rejasi:**

1. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo‘ladigan sohalardagi faoliyatni litsenziyalash tartibi to‘g‘risida Nizomning umumiy qoidalar
2. Litsenziya talablari va shartlari
3. Litsenziya olish uchun zarur hujjatlar
4. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish
5. Litsenziya amal qilishini to‘xtatib turish, to‘xtatish, litsenziyani bekor qilish

*Tayanch so‘z va iboralar:* ionlashtiruvchi nurlanish, litsenziya, sanoat, to‘xtatish, loyihalashtirish, texnologik asbob-uskunalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish

### **1. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo‘ladigan sohalardagi faoliyatni litsenziyalash tartibi to‘g‘risida Nizomning umumiy qoidalar**

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo‘ladigan sohalardagi faoliyatni litsenziyalash tartibi to‘g‘risida Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktabrdagi “Sanoat va radiatsiya xavfsizligi sohasidagi ayrim faoliyat turlarini litsenziyalashni va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 782-son qarori bilan tasdiqlangan

Ushbu Nizom ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo‘ladigan sohalardagi faoliyatni litsenziyalash tartibini belgilaydi.

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo‘ladigan sohalardagi faoliyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan muomalada bo‘lish, ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini loyihalashtirish, barpo etish va ularga xizmat ko‘rsatish, ular uchun texnologik asbob-uskunalarini, radiatsiyadan muhofazalanish vositalarini yaratish va tayyorlash sohasidagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari;

-ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini qazib olish, ishlab chiqarish, hosil qilish, qayta ishlash, ulardan foydalanish, ularni saqlash, ularga xizmat ko'rsatish, ularni tashish, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va ko'mish.

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo'ladigan sohalardagi faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun litsenziyalarni berish, litsenziya amal qilishini to'xtatib turish yoki to'xtatish, shuningdek, uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Sanoatkontexnazorat" davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo'ladigan sohalardagi faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun namunaviy litsenziyalar beriladi.

Litsenziya faqat yuridik shaxslarga amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi.

## **2. Litsenziya talablari va shartlari**

Quyidagilar ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo'ladigan sohalardagi faoliyatni amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

-litsenziatlar tomonidan radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi normativ -huquqiy hujjatlariga, qoidalari va davlat standartlariga majburiy rioya qilinishi;

-litsenziya talabgorida mulk huquqi va tegishli belgilangan talablarga javob beradigan binolar, zarur moddiy-texnika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalar mavjudligi;

-radiatsiyaviy xavfsizlik xizmati mavjudligi;

- ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo'ladigan ish joylarida, nazoratni amalga oshirilishi;

-qo'llanilmaydigan ionlashtiruvchi nurlanish manbalari ko'mib tashlanishini ta'minlash;

-ionlashtiruvchi nurlanish manbalari hisoblangan mahsulotlar, materiallar va moddalar, texnologik jarayonlar radiatsiyaviy xavfsizligini asoslash va baholash ishlari olib borilishi;

-radiatsiyaviy avariya yuz berganda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligi;

-litsenziyalanadigan faoliyat bo'yicha ishlarni bevosita bajaruvchi xodimlarda tegishli oliy yoki o'rta maxsus ma'lumot mavjudligi;

-surunkali ruhiy kasalliklar, giyohvandlik, toksikomaniya, alkogolizm yuzasidan hisobda turuvchi xodimlar, muddati o'talmagan yoki olib tashlanmagan sudlanganligi bo'lgan xodimlar yo'qligi;

-ishlab chiqarish rahbarlari, ishlab chiqarish nazorati xizmati xodimlari, mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni attestatsiyadan o'tkazish;

- xodimlar muntazam ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi;

xodimlar nurlanishi dozalarini nazorat qilish va hisobga olish hamda xodimlarni muntazam xabardor qilish;

-yuridik shaxs shtatida faoliyati litsenziyalanadigan turi bo'yicha kamida 3 yil ish stajiga ega bo'lgan kamida uch mutaxassis mavjudligi.

### **3. Litsenziya olish uchun zarur hujjatlar**

Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

litsenziya berish to'g'risida ariza, unda quyidagilar ko'rsatiladi: yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi, bank muassasasi nomi va bank muassasasidagi hisob raqami, litsenziyalanayotgan faoliyati yuridik shaxs tomonidan amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan turi;

-litsenziyalanadigan faoliyat ishlari bilan bevosita shug'ullanadigan xodimlar ro'yxati, unda ular ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi, egallab turgan lavozimi, litsenziyalanadigan faoliyat turi bo'yicha ish staji ko'rsatiladi;

Litsenziya talabgori arizasi ko'rib chiqilganligi uchun O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqi to'rt baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Litsenziya talabgoriga litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror litsenziya talabgorining arizasi olingan kundan boshlab o'n besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda qabul qilinadi.

Litsenziya talabgori hujjatlari qabul qilib olingan kunda ko'rib chiqish uchun idoralararo ekspert guruhiga yuboriladi.

Idoralararo ekspert guruhi ariza olingan kundan boshlab besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda litsenziya talabgori hujjatlarini ko'rib chiqadi va litsenziyalovchi organga ekspert xulosasini taqdim etadi.

Litsenziyalovchi organ ekspert xulosasi olingandan keyin besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda uni ko'rib chiqadi hamda qabul qilingan qaror to'g'risidagi protokolni tasdiqlaydi. Litsenziyalovchi organ tomonidan qabul qilingan qaror protokoli litsenziyalovchi organ rahbari tomonidan imzolanadi.

Litsenziya talabgori, litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligini aniqlash uchun litsenziyalovchi organ va idoralararo ekspert guruhi yuqorida ko'rsatilgan muddat ichida:

faoliyatni litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya talabgorida mavjud shart-sharoitlarni joyning o'ziga borib baholash;

tegishli xulosalar tayyorlash uchun ekspertlarni shartnoma asosida jalb etish huquqiga ega.

Litsenziyalovchi organ tegishli qaror qabul qilingandan keyin bir kun muddatda litsenziya talabgorini qabul qilingan qaror to'g'risida xabardor qiladi.



Litsenziya berishga qaror qilinganligi to'g'risidagi bildirishnoma litsenziya talabgoriga bank hisob raqami rekvizitlari, davlat boji to'lash muddati ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi (topshiriladi).

Litsenziya bitimi litsenziyalovchi organ va litsenziat o'rtasida tuziladi va unda quyidagilar bo'lishi kerak:

- bitimni imzolagan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi;
- tomonlarning rekvizitlari;
- amalga oshirilishiga litsenziya berilayotgan faoliyat turining nomi;
- litsenziatga qo'yiladigan litsenziya talablari va shartlari;
- litsenziya bitimi talablari va shartlari buzilganligi uchun tomonlarning javobgarligi;
- litsenziat tomonidan litsenziya bitimi talablari va shartlari bajarilishining litsenziyalovchi organ tomonidan nazorat qilinishi tartibi.

Litsenziyalar blankalari qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi. Litsenziyalar blankalari namunalari litsenziyalovchi organ tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi hamda litsenziyalovchi organ buyurtmanomasiga ko'ra «Davlat belgisi» davlat-ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan bosmaxona usulida tayyorlanadi. Litsenziyalar blankalarining hisobga olinishi, saqlanishi va maqsadli foydalanilishi uchun litsenziyalovchi organ rahbari shaxsan javob beradi.

Litsenziya litsenziya talabgori tomonidan davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan va litsenziya bitimi imzolagandan keyin uch kun muddatda beriladi.

Agar litsenziat litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqidagi bildirishnoma yuborilgan vaqtdan boshlab litsenziyalovchi organga litsenziya berilganligi uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni uch oy mobaynida taqdim etmasa yoxud litsenziya bitimini imzolamasa, litsenziyalovchi organ litsenziyani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda rad etish to'g'risidagi bildirishnoma litsenziya talabgoriga rad etishning aniq sabablari va litsenziya talabgori ko'rsatib o'tilgan sabablarni bartaraf etib hujjatlarni qayta ko'rib chiqishga taqdim etishi uchun yetarli bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi (topshiriladi). Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi kerak.

Litsenziya talabgori tomonidan litsenziya berish rad etilishiga asos bo'lgan sabablar bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlarni qayta ko'rib chiqish litsenziya talabgorining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda olingan kundan boshlab o'n kundan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Bunda litsenziyalovchi organ hujjatlar qayta taqdim etilgandan keyin besh kun mobaynida ular bo'yicha idoralararo ekspert guruhi bilan birgalikda ekspert xulosasi tayyorlaydi, litsenziya talabgoriga litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qiladi va tegishli qaror protokolini tasdiqlaydi.

Litsenziya talabgorlarining arizalari takroran ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Litsenziya talabgorining arizasini qayta ko'rib chiqishda ilgari litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya berish rad etilganligi to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin berilgan ariza yangidan berilgan ariza hisoblanadi.

Litsenziyalovchi organ litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati mobaynida litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilmagan taqdirda litsenziya talabgori ushbu muddat tugagandan keyin arizada ko'rsatilgan faoliyatni, bu haqda litsenziyalovchi organni xabardor qilgan holda amalga oshirishga haqlidir. Bunda litsenziyalovchi organ litsenziya talabgorining yozma bildirishnomasini olgandan keyin besh ish kuni mobaynida unga litsenziya berishi shart.

Litsenziat qayta tashkil etilgan, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bir oy muddatda litsenziyalovchi organga ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Litsenziat litsenziya qayta rasmiylashtirilgunga qadar unda ko'rsatilgan faoliyatni ilgari berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirishda litsenziyalovchi organ litsenziyalar reyestriga tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish litsenziyalovchi organ tomonidan tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza olingan kundan boshlab besh kun mobaynida amalga oshiriladi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirishda litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi litsenziyalovchi organ hisob raqamiga o'tkaziladi.

Yo'qolgan yoki amal qilish muddati o'tmagan yaroqsiz holga kelgan litsenziya o'rniga litsenziatning arizasiga ko'ra uning dublikati berilishi mumkin.

Litsenziyaning dublikatini berishda litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi litsenziyalovchi organ hisob raqamiga o'tkaziladi.

#### **4. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish**

Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi yuzasidan nazorat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziyalovchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirishda litsenziyalovchi organ o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini, moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashmasdan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirish;

litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirish chog'ida paydo bo'ladigan masalalar yuzasidan litsenziatdan zarur axborotni so'rash va olish;

tekshirishlar natijalari asosida litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlarining aniq buzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;

litsenziatga aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday buzilishlarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish va to'xtatish, litsenziyani bekor qilish to'g'risida qarorlar qabul qilish va sudga murojaat qilish.

Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirishda litsenziyalovchi organning tekshiruvchi xodimlari tomonidan ikki nusxada dalolatnoma tuziladi, ularning bittasi litsenziatga beriladi, ikkinchi nusxasi litsenziyalovchi organda qoladi.

#### **5. Litsenziya amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish litsenziyani bekor qilish**

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish va to'xtatish, litsenziyani bekor qilish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22, 23 va 24-moddalarida nazarda tutilgan holatlarda va tartibda amalga oshiriladi.

Litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilganligi, litsenziya bekor qilinganligi va litsenziyaning amal qilishi to'xtatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, litsenziyalovchi organning veb-saytida e'lon qilinishi kerak.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori yuzasidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilishi asossiz ekanligi sud tomonidan e'tirof etilgan taqdirda, litsenziyalovchi organ litsenziat oldida litsenziat ko'rgan zarar miqdorida javob beradi.

#### **Mavzuni uzlashtirish uchun savollar:**

1. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo'ladigan sohalardagi faoliyatni litsenziyalash Nizomining mazmun va mohiyati nimalardan iborat?

2. Litsenziya talablari va shartlari nimalardan iborat?
3. Litsenziya olish qanday hujjatlar taqdim etiladi?
4. Litsenziya berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish shartlari nimalardan iborat?
5. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish, dublikat berish qanday amaga oshiriladi?
6. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish qanday amaga oshiriladi?
7. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va litsenziyani bekor qilish qanday amaga oshiriladi?

## **9-MA'RUZA. XAVFLI SANOAT OBEKTLARINI RISK (TAVAKAL) TAXLILI**

### **O'quv rejasi:**

1. Xavf tushunchasi va sodir bo'lish sabablari va uning turlari
2. Xavflarni o'rganish tartibi
3. Xavfsizlik tushunchasi va uning turlari
4. Xavfsizlikni ta'minlashning usullari va usullari
5. Tavakal nazariyasining ahamiyati
6. Tavakkalni aniqlash usullari

***Tayanch so'z va iboralar:** tavakkal, xavf, xavfsizlik, ishlab chiqarish korxonalarini, tavakkal nazariyasi, "xavflar - sabablar - ko'ngilsiz oqibatlar", aprior, aposterior, xavflar taksinomiya, identifikatsiya, kuvantifikatsiya*

### **1. Xavf tushunchasi va sodir bo'lish sabablari va uning turlari**

Dunyo bo'yicha insonlar turli xil halokatli xavflar (tabiiy, texnogen, antropogen, ekologik va h.z.) ostida yashaydi. Bularning barchasi inson hayot faoliyatining buzilishi, bir vaqtning o'zida ko'plab insonlarning qurbon bo'lishi, iqtisodiyot va ekotizimga katta miqdorda zarar yetkazishi bilan tavsiflanadi. Bunday ko'ngilsiz oqibatlarni keltirib chiqaruvchi hodisa, jarayon, ta'sir etuvchi omillar va kuchlar xavflar deb ataladi.

*Xavf* – hayot faoliyati xavfsizligining markaziy tushunchasi bo'lib, inson sog'ligiga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazadigan ko'ngilsiz hodisalar tushuniladi.

Xavflar ta'sir etish xususiyatiga ko'ra: real va potensial (yashirin) bo'ladi.

Salbiy oqibatlari aniq bo'lgan xavflar real xavflar deyiladi. Jumladan, kimyoviy birikmalar - zaharli xavflar, radiatsiya nuri – insonning nurlanish kasalligiga olib keluvchi xavf, elektr-payvandlashda chiqadigan nur - ko'z faoliyatini izdan chiqaruvchi xavflar va boshqalar.

Potensial (yashirin) xavflar - muayyan sabablar natijasidagina yuzaga kelishi mumkin. Masalan, benzin - yonuvchanligi real xavf bo'lsa, zarb ta'sirida portlashi potensial xavf, yoki quyoshdan keladigan nurlar qizdirishi real xavf bo'lsa, inson tanasiga surunkali ta'siri natijasida organizm kasallanishiga olib kelishi - potensial xavf hisoblanadi.

Potensial (yashirin) xavflarni yuzaga keltiruvchi sharoitlar sabablar deyiladi. Sabablar identifikatsiya jarayonida aniq masalalarni yechish uchun muhim bo‘lgan xavflar nomenklaturasi va ularning paydo bo‘lish ehtimoli mavjud bo‘lgan joyini aniqlash, keltirilgan zararlar miqdori va shunga o‘xshash o‘lchamlarda aniqlanadi.

Zarar yoki kutilmagan oqibatlarining shakllari har xildir. Har xil og‘irlikdagi jarohatlar, zamonaviy usullar bilan aniqlanadigan kasalliklar, atrof muhitga keltiradigan zararlar bilan o‘lchanadi.

Uchlik - “xavflar - sabablar - ko‘ngilsiz oqibatlar” – rivojlanishning logik jarayoni bo‘lib, potensial xavf mavjud bo‘lgan zararga olib keladi. Qoida bo‘yicha bu jarayon bir - necha sabablarni o‘z ichiga oladi va ko‘p sabablidir.

Masalan, zahar - (xavf), bilmasdan zaharni ichib qo‘yishi (sabab) - zaharlanish esa (oqibat) yoki elektr toki - (xavf) simlarning qisqa tutashuvi (sabab) - tok urishi, kuyish (oqibat).

Xavflar xususiyatlarini tavsiflovchi belgilar soni turli xilda bo‘lishi mumkin. Ba’zi bir xavflarda bu ko‘rsatkichlar ko‘p sonda, ba’zi birlarida kichik sonda bo‘ladi va har qanday xavflarni standart aniq ko‘rsatkichlar bilan va ularning aniq soni bilan tavsiflab bo‘lmaydi.

Masalan, yer silkinish xavfida 9 ta tavsiflovchi belgilari mavjud: tuproq zarrachalari tebranma harakati ortishi; hayvonot dunyosi bezovtalanishi; yer ostki suvlari yerga yaqinlashishi; yer ostki suvlari tarkibida radon moddasi ortishi; yerda yoriqlar paydo bo‘lishi; buloqlar vujudga kelishi; atrof muhitga begona gazlar tarqalishi; tuproq zarrachalari deformatsiyalanishi; tuproq zarrachalarida elektr qarshiligi o‘zgarishi va shu kabilar.

Xavflar turlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Kelib chiqish tabiatiga ko‘ra: (tabiiy, texnogen, antropogen va ekologik).
2. Ta’sir xususiyatiga ko‘ra: (fizikaviy, kimyoviy, biologik, termik va psixofiziologik).
3. Paydo bo‘lish oqibatiga ko‘ra: (toliqish, kasallanish, jarohatlanish, halokat, yong‘in, nurlanish, kuyish va boshqalar).
4. Keltiruvchi zararlariga ko‘ra: (ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, siyosiy).
5. Kelib chiqish sohasiga ko‘ra: (ijtimoiy, sport, yo‘l transporti, ishlab chiqarish, urush, tabiiy ofatlarga oid xavflar).
6. Insonga ta’sir qilish darajasiga qarab: (faol (aktiv) va sust (passiv)).
7. Ta’sir doirasiga ko‘ra: (lokal, mahalliy, milliy, global).
8. Ta’sir yetish tezligiga ko‘ra: (tasodifiy, shiddatli, mo‘tadil va ravon).

Xulosa qilib aytganda, inson faoliyatining bironta turi absolyut xavfsiz amalga oshmaydi, shuning uchun har qanday xavf potensial xavfli hisoblanadi.

*Xavflar taksonomiyasi* - murakkab hodisalar, jarayonlar, tushunchalar yoki obyektlarni bir tizimga solish haqidagi fandır. Xavflar taksonomiyasi - murakkab hodisalarni, tushunchalarni, kishi faoliyatiga qaratilgan narsalarni tasniflash va tizimlash to'g'risidagi fandır.

*Xavflar nomenklaturasi* - muayyan belgi, xususiyatiga ko'ra tizimga solingan nom va so'zlar ro'yxatidir.

Masalan, tibbiyotda qo'llaniladigan dori-dorimonlar nomenklaturasi bo'yicha aniq tuzilgan. Jumladan, antibiotiklarga - tetratsiklin, ampitsilin, oksotsilin, biotsilin, trimol, sefozolin, sefamizin va boshqalar kiradi.

*Xavflar kvantifikatsiyasi* - murakkab tushuncha, (ofat, talofat, yong'in, nurlanish, shamol va shu kabilar, ularning sifatini va oqibatini aniqlashda sonli tavsiflar joriy qilinishidir. Amalda kvantifi-katsiyaning sonli, balli, darajali, tezlanishli son, soat) va boshqa usullari qo'llaniladi.

*Xavflar identifikatsiyasi* - o'rganish, isbotlash, tasdiqlash kabi ma'nolarini anglatadi. Masalan, dorishunoslikda birorta dori-darmon-larni to'liq identifikatsiya qilmasdan turib, uni kasalga tavsiya etib bo'lmaydi.

## **2. Xavflarni o'rganish tartibi**

Xavflarni o'rganish tartibi - *uch bosqichda* amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich - xavflarni oldindan tahlil etish. Bu bosqich uch qadam bilan bajariladi: 1-qadam-xavf manbalarini aniqlash; 2-qadam-xavflarni vujudga keltiradigan qismlarni aniqlash; 3-qadam-tahlilni chegaralash, ya'ni tekshirilmaydigan xavflarni chiqarib tashlash.

Ikkinchi bosqich - xavfli holatlar ketma-ketligini aniqlash, hodisa va xavflar daraxtini tuzish. Xavflar daraxti yuqoridan pastga qarab quriladi hamda sabablari hisobga olingan holda tamom bo'ladi (1-rasm).

Uchinchi bosqich - oqibatlarni tahlil qilish. Xavfsizlik tizimi - xavfsizlik murakkab masalalarini hal qilish yo'llarini tayyorlash va asoslashda foydalaniladigan metodologik choralar yig'indisidir.

Tizim deganda, birgina moddiy obyektidan tashqari aloqalar va bog'lanishlar ham tushuniladi. Har qanday sozlangan mashina texnik tizimga misol bo'lishi mumkin. Tarkibiga odam ham kiradigan element tizimi ergonomik tizim deb ataladi. Masalan, «inson-mashina», «inson-mashina-atrof muhit».

Tizimlash tamoyili hodisalarni o'zaro bog'liq ravishda bir to'plam tariqasida o'rganadi. Tizim beradigan maqsad yoki natija tizim yaratuvchi element deb aytiladi. Agar birorta elementni ulardan chiqarib tashlasak, tizim buziladi.

Har qanday sabablar natijasida vujudga kelgan xavflar zarar keltiradi. Sababsiz haqiqiy xavf ham, zarar ham yo‘q. Demak, xavfdan saqlanish uning kelib chiqish sabablarini bilishga asoslangan.

Sodir bo‘lgan xavflar bilan sabablar o‘rtasida, sabab-oqibat aloqasi bor. O‘z navbatida bir sabab, ikkinchi sababli oqibatni keltirib chiqaradi va h.z. Shunday qilib, sabablar va xavflar zanjirsimon tizimni yaratadi.

### 3. Xavfsizlik tushunchasi va uning turlari

*Xavfsizlik* - faoliyat holati bo‘lib, ma‘lum ehtimollikda xavflarni kelib chiqishini bartaraf qilishdir. Xavfsizlik - insonlar oldiga qo‘yilgan maqsaddir. Demak, himoya obyektlari bo‘yicha hozirgi kunda quyidagi xavfsizlik tizimining turlari mavjud:

- inson hayot faoliyati jarayonida umumjamoa va shaxsiy xavfsizlik tizimi;
- atrof muhit muhofazasi va davlat xavfsizlik tizimi;
- global xavfsizlik tizimi.

Birinchi o‘rinda inson xavfsizligi turadi. Ma‘lumki, xavfsizlik - hayot faoliyati xavfsizligining asosiy o‘zagini tashkil etib, inson faoliyatining holati hisoblanadi. Bu holatda insonlar ma‘lum ehtimollikda yuzaga kelayotgan xavflarni bartaraf qilishga harakat qiladi. Ammo har qanday holatlarda ham xavflarni bartaraf qilish imkoniyati bo‘lmaydi. Masalan, yong‘in xavfida - yong‘inning boshlang‘ich fazasida o‘chirish mumkin bo‘lsa, keyingi fazasida o‘chirish imkoniyatlari chegaralanib qoladi yoki biror texnologik jarayonlarda amal qilinayotgan ko‘rsatkichlar: harorat, bosim ko‘rsatkichlari birdan o‘zgarishga uchrasa, texnologik jarayonni boshqarish darajasi (xavfsizlikni ta‘minlash) cheklanishi mumkin, natijada yong‘in chiqadi, portlaydi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulot yaroqsiz holatga kelib, atrof muhitni ifloslantirishi mumkin.

*1- jadval*

#### *Xavfni bartarf etishda xavfsizlik tizimining mavjud ko‘rinishlari*

<i>T/r</i>	<i>Xavf turlari</i>	<i>Himoyalaniş obyektı</i>	<i>Xavfsizlik tizimi</i>
1.	Inson faoliyati muhitidagi Xavflar	Inson	Xavfsizlik (mehnat xavfsizligi)
2.	Faoliyat muhitidagi xavflar	Inson	Hayot faoliyati tizimi
3.	Texnosferadagi xavflar	Atrof muhit	Atrof muhit muhofazasi
4.	Biosfera va texnosferadagi favqulodda xavflar	Inson, atrof muhit, mahsulotlar resursi	Favqulodda lardan muhofaza qilish
5.	Ichki va tashqi umumdavlat xavflari	Jamoa va millat	Mamlakatning xavfsizlik tizimi

6.	Nazorat va boshqarib bo'lmaydigan insoniy faoliyatidagi xavflar	Insoniyat. Biosfera. Texnosfera	Global xavfsizlik
7.	Kosmosdagi xavflar	Insoniyat. Planeta. Yer	Kosmik xavfsizlik

Xavfsizlikni ta'minlashda texnosfera, gomosfera va noksosfera kabi tushunchalar kiritilgan.

Texnosfera - o'tmishda biosferaga taalluqli bo'lgan, keyinchalik insonlar o'zining moddiy va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini yanada yaxshilash maqsadida bevosita yoki sirdan texnik vositalar bilan ta'sir qilayotgan hududdir.

#### 4. Xavfsizlikni ta'minlash usullari va usullari

Xavfsizlikni ta'minlashning 3 ta uslubi mavjud:

1. Gomosfera bilan nokosferani bir-biridan vaqt yoki joy jihatdan uzoqlashtirish uslubi. Bu uslubda ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, jihoz, uskunalarni masofadan turib boshqarish, robotlarni qo'llash va boshqa boshqaruv tizimlari orqali amalga oshiriladi.

2. Xavfsizlik qoidarini qo'llab, xavflarni bartaraf qilish yoki texnosfera (ishlab chiqarish muhiti)ni meyorlashtirish hamda texnosfera tavsiflarini inson tavsifiga moslashtirishga asoslangan. Bunda gomosfera va noksosfera ko'rsatkichlari bir-biriga yaqinlashtiradi. Bu uslub ishlovchilarni shovqin, chang, gaz, yoritilganlik, harorat, jarohatlanish va boshqa xavfli omillardan himoya qilishga qaratilgan tadbirlar majmuasi hamda xavfsiz uskuna va jihozlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

3. Ish joylaridagi ishlovchilarni himoya vositalari yordamida himoyalashga asoslangan. Bunda texnosfera tavsiflarini o'zgartirish uchun turli xil himoya vositalari qo'llaniladi.

Iloji boricha amaldagi usullar hammasini tatbiq etish orqaligina maqsadga erishish mumkin.

Tahlil usuli - xavfsizlikni ko'ngilsiz voqea ro'y berishdan oldin (aprior) yoki keyin (aposterior) tahlil etish mumkin. Har ikki holatda qo'llaniladigan usul bevosita yoki aksincha bo'ladi.

Aprior tahlilda ushbu tizimga xos bo'lishi mumkin bo'lgan (yashirin) ko'ngilsiz voqealar tanlab olinadi va ularni yaratuvchi bir qancha holatlar to'plami tuziladi. Aposterior tahlil esa ko'ngilsiz voqea yuz bergandan so'ng, kelajakda tadbirlar ishlab chiqishdir. Bu ikki usul bir-birini to'ldiradi.

Xavfsizlik tahlil qilinganda tizimning parametrlarini yoki chegarasini aniqlash asosiy masala hisoblanadi. Agar tizim juda chegaralangan bo'lsa, biror xavfli hollar yoki omillar



e'tibordan tashqarida qolishi, agar tizimga o'ta atroflicha qaralsa, tahlil natijalari noaniq bo'lishi mumkin.

## **5. Tavakkal nazariyasi va uning ahamiyati**

1990 yil sentabrda Germaniyaning Kelnsahrida faoliyat xavfsizligi bo'yicha Birinchi Butun jahon kongress «hayot xavfsizlikda» shiori ostida bo'lib o'tdi. Bu kongressda unda faoliyat xavfsizligini ta'minlashga ilmiy fan sifatida qaraldi. Bu anjumanda dunyoning turli joylaridan kelgan olim va mutaxassislar o'zlarining ma'ruza va xabarlarida doimo «tavakkal» tushunchasini qo'lladilar.

Tavakkalga V. Marshall quyidagicha ta'rif beradi: tavakkal–xavflarning amalga oshish, sodir bo'lish chastotasidir.

Umumiy qilib aytganda tavakkal–xavflarni miqdor jihatdan sonli baholashdir.

Sonli baholash esa ma'lum bir davr ichida sodir bo'lgan u yoki bu ko'ngilsiz oqibatlar sonining shu davr ichida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz oqibatlar soniga nisbatidir.

Tavakkalni aniqlash mobaynida oqibatning sinfini ko'rsatish muhimdir, ya'ni nimaning tavakkali degan savolga javob berish kerak.

Rasman tavakkal bu chastotadir, ya'ni takrorlanish sonidir. Lekin, tavakkal va chastota tushunchalarini xavfsizlik muammolariga nisbatan qo'llanilganda ular o'rtasidagi farq borligiga e'tibor berish kerak. “Ma'lum bir davr ichida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz oqibatlar soni” tushunchasini xavfsizlik muammolariga nisbatan ma'lum bir shartlar asosidagina qo'llash mumkin.

Tavakkal shaxsiy (individual) va ijtimoiy (sotsial) turlarga bo'linadi. Shaxsiy tavakkal alohida bir shaxs uchun ma'lum turdagi xavfni harakterlaydi. Ijtimoiy tavakkal–bu bir guruh odamlar uchun bo'lgan tavakkaldir. Ijtimoiy tavakkal – sodir bo'lgan hodisalar (xavflar) chastotasi bilan shuhodisalar natijasida zararlangan odamlar soni o'rtasidagi bog'lanishdir.

Tavakkal va xavflarni jamoatchilik tomonidan qabul qilish subektivdir.

Ko'p sonli bir vaqtdagi yo'qotishlarga olib keluvchi yagona voqealarni insonlar birdaniga sezadi va qabul qiladi. Shu vaqtda xususiy voqea natijasida bir yoki uncha katta bo'lmagan odamlar guruxining halok bo'lishi shov-shuvli holatlarga olib kelmaydi.

Ishlab chiqarishda bir kunda 40-50 odam o'lsa, mamlakat bo'yicha har xil xavflardan 1000 odam hayotdan ko'z yumadi. Ammo bu ma'lumotlar bitta avariya yoki janjalda 5-10 kishining o'lishiga qaraganda uncha tafsilotli ko'rinmaydi.

Bularni ma'lum bo'lgan tavakkal muammolarini o'rganganda albatta e'tiborga olish kerak.

Tavakkalni baholashda subektiv kamchilikdan xolis bo'lgan usullar va uslubiyatlarni izlash muhimdir.

Mutaxassislarning fikricha xavflarni baholashda tavakkalni qo‘llash trofitopko‘rsatgichlarni ishlatishga qaraganda ustunligini ko‘rsatadi.

## 6. Tavakkalni aniqlash usullari

Tavakkalni aniqlashda 4 xil uslubiy yondashish mavjud:

injenerlik-bu statistikaga, chastotalarni hisoblashga, xavfsizlikni ehtimollitahlil qilishga vaxavflar daraxtini qurishga asoslanadi.

modelli- bu alohida odamga, ijtimoiy va kasbiy guruhlariga zararliomillarning ta’sir kilish modelini qurishga asoslanadi.

Bu ikkita uslub (metod) hisoblarga asoslanadi, ammo hamma vaqt hamma’lumotlar yetarli bo‘lmaydi.

ekspertli usul–bunda har xil xodisalarning (xavflarning) sodir bo‘lish ehtimoli yuqori malakali mutaxassislarning (ekspertlarning) fikrini o‘rganish orqaliniqlanadi.

ijtimoiy usul–har xil hodisalarning (xavflarning) sodir bo‘lish ehtimolito‘g‘risida aholining fikrini so‘rashga asoslangan.

Yuqorida qayd qilingan uslublar tavakkalning har xil tomonlarini ochibberadi. Shuning uchun ularni kompleks holda qo‘llash zarurdir.

Favqulod davaziyatlarda (FVlarda) aholining, ishchi va xizmatchilarning ehtimoliy talofatini (n) quyidagicha aniqlash mumkin:

$$N = \frac{n}{R} \rightarrow n = R * N \text{ ,kishi,} \quad (1)$$

Bunda, R– FVdagi xavf-xatar turi bo‘yicha odamlarning ehtimoliy talofati darajasi; n - obyekt, soha, tarmoq va shu kabilarda aholi yoki ishlovchilarnin soni.

**1-misol.** Bir yilda MDX ishlab chiqarishida bo‘ladigan inson o‘lishitavakkalini aniqlang, agar har yili 14000 odam o‘lsa, o‘rtacha ishlaydiganlarning soni 138 million bo‘lsa:

$$R_{i.ch.} = \frac{1,4 \cdot 10^4}{1,38 \cdot 10^4} = 10^{-4}$$

demak ishlab chiqarishda bo‘ladigan inson o‘lish tavakkali -  $10^{-4}$  ga teng.

**2-misol.** Har yili MDX mamlakatlarida tabiiy bo‘lmagan o‘limdan ta shqarihar xil xavflar oqibatida 500 ming kishi o‘lsa, mamlakat aholisi 300 mln. bo‘lsa, mamlakatda xavflar natijasida bo‘ladigan aholi o‘lish tavakkali quyidagicha aniqlanadi:

$$R_{mam} = \frac{5 \cdot 10^5}{3 \cdot 10^3} = 1,7 \cdot 10^{-3}$$

### Mavzuni uzlashtirish uchun savollar:

1. Xavf nima va uning qanday turlari mavjud?

2. Xavflar taksonomiyasi nimani aniqlaydi?
3. Xavflar nomenklaturasi nimani aniqlaydi?
4. Xavflar kvantifikatsiyasi nimani aniqlaydi?
5. Xavflar identifikatsiyasi nimani aniqlaydi?
6. Xavflarni qanday tartibda o'rganiladi?
7. Xavfsizlik tushunchasi va uning qanday turlari mavjud?
8. Xavfsizlikni ta'minlashning uslublari va usullari nimalardan iborat?
9. Tavakal nazariyasining qanday ahamiyati bor?
10. Tavakkalning qanday turlari mavjud?
11. Tavakkal qanday aniqlanadi?

## **10-MA'RUZA. XAVFLI SANOAT OBEKTLARINI DAVLAT REYESTRIDAN O'TKAZISH TARTIBI**

### **O'quv rejasi:**

1. Reyestrda hisobga olinadigan xavfli ishlab chiqarish obyektlari
2. Reyestrda o'zgartirishlar kiritish va yoki reyestrda chiqarish tartibi
3. Reyestrda ma'lumotlarni taqdim qilish tartibi
4. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini tekshiruvdan o'tkazish va tushgan mablag'lardan foydalanish tartibi
5. Xavfli ishlab chiqarish obyektlari davlat reyestrda hisobga olish sxemasi

**Tayanch so'z va iboralar:** *Nizom, xavfli obyektlar, davlat reyestr, sanoat xavfsizligi, tahlili qilish, axborot to'plash, ishlab chiqarish, foydalanuvchi tashkilot, identifikatsiyalash, elektron shakl.*

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini hisobga olish va davlat reyestrini yuritish tartibi to'g'risida Nizomi xavfli ishlab chiqarish obyektlarini hisobga olish va davlat reyestrini yuritish tartibini belgilaydi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining davlat reyestrini yuritish xavfli ishlab chiqarish obyekti to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratish, sanoat xavfsizligi sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi talablarining ta'minlanishi monitoringini olib borish, shuningdek, ro'yxatga olingan xavfli ishlab chiqarish obyektlari va ushbu obyektlardan foydalanuvchi tashkilotlar to'g'risida tizimli axborotni to'plash, tahlil qilish va saqlash maqsadida amalga oshiriladi.

*Xavfli ishlab chiqarish obyektlari davlat reyestri* — Xavfli ishlab chiqarish obyektlari va ulardan foydalanuvchi tashkilotlar to'g'risida qog'oz va elektron shakllardagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi yagona axborot ma'lumotlar bazasi;

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari dan foydalanuvchi tashkilot — mulkchilikning tashkiliy-huquqiy shaklidan qati nazar hususiy mulk yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida unga tegishli bo'lgan Xavfli ishlab chiqarish obyektlari dan foydalanuvchi tashkilot;

Belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilingan hamda Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrda 271-son qarori bilan tasdiqlangan Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi to'g'risidagi nizomda belgilangan tartibda identifikatsiyalashdan o'tgan xavfli ishlab chiqarish obyektlari Reyestrda majburiy hisobga olinadi.

Ijaraga olingan xavfli ishlab chiqarish obyektlari ushbu obyektlardan foydalanuvchi tashkilot — ijaraga oluvchi tarkibida hisobga olinadi.

Foydalanishga qabul qilingan xavfli ishlab chiqarish obyektlari foydalanishga qabul qilingan sanadan o'ttiz kundan kechiktirmasdan identifikatsiyalanadi. Identifikatsiyalashdan o'tkazilgan xavfli ishlab chiqarish obyektlari ularni identifikatsiyalash sanasidan o'ttiz kundan kechiktirmasdan hisobga olinishi shart.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi) tomonidan ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha xavfli ishlab chiqarish obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Reyestrda kiritish orqali amalga oshiriladi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini Reyestrda hisobga olish ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilot Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini Reyestrda hisobga olish uchun Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini sanoat xavfsizligi ekspertizasidan va identifikatsiyalashdan o'tkazish natijalari to'g'risida ekspert tashkilotining xulosasi olingan sanadan o'n kundan kech bo'lmagan muddatda ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining identifikatsiya varaqasini o'z ichiga olgan sanoat xavfsizligi ekspertisasi natijalari to'g'risidagi xulosaning nusxasini ilova qilgan holda Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasiga yoki uning hududiy bo'linmalariga bevosita, pochta aloqasi orqali yoki elektron shaklda ariza taqdim etilishini ta'minlaydi.

Har bir Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini tekshiruvdan o'tkazish uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdoridagi to'lov undiriladi.

Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar tashkilot rahbarining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

U haqidagi ma'lumotlar davlat sirlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirga tegishli bo'lgan xavfli ishlab chiqarish obyektlarini Reyestrda hisobga olish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Reyestrni yuritish Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasiga yuklanadi va quyidagi tartib-taomillarni o‘z ichiga oladi:

hisobga olish raqamini berish bilan xavfli ishlab chiqarish obyektlari to‘g‘risidagi zarur axborotni ma‘lumotlar bazasiga kiritish;

ushbu Nizomga muvofiq xavfli ishlab chiqarish obyektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni davriy yangilash yoki uni Reyestrda chiqarish.

Reyestrni yuritish axborotning qog‘oz va elektron shaklda saqlanishini ta‘minlash prinsipi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi xavfli ishlab chiqarish obyektlarini Reyestrda kiritish uchun ariza kelib tushgan sanadan boshlab o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi hamda ularning to‘liqligi va haqqoniyligini tekshiradi, shuningdek, zarur hollarda joyiga chiqqan holda xavfli ishlab chiqarish obyektlarining ushbu hujjatlarga muvofiqligiga aniqlik kiritish maqsadida uni tekshiruvdan o‘tkazadi.

Taqdim etilgan hujjatlar bo‘yicha e‘tirozlar mavjud bo‘lganda, Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi ariza beruvchiga mavjud e‘tiroz va kamchiliklarni bartaraf etish zarurligi to‘g‘risida ariza qabul qilingan kundan boshlab uch kundan ortiq bo‘lmagan muddatda yozma xabarnoma yuboradi, xabarnomada ariza beruvchi e‘tiroz va kamchiliklarni bartaraf etib hujjatlarni takroran ko‘rib chiqish uchun taqdim etishga haqli bo‘lgan muddat ko‘rsatiladi, biroq ushbu muddat yozma xabarnoma olingan kundan boshlab o‘n ish kunidan kam bo‘lmasligi kerak.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini Reyestrda kiritishni rad etish uchun asos bo‘lgan e‘tiroz va kamchiliklar ariza beruvchi tomonidan bartaraf etilgan taqdirda, taqdim etilgan hujjatlar Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi tomonidan uch ish kuni davomida takroran ko‘rib chiqiladi, tegishli ma‘lumotlar Reyestrda kiritiladi hamda bir hafta muddatda ariza beruvchiga xavfli ishlab chiqarish obyektlari Reyestrda kiritilganligi to‘g‘risida xabarnoma yuboriladi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilot qayta tashkil etilganda yoki nomi o‘zgariganda, uning rahbari arizasiga asosan xavfli ishlab chiqarish obyektlari Reyestrda qayta hisobga olinadi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini qayta hisobga olish Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi tomonidan xavfli ishlab chiqarish obyektlarini Reyestrda hisobga olish uchun nazarda tutilgan tartibda to‘lov undirilmasdan amalga oshiriladi.

Reyestrda hisobga olingan xavfli ishlab chiqarish obyektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘zgariganda, xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilot o‘n ish kuni mobaynida ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha ariza berish yo‘li bilan ushbu o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasiga yoki uning hududiy bo‘linmalariga quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etadi:

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini rekonstruksiya qilish yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga loyiha hujjatlarining sanoat xavfsizligi ekspertizasi xulosasi;

identifikatsiya varaqasini o'z ichiga olgan xavfli ishlab chiqarish obyektlarini sanoat xavfsizligi ekspertizasi natijalari to'g'risidagi xulosa nusxasi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari tugatilgan yoki foydalanishdan chiqarilgan taqdirda, arizaga xavfli ishlab chiqarish obyektlarini tugatish yoki foydalanishdan chiqarishga loyiha hujjatlarining sanoat xavfsizligi ekspertizasining tegishli xulosasi ilova qilinadi.

Reyestrda o'zgartirish kiritish yoki xavfli ishlab chiqarish obyektlarini Reyestrda chiqarish Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilot tomonidan ariza taqdim etilgan sanadan boshlab o'n ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

Reyestrda hisobga olingan xavfli ishlab chiqarish obyektlari ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi tashkilot xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilot — ijaraga oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi hujjatlarni Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasiga taqdim etadi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilot tugatilgan taqdirda, tugatish komissiyasi yoki boshqa vakolatli organ xavfli ishlab chiqarish obyektlarini Reyestrda chiqarish uchun bir hafta muddatda ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shaklda arizani quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasiga taqdim etishi shart:

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini Reyestrda chiqarish uchun asos bo'luvchi hujjat nusxasi (muassisning, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining, sudning qarori, oldi-sotdi shartnomasi);

-mulkni topshirish va qabul qilish dalolatnomasining nusxasi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari Reyestrda chiqarilganda Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan ariza beruvchiga bir hafta muddatda bevosita pochta aloqasi orqali yoki elektron shaklda tegishli xabarnoma yuboriladi.

Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi murojaatlar asosida Reyestrda ko'chirmalar berish yo'li bilan davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir va axborotni himoya qilish bo'yicha talablarni hisobga olgan holda manfaatdor davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, O'zbekiston Respublikasining jismoniy va yuridik shaxslariga Reyestrda ma'lumotlarni taqdim etadi.

Reyestrda ko'chirma berish yoki uni bermaslikni asoslantirilgan holda rad etish murojaat kelib tushgan kundan boshlab o'n ish kuni davomida amalga oshiriladi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini tekshiruvdan o'tkazishdan tushgan mablag'lar Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Ushbu Nizom nazarda tutilgan hollarda o‘tkazilgan mablag‘lar qaytarilmaydi.

Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga tushgan mablag‘lar qoldig‘i moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha olib qo‘yilmaydi.

Reyestrda kiritish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarning haqqoniyligi va ularning o‘z vaqtida Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasiga taqdim etilishi uchun javobgarlik xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

Ekspert tashkilotlari Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasiga taqdim etilayotgan ma’lumotlar va xulosalarning haqqoniyligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgardirlar.

Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi unga yuklatilgan vazifa va funksiyalar doirasida xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar rahbarlarini hamda ekspert tashkilotlarini ushbu Nizom talablarini buzganligi yoki bila turib xavfli ishlab chiqarish obyektlari to‘g‘risida yolg‘on ma’lumotlarni va xulosalarni taqdim etganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish choralarini ko‘radi.

Ushbu nizom talablariga rioya etilmaganligi uchun xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilot rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

#### 1-ilova

#### Xavfli ishlab chiqarish obyektlari davlat reyestri

T/r	Sana	Hisobga olish raqami*	Yuqori turuvchi tashkilotning nomi (mavjud bo‘lsa)	Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotning nomi va pochta manzili	STIR	Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining nomi
1	2	3	4	5	6	7
Xavfli ishlab chiqarish obyektlari joylashgan joy	Xavfli ishlab chiqarish obyektlar turi	Xavfli ishlab chiqarish obyektlari sexlari, uchastkalari, maydonchalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlarining nomi	VMning 2008 yil 10 dekabrda 271-son qaroriga muvofiq xavfli moddalarning nomi va miqdori**	Reyestrda o‘zgartirish kiritish sabablari	Xavfli ishlab chiqarish obyektlari Reyestrda chiqarish sabablari	Izoh
8	9	10	11	12	13	14

\* Reyestrda hisobga qo'yilganda har bir xavfli ishlab chiqarish obyektlariga uchta belgilar guruhidan iborat, tire (defis) bilan ajratilgan XXXXX-XXXX-XX ko'rinishida hisobga olish raqami birlashtiriladi. Bu hisobga olish raqami xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotning, xavfli ishlab chiqarish obyektlarining o'zining va xavfli ishlab chiqarish obyektlari hisobga qo'yilganligining identifikatori hisoblanadi.

\*\* Xavfli moddalar miqdorining chegalangan meyorlari Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrda 271-son qarori bilan tasdiqlangan Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash tartibi to'g'risidagi nizomning 1 va 2-jadvallarida keltirilgan.

## 2-ilova

### Xavfli ishlab chiqarish obyektini xavfli ishlab chiqarish obyektlari davlat reyestrda hisobga olish sxemasi

Босқич-лар	Субъектлар	Тадбирлар	Бажариш муддатлари
1 босқич	Ариза берувчи	1. ХИЧОни Реестрда ҳисобга қўйиш учун зарур бўлган аризани ва ҳужжатларни тайёрлайди. 2. Ариза ва унга илова қилинган ҳужжатларни Саноат хавфсизлиги давлат қўмитасига тақдим этади.	ХИЧОни саноат хавфсизлиги экспертизасидан ва идентификациялашдан ўтказиш натижалари тўғрисида эксперт ташкilotининг хулосаси олинган санадан ўн кундан кеч бўлмаган муддатда.
2 босқич	Саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси	1. ХИЧОни Реестрда ҳисобга қўйиш учун тақдим этилган ариза ва ҳужжатларни қабул қилади. 2. Аризани қўриб чиқади ва тақдим этилган ҳужжатларнинг тўлиқлиги ва ҳаққонийлигини текширади, шунингдек, зарур ҳолларда жойига чиққан ҳолда ХИЧОнинг ушбу ҳужжатларга мувофиқлигига аниқлик киритиш мақсадида уни текширувдан ўтказиши.	1. Ариза берувчи тақдим этгандан кейин дарҳол. 2. Ариза олинган кундан бошлаб ўттиз кундан ортиқ бўлмаган муддатда.
3 босқич	Саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси	Тақдим этилган ҳужжатлар бўйича эътирозлар мавжуд бўлганда ариза берувчига мавжуд эътирозларни бартараф этиб, пухта ишланган ҳужжатларни тақдим этишга ҳақли бўлган муддат кўрсатилиб ёзма хабарнома тақдим этади.	Ариза қабул қилинган кундан бошлаб уч кундан ортиқ бўлмаган муддатда.
4 босқич	Ариза берувчи	1. Хабарномада кўрсатилган камчиликларни бартараф этади. 2. Саноат хавфсизлиги давлат қўмитасига пухта ишланган ҳужжатларни тақдим этади.	Хабарномада кўрсатилган муддатда.
5 босқич	Саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси	1. Қўриб чиқиш натижаси ижобий бўлганда ХИЧОни Реестрда ҳисобга қўяди. 2. Ариза берувчининг номига ХИЧО Реестрга киритилганлиги тўғрисида хабарнома юборади.	1. Уч иш куни мобайнида. 2. Бир ҳафта муддатда.

## 3-ilova

### ARIZA

Sizdan , \_\_\_\_\_

(ariza beruvchi tashkilotining to'liq nomi)

(pochta indeksi va manzili)

tomonidan foydalanilayotgan quyidagi xavfli ishlab chiqarish obyektlarini davlat reyestriga kiritishni (davlat reyestriga o'zgartirishlar kiritishni/davlat reyestriddan chiqarishni) so'rayman.

T/r	Xavfli ishlab chiqarish obyektining nomi



Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1. \_\_\_\_\_;
2. \_\_\_\_\_;
3. \_\_\_\_\_;

\_\_\_\_\_  
rahbarning lavozimi

\_\_\_\_\_  
imzo

\_\_\_\_\_  
F.I.O.

### **Mavzuni uzlatirish uchun savollar:**

1. Reyestrda hisobga olinadigan xavfli ishlab chiqarish obyektlariga qanday obyektlar kiradi?
2. Reyestrda o'zgartirishlar kiritish yoki xavfli ishlab chiqarish obyektlarini Reyestrda chiqarish tartibi nimalardan iborat?
3. Reyestrda ma'lumotlarni taqdim qilish tartibi nimalardan iborat?
4. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini tekshiruvdan o'tkazishdan tushgan mablag'lardan foydalanish tartibi nimalardan iborat?
5. Xavfli ishlab chiqarish obyektlari davlat reyestrda hisobga olish sxemasi nimalardan tashkil topgan?

## **11-MA'RUZA. TEXNOGEN XAVF YUKORI BO'LGAN ZONALAR DAVLAT KADASTRINI YURITISH TARTIBI. (TXYUZDK)**

### **O'quv rejasi:**

1. "Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomning mazmun va mohiyati
2. TXYUZDKni yuritishning asosiy prinsiplari
3. TXYUZDKni yuritish tartibi va uning tarkibiy qismlari
4. Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish Sxemasi
5. TXYUZDKning asosiy vazifalari

**Tayanch so'z va iboralar:** Davlat kadastrini, xavfli ishlab chiqarish obyektlari, Nizom, yong'in, portlash, jarohatlanish, avariya, baxtsiz xodisa, xavfli va zararli moddalar.

### **1. "Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomning mazmun va mohiyati**

Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini (TXYUZDK) "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT)ni yaratish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga hamda ushbu Nizomga muvofiq yuritiladi.

TXYUZDK DKYATning tarkibiy qismi hisoblanadi va tizimli kuzatishlar, o'lchashlar, tadqiqotlar hamda axborotlar to'plash natijalari bo'yicha tayyorlanadigan texnogen xavf yuqori

bo'lgan zonalar (TXYUZ)ning unifikatsiya qilingan qisqacha tavsiflari va tasvirlari to'plamidan iborat bo'ladi.

TXYUZDK kadastr obyektlarini hisobga olishni, ularning holatini va ro'y bergan xavfli texnogen hodisalar oqibatlarini baholash maqsadida yuritiladi.

TXYUZDKni yuritish TXYUZni xatlovdan o'tkazish, uning tavsiflari va parametrlarini baholash, kadastr axboratlarni xujjatlashtirish, hisobga olish hamda undan texnogen avariya va halokatlarni oldini olish bo'yicha profilaktika va ogohlantirish choralarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirish, ular vujudga kelgan taqdirda esa - ularni tezkorlik bilan mahalliyashtirish va bartaraf etishni ta'minlash orqali ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarning sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq belgilangan xavfli ishlab chiqarish obyektlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan texnogen hodisalar (yong'inlar, portlashlar, xavfli zararli moddalarni tashqariga chiqarish, binolar, inshootlar, texnik qurilmalar va shu kabilar) zonalar hamda:

a) radioaktiv moddalar va materiallar ishlab chiqariladigan, ulardan foydalaniladigan, ular qayta ishlanadigan, hosil bo'ladigan, saqlanadigan, tashiladigan, yo'q qilib tashlanadigan obyektlar;

b) barcha turdagi sanoat elektr qurilmalari qo'llanadigan obyektlar;

v) gidrotexnika inshootlaridan, shu jumladan yirik korxonalar chiqindixonalari va tindirgichlaridan foydalaniladigan obyektlar;

g) ionli nurlanishlar manbalaridan foydalaniladigan obyektlar;

d) favqulodda vaziyatlarga (suv, gaz, issiqlik va elektr energiyasi ta'minotining to'xtab qolishiga, uy-joy massivlarini suv bosishiga, kanalizatsiya va suvni tozalash tizimlarining ishdan chiqishiga) olib keluvchi buzilishlar (zararlanishlar) sodir bo'lishi mumkin bo'lgan obyektlar TXYUZDK obyektlari hisoblanadi.

TXYUZDKni yuritish quyidagi bo'linmalar tomonidan:

ushbu Nizom obyektlardan foydalanadigan tashkilotlar tomonidan;

ishlab chiqarish obyektlarida, portlash-yong'in chiqishi va radiatsiya xavfi mavjud bo'lgan obyektlarda avariya hollari sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yuqori xavfli zonalar bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, uning inspeksiyalari va hududiy boshqarmasi texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar bosh kadastr markazi (keyingi o'rinlarda TXYUZ BKM deb ataladi) tomonidan;

odamlarni evakuatsiya qilishni yoki ko'chirishni talab qiladigan xavf yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar bosh kadastr markazi tomonidan;

portlash va yong'in chiqishi xavfi yuqori bo'lgan zonalar (obyektlar) bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yong'in xavfsizligi xizmatining TXYUZ KM tomonidan;

kuchli ta'sir qiluvchi zaharli ximikatlar, pestitsidlar, radioizotop buyumlar, radioaktiv va boshqa moddalarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish obyektlari bo'yicha-O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, hududiy boshkarmalari va ularning bo'limlari TXYUZ KM tomonidan;

yadro fizikasi korxonalarida radiatsiya xavfi yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining TXYUZ KM tomonidan amalga oshiriladi.

TXYUZ BKM TXYUZDKni yuritishni muvofiqlashtiradi.

Quyidagilar TXYUZDKni yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- TXYUZ bilan respublikaning butun hududini qamrab olishning to'liqligi;
- kadastr axborotlari ishonchliligi, ko'rgazmaliligi va xujjatlarini;
- barcha obyektlar bo'yicha kadastr axborotlarini shakllantirish va ularni har yili yangilab borish metodologiyasining yagonaligi;
- makon koordinatalari yagona tizimini va yagona topografiya asoslarini qo'llanish;
- kadastr axborotlari ochiqligi.

Quyidagilar TXYUZDKning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- TXYUZ to'g'risidagi axborotlarni to'plash, tahlil qilish, ishlash, hisobga olish, tizimlashtirish, saqlash, yangilab borish;
- TXYUZ pasportlarini tuzish va yuritish;
- kadastr daftarini yuritish, TXYUZ kadastr rejalarini va xaritalarini tuzish;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni zarur kadastr axborotlari bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'minlash.

TXYUZDKni yuritish bo'yicha ishlar davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

TXYUZDK tegishli vakolatli organlarning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadigan dasturlar va jadvallar asosida yuritiladi, ularda kuzatishlar, TXYUZning boshlang'ich va joriy kadastr axborotlarini to'plash, ishlash, tadqiqotlar tartibi belgilanadi.

Ushbu Nizomda obyektlardan foydalanuvchi tashkilotlar:

- obyektlarni identifikatsiya qiladi;
- boshlang'ich va joriy kadastr axborotlarini hamda TXYUZning miqdor va sifat bo'yicha holatidagi, iqtisodiy baholashdagi, ularning atrof muhitga ta'sir ko'rsatishidagi o'zgarishlarni to'plash va tizimlashtirishni amalga oshiradi.

-TXYUZ kadastr daftarlarini yuritadi, ma'lumotlar bazasini to'ldiradi va ularni tizimlashtirish hamda TXYUZDK AATga kiritish uchun TXYUZDK BKMga beradi;

-TXYUZ kadastr pasportlarini ishlab chiqadi;

-o'zgarishlarni kadastr pasportlariga o'z vaqtida kiritishni ta'minlaydi;

-yangi TXYUZlar hisobini yuritadi, ular to'g'risidagi baholash axborotlarini to'playdi;

-kadastr axborotlarining ishonchliligi va ularning TXYUZDK AATga kiritish uchun o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javob beradi.

Har qaysi TXYUZ uchun O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi bilan kelishgan holda belgilangan namunadagi kadastr pasporti rasmiylashtiriladi va tasdiqlanadi.

Quyidagilar obyektning kadastr pasportini tuzish uchun boshlang'ich ma'lumotlar hisoblanadi:

-o'z kuzatishlari, o'lchashlari va tadqiqotlari natijalari bo'yicha olinadigan ma'lumotlar;

-sanitariya-texnika pasportlari, sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi, ishlab chiqarish-texnika, konstruktorlik, texnologik, foydalanish hujjatlari;

TXYUZ to'g'risida korxonalar, tashkilotlar va boshqa rasmiy manbalardan olinadigan axborotlar.

-kadastr pasportlarini ishlab chiqqan vakolatli organlar 5 kun muddatda ularning nusxalaridan bir nusxadan:

-TXYUZ BKMga;

-TXYUZ BKMning tegishli mintaqaviy bo'linmasiga;

-TXYUZ KMga;

-TXYUZ KMning tegishli mintaqaviy bo'linmasiga taqdim etadi.

TXYUZ BKM va TXYUZDK KM vakolati bo'yicha kadastr pasportlarini tekshiradi hamda tegishli ro'yxatdan o'tkazish axborotlarini va boshqa asosiy axborotlarni kadastr daftariga yozib qo'yadi.

TXYUZ BKM har yili DKYATga kiritish uchun hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasiga zarur kadastr axborotlarini taqdim etadi. Kadastr ma'lumotlarini taqdim etish shakli va ularning hajmi O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi va "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi bilan kelishiladi.

TXYUZDK texnogen xavf yuqori (TXYU) bo'lgan hodisalarning ro'y berishi mumkin bo'lgan har qaysi zonasi yoki markazi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'ladi.

TXYUZDKni yuritish ushbu Nizomga 1- ilovadagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Quyidagilar TXYUZDKning tarkibiy qismlari hisoblanadi:

-obyektlarni identifikatsiya qilish va TXYU hodisalar ro'y berishi mumkin bo'lgan zonalarini ro'yxatdan o'tkazish;

-TXYUZning miqdor va sifat tavsiyalarini hisobga olish;

-TXYUZni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy baholash.

TXYUZning kadastr axborotlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

-TXYUZning ro'y berishi mumkin bo'lgan turi ko'rsatilgan holda kadastr obyektining nomi;

-TXYUZning joylashgan o'rni;

-TXYUZ hodisalarini vujudga keltiradigan obyektning idoraviy mansubligi va uni foydalanishga kiritish sanasi;

-obyektning foydalanish maqsadi (agar xavf antropogen omillar ta'sirida vujudga kelsa va tabiiy hodisa bo'lmasa);

-obyektning hisobga olish sanasi;

-obyektning kadastr nomeri;

-TXYUZda joylashgan obyektlarning ro'yxati;

-TXYUZning hisobga olingan vaqtdagi holati;

Kartografiya materiallari - TXYU hodisaning ro'y berishi mumkin bo'lgan zonalar tasviriga ega bo'lgan, TXYU hodisa ta'siriga uchragan maydonlar (zonalar) hajmlari ko'rsatilgan holdagi tegishli masshtabi topografiya xaritalari.

TXYUZning hisobga olinadigan axborotlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

-obyektning xavflilik belgilari ro'yxati;

-obyektning texnologik asbob-uskunasi tavsifi;

-obyektlardagi xavfli moddalardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar;

-zarar yetkazadigan va buzuvchi omillar tavsiflari: ta'sirlarning kuchi, tezligi, hajmi, turkumligi, chastotasi, asosiy yo'nalishi va ro'y berish tezligi;

-inson salomatligiga va atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ro'yxati;

-sanitariya-muhofaza va qo'riqlash zonalarini to'g'risidagi ma'lumotlar;

-inson faoliyati turlarini cheklash zarur bo'lgan uchastkalar chegaralari yoki masofalar to'g'risidagi ma'lumotlar;

-odamlarni evakuatsiya qilishni yoki ko'chirishni talab qiladigan zonalar tavsifi;

-TXYUZ hududlaridan foydalanish belgilangan rejimi, TXYUZda ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati, odamlar yashashi va bo'lishi asosiy shart-sharoitlari;

-TXYUZ hodisalar ta'siriga uchragan obyektlar va inshootlar, ushbu obyektlarning buzilishi va shikastlanishi darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

TXYUZni baholash axborotlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

-TXYUZni o'rganish bo'yicha aerosuratga olishlar, gidrometeorologiya, muhandislik, geologiya, seysmik, texnologik, ekologik tadqiqotlar va boshqa ishlar natijalari to'g'risidagi sinovdan o'tkazilgan hisobotlar;

-avariyalar xavfini va ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni baholash bo'yicha xulosalar;

-sanitariya-gigiyena sharoitlari to'g'risidagi, suv, havo, yer, ifloslantiruvchi (zararli) moddalar konsentratsiyalari holati to'g'risidagi ma'lumotlar;

-faoliyati TXYU hodisalar bilan bog'liq bo'lgan korxonalar tomonidan TXYUZni idoraviy tekshirishlar natijalari bo'yicha xulosalar;

-TXYUZni o'rganishgan (tekshirishgan) rasmiy komissiyalar va mutaxassislarning ekspert xulosalari;

-TXYUZdagi va uning yaqinidagi yer, suvdan foydalanish, u yerda turli maqsaddagi obyektlarni joylashtirish imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

-TXYU hodisalar yetkazgan zarar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Hisobga olish va baholash ma'lumotlari TXYUZ to'g'risidagi kadastr axborotlari yig'indisidan iborat bo'ladi, u alfavit-raqamli (matnlar, jadvallar) va chizma (xaritalar, sxemalar) ko'rinishida taqdim etiladi, qog'oz va/yoki elektron manbalarda belgilangan namunadagi kadastr pasporti shaklida rasmiylashtiriladi.


TXYUZDKni yuritish kadastr axborotlari uzluksiz ravishda yangilab borishni ta'minlovchi asosiy (boshlang'ich) va joriy hisobga olish (ro'yxatlar) turlaridan iborat bo'ladi.

TXYUZni dastlabki ro'yxatdan o'tkazishda (ro'yxatlar tuzishda) obyektlar identifikatsiya qilinadi, ularning miqdor va sifat tavsiflari, TXYU hodisalarning ro'y berishi va ta'sirlari dinamikasi qayd etiladi. Obyektlarni identifikatsiya qilish usullari, TXYUZ tavsiflari tarkibi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi bilan kelishgan holda tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadigan tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro'yxatdan o'tkazish axborotlari va boshqa asosiy ma'lumotlar kadastr daftoriga yoziladi.

Joriy hisobga olishda boshlang'ich hisobga olishdan keyin ro'y bergan barcha o'zgarishlar va TXYUZning ro'y bergan yangi markazlari qayd etiladi. Qayd etilgan joriy o'zgarishlar kadastr pasportiga va kadastr daftoriga kiritiladi hamda TXYUZDK KM va TXYUZDK BKMga beriladi.

TXYUZ kadastr axborotlarining ishonchliligi uchun TXYUZDKni yuritish zimmasiga yuklangan TXYUZ KM va TXYUZ BKM, obyektlardan foydalanuvchi tashkilotlarning mansabdor shaxslari javob beradilar.

**Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar  
davlat kadastrini yuritish  
SXEMASI**



\*) izoh *Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo'nalishlari belgilangan.*

1. Nizomda o'rsatilgan obyektlardan foydalanuvchi tashkilotlar o'z obyektlari bo'yicha kadastr axborotlarini to'playdilar va ularni tegishli vakolatli idoralarga beradilar.

2. Vakolatli idoralar Ichki ishlar vazirligining Davlat yong'in xavfsizligi xizmati, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi instituti respublika bo'yicha TXYUZ kadastr axborotlarini to'playdilar va ularni TXYUZDKni yuritish bo'yicha bosh idoraga - Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasiga beradilar.

3. TXYUZDKni yuritish bo'yicha bosh idora - Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi TXYUZ obyektlari bo'yicha kadastr axborotlarini "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasiga beradi.

4. Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining bosh idorasi so'rov bo'yicha "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan TXYUZ bo'yicha axborotlarni olishi mumkin.

5. Vakolatli idoralar - Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligining Davlat yong'in xavfsizligi xizmati, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi instituti so'rov bo'yicha Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining bosh idorasi orqali "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan TXYUZ bo'yicha axborotlarni olishi mumkin.

6. Nizomda ko'rsatilgan obyektlardan foydalanuvchi tashkilotlar so'rov bo'yicha "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan TXYUZ bo'yicha axborotlarni olishi mumkin.

7. DKYATdan foydalanuvchilar so'rov bo'yicha "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan TXYUZ bo'yicha kadastr axborotlarini olishi mumkin.

#### **Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:**

1. "Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomning mazmun va mohiyati nimalardan iborat?

2. Xavfli ishlab chiqarish obyektlariga qanday obyektlar kiradi?

3. TXYUZDKni yuritish kimlar tomonidan amalga oshiriladi?

4. TXYUZDKni yuritishning asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

5. TXYUZDKni yuritish qanday tashkil etiladi?

6. Kadastr pasportini tuzish uchun qanday ma'lumotlar boshlang'ich hisoblanadi?

7. TXYUZDKning qanday tarkibiy qismlaridan iborat?

8. TXYUZni baholash axborotlari nimalardan iborat?

9. TXYUZni qanday tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi?

10. Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish Sxemasi qanday tartibda bo'ladi?

11. TXYUZDKning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

## **12-MA'RUZA. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUTUR YETKAZMAYDIGAN NAZORAT TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.**

#### **O'quv rejasi:**

1. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasining asosiy vazifalari

2. Mahsulot sifatini ta'minlashda putur yetkazmaydigan nazoratning roli

3. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini qurish

4. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini boshqarish

5. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish asosiy yo'nalishlari

6. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimi tuzilmasi



*Tayanch soʻz va iboralar: Putur yetkazmaydigan nazorat tizimi, xavfli ishlab chiqarish obyektlari, texnik nazorat, ilmiy-texnik taraqqiyot, texnogen avariya va halokatlar, tashkiliy-metodik*

## **1. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasining asosiy vazifalari**

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrda «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar haqidagi 271-son Qarori bilan Oʻzbekiston Respublikasida putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlangan.

Sanoat ishlab chiqarishi sohasidagi ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanishining sezilarli surʼatlari hamda ishlab chiqarish obyektlarining yuqori foydalanish ishonchligini qoʻllab-quvvatlash vazifalarini hal etish zarurligi nazoratning putur yetkazmaydigan usullarini takomillashtirish va yanada keng qoʻllashni talab etadi. Putur yetkazmaydigan usullar kompleksidan oqilona foydalanish mahsulotning ishonchligi va sifatini oshirish imkonini beradi, murakkab agregatlarning texnogen avariya va halokatlarining oldini oladi hamda ishlab chiqarishga juda katta iqtisodiy afzallik beradi.

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi putur yetkazmaydigan nazorat sohasidagi faoliyatni tashkiliy-metodik va ilmiy-texnik taʼminlashni doimiy ravishda takomillashtirib borish asosida uning yoʻnalishlarini asosli belgilash, xodimlar malakasini, laboratoriyalar vakolatligini, putur yetkazmaydigan nazoratning metodik hujjatlari va vositalari texnik darajasini oshirish, putur yetkazmaydigan nazorat tizimi qoidalari va tartib-qoidalarini putur yetkazmaydigan nazorat boʻyicha jahon standartlari talablari va mezonlariga uygʻunlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi putur yetkazmaydigan nazorat sohasida normativ-huquqiy, normativ va texnik hujjatlarni ishlab chiqish, xavfli ishlab chiqarish obyektlarining texnik, sanoat va radiatsion xavfsizligini, shu jumladan fuqarolarning hayoti va sogʻligi, ularning mol-mulki, atrof muhitning xavfsizligini taʼminlash, shuningdek ishlab chiqarish obyektlaridan chiqadigan texnogen xavflardan sanoat va radiatsiya xavfsizligini taʼminlash boʻyicha putur yetkazmaydigan nazorat sohasida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasining huquqiy asosini Oʻzbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, mehnatni muhofaza qilish, ekologiya, yer osti boyliklarini muhofaza qilish, sanoat va radiatsiya xavfsizligi sohasidagi Oʻzbekiston

Respublikasi qonunlari, putur yetkazmaydigan nazorat sohasida texnik siyosat va munosabatlar masalalarini tartibga soladigan xalqaro shartnomalar va bitimlar, sanoat va radiatsiya xavfsizligini ta'minlash sohasidagi normativ hujjatlar va hokazolar tashkil etadi.

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish putur yetkazmaydigan nazorat natijalarining eng ko'p darajada samaraliligi va ishonchliligini belgilab beradigan omil sifatida putur yetkazmaydigan nazoratni tashkil etishga kompleks yondashish zarurligi bilan belgilanadi.

Mahsulotlarning sifati va ishonchliligi darajasini, shu jumladan ishlab chiqarish obyektlarida qo'llaniladigan va ishlatiladigan texnik qurilmalar, binolar va inshootlarning foydalanish xavfsizligini oshirish putur yetkazmaydigan nazorat tizimining maqsadi hisoblanadi. Bunga putur yetkazmaydigan nazoratning ishonchliligi, takrorlanishi, qiyoslanishini ta'minlash hamda sanoat va radiatsiya xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'z vaqtida va muqobil qarorlar qabul qilish hisobiga erishiladi.

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi putur yetkazmaydigan nazorat tizimining asosiy maqsadlari va vazifalarini, tuzilmasini, shuningdek uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi quyidagi *asosiy vazifalarni* hal etishga yo'naltirilgan:

putur yetkazmaydigan nazorat sohasidagi faoliyatni tashkiliy-metodik va ilmiy-texnik ta'minlashni takomillashtirish;

putur yetkazmaydigan nazorat xodimlari malakasini, laboratoriyalarining vakolatligini, metodik hujjatlari va vositalarining texnik darajasini oshirish;

putur yetkazmaydigan nazorat tizimining qoidalari va tartib-qoidalarini putur yetkazmaydigan nazorat bo'yicha xalqaro standartlar talablari va mezonlariga uyg'unlashtirish;

putur yetkazmaydigan nazorat xodimlari, laboratoriyalari, metodik hujjatlari va vositalarini baholash va ularning muvofiqligini tasdiqlash;

putur yetkazmaydigan nazorat xodimlari, laboratoriyalari, metodik hujjatlari, vositalari ma'lumotlar bankini shakllantirish va putur yetkazmaydigan nazorat tizimini axborot bilan ta'minlash;

muvofiqlikka baho berish va tasdiqlash bo'yicha tashkiliy tuzilmalarni maqbullashtirish;

muvofiqlikka baho berish va tasdiqlash bo'yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

putur yetkazmaydigan nazorat natijalari xalqaro e'tirof etilishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

## **2. Mahsulot sifatini ta'minlashda putur yetkazmaydigan nazorat roli**

Putur yetkazmaydigan nazorat mahsulotning ishonchliligi va sifatini oshirish imkonini beradi, yangi, murakkabroq ishlab chiqarishni o'zlashtirishga, shuningdek yangi progressiv texnologik jarayonlarni joriy etishga ko'maklashadi. Putur yetkazmaydigan nazorat nazoratning boshqa usullaridan farq qilgan holda nazorat qilinadigan turkumda buyumlarning 100 foizini qamrab olishi mumkin, shu sababli ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini tekshirish imkonini beradi, keyinchalik qayta ishlash uchun mahsulotning yaroqli qismini tanlab olish imkonini beradi va ishlab chiqarilayotgan buyumlarning sifatini kafolatlaydi.

Texnologik jarayonning har xil bosqichlarida putur yetkazmaydigan sinovlarni muntazam o'tkazish va ushbu sinovlar natijalarini statistik qayta ishlash nuqsonlar paydo bo'ladigan texnologik jarayonlar bosqichini aniqlash va, tegishlicha, nuqsonning sabablarini aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

Murakkab texnologik jarayon sharoitlarida tayyor detallar sifatini qayd etadigan putur yetkazmaydigan nazorat jarayoniga tuzatish kiritishning faol usuliga aylanadi. Ishlab chiqarish avtomatlashtirilishi sharoitlarida nazoratning tuzatuvchi roli ayniqsa oshadi.

Shunday qilib putur yetkazmaydigan nazorat usullaridan oqilona foydalanilgan taqdirda ular texnologik jarayonni takomillashtirishning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Putur yetkazmaydigan nazorat operatsiyalari o'zida texnologik jarayonning ajralmas va teng huquqli bo'g'inini ifodalaydi. Ushbu operatsiyalar:

- buyum sifatini aniqlashga;
- buyumlarning mustahkamligini aniqlashga;
- eng yaxshi konstruktiv va texnologik yechimga yo'naltirishga;
- tayyorlovchining markasini qo'llab-quvvatlashga;
- baxtsiz hodisalarning oldini olish va xavfsizlikni oshirishga;
- ishlab chiqarish qiymatini pasaytirishga qodir.

Potensial xavfli obyektlar — ishlab chiqarish texnikasi va transporti, bosim ostida ishlaydigan idishlar, quvur tarmoqlari, elektr stansiyalari, ko'priklar, binolar va inshootlarning tayanch konstruksiyalari, ko'tarish qurilmalari, temir yo'llar, ionlashtiruvchi nurlanish manbalari va boshqa bir qancha obyektlarning sifati va xavfsizligini tekshirishda putur yetkazmaydigan nazorat alohida ahamiyat kasb etadi. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida binolar, inshootlar va texnika qurilmalarini tayyorlash, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, montaj qilish, qurish va sanoat xavfsizligi ekspertizasi sifati, radiatsiya xavfini o'z vaqtida aniqlash bilan bog'liq sanoat va radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida putur yetkazmaydigan nazoratning roli va ahamiyati o'sishi ularning texnik holati, imkoniyati va bundan keyin ishlatish

muddatlarini baholash zarurligi bilan belgilanadi. Bunday obyektlarning vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan ishonchli putur yetkazmaydigan nazorati ularning xizmat qilish muddatini uzaytirish va, asosiysi, texnogen avariya va halokatlar ehtimolining oldini olish imkonini beradi.

Texnika qurilmalari, binolar va inshootlar parametrlarining chetga chiqish ehtimolining, shu jumladan buning oqibatida ish to'xtab qoladigan yo'l qo'yiladigan doirasida chetga chiqishlarini prognozlashtirish uchun ularning holatini tavsiflaydigan belgilarni aniqlash va o'rganish, shuningdek normal ish rejimi buzilishining o'z vaqtida oldini olish maqsadida ular holatini eksperimental aniqlash usullari va vositalarini ishlab chiqish xavfli ishlab chiqarish obyektlarining ishlab chiqarish siklidagi muhim va zarur bosqich hisoblanadi hamda texnik diagnostika deb ataladi. Putur yetkazmaydigan nazoratga asoslangan texnik diagnostika usullari texnika qurilmalari, binolar va inshootlar ish qobiliyati va xavfsizligini nazorat qilish jarayonlarini oqilona tashkil etish uchun qo'llaniladi.

Texnik diagnostika ish sharoitlarida konstruksiyalar, mexanizmlar va elementlarning texnik holati parametrlarini tadqiq etish, shuningdek normal ishlatish sharoitlarida va tabiat hodisalari yoki (inshootni) loyihalashtirish, tayyorlash va ishlatishdagi tashkiliy xatolar bilan belgilanadigan xavfli ish rejimlarida ularning ish qobiliyati va ishonchliligini prognozlashtirish imkonini beradi.

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimi xavfli ishlab chiqarish obyektlarida qo'llaniladigan va ishlatiladigan texnika qurilmalari, binolar va inshootlardan foydalanish xavfsizligi darajasini oshirishda muhim bo'g'in, tashkil etilishi «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qanuni amalga oshirishning yo'nalishlaridan biri hisoblangan Sanoat xavfsizligi ekspertizasi tizimining instrumental ishonchli isbotlovchi bazasini ta'minlashning asosi hisoblanadi.

### **3. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini qurish**

Putur yetkazmaydigan nazorat putur yetkazmaydigan nazorat vositalarini qo'llash bilan bog'liq sanoat xavfsizligi ekspertizasi uchun isbotlovchi baza hisoblanadi.

Davlat darajasida amal qiladigan hamda putur yetkazmaydigan nazorat sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun tashkiliy, texnik va normativ-huquqiy bazaga ega bo'lgan tizim Putur yetkazmaydigan nazorat tizimi hisoblanadi. Putur yetkazmaydigan tizim laboratoriyalari va ularning xodimlari, metodik hujjatlari va vositalari putur yetkazmaydigan tizim subyektlari hisoblanadi.

Quyidagilar putur yetkazmaydigan nazorat tizimining asosiy qatnashchilari hisoblanadi:

«O‘zstandart» agentligi — «Metrologiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq putur yetkazmaydigan nazorat sohasida putur yetkazmaydigan nazoratni metrologik ta‘minlash, davlat metrologiya nazorati va tekshiruvi bo‘yicha faoliyatning davlat boshqaruvni amalga oshiradigan metrologiya bo‘yicha milliy organ;

O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi — sanoat xavfsizligi sohasida xavfli ishlab chiqarish va radiatsiya-xavfli obyektlarda putur yetkazmaydigan nazoratni amalga oshirishning majburiy meyorlari va qoidalarini belgilaydigan, putur yetkazmaydigan nazorat laboratoriyalariga xavfli ishlab chiqarish obyektlarida putur yetkazmaydigan nazorat ishlarini bajarishga ruxsatnomalar beradigan maxsus vakolatli davlat organi;

O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining topshirig‘i bo‘yicha sanoat va radiatsiya xavfsizligini ta‘minlash sohasida putur yetkazmaydigan nazorat tizimi qatnashchilari faoliyatini muvofiqlashtiradigan muvofiqlashtiruvchi organ;

-putur yetkazmaydigan nazoratning akkreditatsiya qilingan laboratoriyalari;

-putur yetkazmaydigan nazorat sohasida mutaxassislarni o‘qitadigan akkreditatsiya qilingan o‘quv markazlari (O‘Q);

-putur yetkazmaydigan nazorat sohasida mutaxassislardan malaka imtihonlari oladigan akkreditatsiya qilingan imtihon markazlari (IM);

-putur yetkazmaydigan nazorat xodimlari sertifikatitsiyasi bo‘yicha akkreditatsiya qilingan organ;

-putur yetkazmaydigan nazoratning sertifikatitsiyalangan xodimlari;

-o‘z faoliyatida putur yetkazmaydigan nazorat vositalaridan foydalanadigan tashkilotlar.

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimi qatnashchilarining faoliyati ular to‘g‘risidagi tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimi tuzilmasi ilovada keltirilgan

#### **4. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini boshqarish**

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini boshqarish xalqaro, davlatlararo va milliy normativ hujjatlarning asosiy qoidalari hisobga olingan holda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablaridan kelib chiqib amalga oshirilishi hamda ilg‘or ilmiy-texnik ishlanmalarga va sanoat korxonalarining ijobiy tajribasiga asoslanishi kerak.

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini boshqarish:

-putur yetkazmaydigan nazorat sohasida xodimlarni;

-putur yetkazmaydigan nazorat laboratoriyalarini;

-putur yetkazmaydigan nazorat bo‘yicha metodik hujjatlarni;

-putur yetkazmaydigan nazorat vositalarini baholashga va ularning muvofiqligini tasdiqlashga asoslangan.

Baholash va muvofiqlikni tasdiqlashning asosiy tashkiliy-texnik prinsiplari sanoat nazoratining barcha turlari va putur yetkazmaydigan nazorat sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan tashkilotlar uchun majburiy bo'lgan bir xildagi va bir ma'nodagi normativ hujjatlarda bayon qilinishi kerak.

### **5. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari**

Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1) Putur yetkazmaydigan nazorat tizimida quyidagilarni:

-putur yetkazmaydigan nazorat sohasida xodimlarni;

-putur yetkazmaydigan nazorat laboratoriyalarini;

-putur yetkazmaydigan nazorat bo'yicha metodik hujjatlarni;

-putur yetkazmaydigan nazorat vositalarini baholash va ularning muvofiqligini tasdiqlashning yagona talablarini ishlab chiqish.

2) Putur yetkazmaydigan nazorat sohasida normativ hujjatlarni ishlab chiqish.

3) Putur yetkazmaydigan nazorat tizimi har bir funksional elementini akkreditatsiya qilish va ular faoliyatini vaqti-vaqti bilan nazorat yo'sinida tekshirish.


Quyidagilar putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirishning ustuvor chora-tadbirlari hisoblanadi:

1) Putur yetkazmaydigan nazorat tizimining zarur normativ hujjatlar ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini, shuningdek xavfsizlik qoidalari hamda O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi va «O'zstandart» agentligining boshqa hujjatlari dolzarblashtirilishini nazarda tutadigan tashkiliy tuzilmasini tashkil etish;

2) Sanoat xavfsizligi ekspertizasi tizimini, shu jumladan putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy va normativ texnik hujjatlarni ishlab chiqish;

3) Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini joriy etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

### Putur yetkazmaydigan nazorat tizimi tuzilmasi



#### Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasida putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish Konsepsiyasining mazmuni nimalardan iborat?
2. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Mahsulot sifatini ta'minlashda putur yetkazmaydigan nazoratning roli nimalardan iborat?
4. Sanoat va radiatsiya xavfsizligini ta'minlashda putur yetkazmaydigan nazoratning roli nimalardan iborat?
5. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini qurish qanday amalga oshiriladi?
6. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini boshqarish qanday amalga oshiriladi?
7. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
8. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirishning ustuvor chora-tadbirlari nimalardan iborat?
9. Putur yetkazmaydigan nazorat tizimi tuzilmasi nimalardan iborat?

### 13-MA'RUZA. SANOAT XAVFSIZLIGI SOHASIDAGI EKSPERT TASHKILOTLARINI AKKREDITATSIYA QILISH VA ULAR FAOLIYATI USTIDAN INSPEKSIYA NAZORATINI O'TKAZISH.

#### O'quv resjasi:

1. Ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish Qoidalar mazmun va mohiyati.
2. Ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish
3. Akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlari faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish

4. Akkreditatsiya attestatiga o'zgartirishlar kiritish, qayta rasmiylashtirish va akkreditatsiya attestati dublikatini berish

5. Akkreditatsiya attestati amal qilishini to'xtatib qo'yish, tugatish yoki akkreditatsiya attestatini bekor qilish

***Tayanch so'z va iboralar:** akkreditatsiya, attestati, ekspert, ekspertiza, inspeksiya nazorati, xavfli sanoat obyektlari, buyurtmachi, ekspert tashkiloti, sanoat xavfsizligi, faoliyati tuxtitib qo'yish.*

### **1. Ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish Qoidalar mazmun va mohiyati.**

Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish Qoidalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrda 271-son "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida" gi qaroriga muvofiq sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish, ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish tartibini hamda ekspert tashkilotlari faoliyatida quyidagi talablarni belgilaydi.

Ekspertiza akkreditatsiya qilingan ekspert tashkiloti tomonidan akkreditatsiya sohasiga muvofiq akkreditatsiya attestati asosida amalga oshiriladi.

Ekspert tashkilotini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish vakolatli organ tomonidan mazkur Qoidalar, qonun hujjatlari va normativ texnik hujjatlar talablariga muvofiq o'tkaziladi.

### **2. Ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish**

Akkreditatsiya qilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

a) buyurtmachidan akkreditatsiya qilish uchun arizani qabul qilish, taqdim etilgan hujjatlarni dastlabki baholash va arizani ijro etish haqidagi qaror qabul qilish;

b) taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qilish va tahlil natijalari asosida xulosa rasmiylashtirish;

v) buyurtmachini joyiga borib baholash va baholash natijalari bo'yicha dalolatnomani rasmiylashtirish;

g) bajarilgan ishlar natijalari asosida qaror qabul qilish;

d) akkreditatsiya attestatini rasmiylashtirish, ro'yxatga olish va buyurtmachiga topshirish.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

b) buyurtmachi faoliyat olib bormoqchi bo'lgan akkreditatsiya sohasi (akkreditatsiya sohalari ro'yxati mazkur Qoidalarning 1a-ilovasida keltirilgan);

v) ekspert tashkiloti nizomi;



g) buyurtmachi akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini tavsiflovchi deklaratsiya (akkreditatsiya mezonlari mazkur Qoidalar 2-ilovasida keltirilgan);

d) buyurtmachi tomonidan akkreditatsiya qilish uchun to'lov to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

ye) akkreditatsiya sohasidagi ishlarni bajaradigan xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

j) akkreditatsiya sohasidagi ishlarni bajarish uchun mavjud sharoitlar, jihozlar, dasturlar va asbob-uskunalar haqidagi ma'lumotlar;

z) mavjud bino va inshootlar, jihozlar, asbob-uskunalar buyurtmachiga mulk huquqi yoki boshqa qonuniy asosda taalluqliligini tasdiqlovchi xujjatlar yoki ularning buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan nusxalari;

i) buyurtmachining sifat bo'yicha qo'llanmasi;

k) buyurtmachining sifatni boshqarish tizimi hujjatlari.

Akkreditatsiya natijalaridan qat'i nazar, akkreditatsiya qilish uchun to'lov belgilangan tartibda buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi. Vakolatli organ topshirilgan arizalarni tikilgan, betlar soni ko'rsatilgan, vakolatli organ muhri bilan muhrlangan daftar (jurnal)larda ro'yxatga oladi.

Vakolatli organ ariza topshirilgan kundan boshlab o'n ish kuni muddatida taqdim etilgan hujjatlarni dastlabki baholashni amalga oshiradi hamda dastlabki baholash natijalari ijobiy bo'lganda, vakolatli organ arizani ijro etish haqida qaror qabul qiladi.

Dastlabki baholashda taqdim etilgan hujjatlar to'liqliligi hamda bu hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlar yetarliligi o'rganiladi va natijalari bo'yicha tegishli ma'lumotnoma rasmiylashtiriladi.

Taqdim etilgan hujjatlarni dastlabki baholash natijalari salbiy bo'lganda, vakolatli organ asoslangan sabablarni ko'rsatgan holda buyurtmachiga yozma ravishda uning arizasi rad etilganligi haqida ma'lum qiladi.

Arizani ijro etish haqida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddat ichida vakolatli organ taqdim etilgan hujjatlar tahlili o'tkazilishini ta'minlaydi.

Taqdim etilgan hujjatlar tahlili Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi xodimlari yoki vakolatli organ topshirig'iga binoan ekspertlar tomonidan, taqdim etilgan hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlar asosida buyurtmachi akkreditatsiya mezonlariga qay darajada muvofiqligini baholash maqsadida amalga oshiriladi. Tahlil natijalari xulosa tarzida rasmiylashtiriladi.

Taqdim etilgan hujjatlar tahlili natijasi salbiy bo'lganda, xulosa rasmiylashtirilgan kundan boshlab besh ish kuni muddatida vakolatli organ akkreditatsiya mezonlariga nomuvofiqlik sabablarini ko'rsatgan holda buyurtmachiga yozma ravishda akkreditatsiya qilish bo'yicha rad javobi berilganligi haqida ma'lum qiladi.

Buyurtmachi kamchiliklarni bartaraf etib, olti oygacha bo'lgan muddatda hujjatlarni qayta tahlil qilish uchun taqdim etishi mumkin.

Buyurtmachi tomonidan akkreditatsiya qilish bo'yicha rad javobi berilishiga sabab bo'lgan kamchiliklar bartaraf qilingan taqdirda xujjatlar qayta tahlili o'n ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Taqdim etilgan hujjatlar tahlili natijalari ijobiy bo'lgan taqdirda joyiga borib baholash komissiyasi tarkibi va joyiga borib baholashni o'tkazish muddatlari aniqlanib, baholash komissiyasi tarkibi a'zolari soni yetti kishidan, joyiga borib baholash davomiyligi esa bir oydan oshmasligi kerak.

Baholash jarayonida ishtirok etadigan har bir mutaxassis mazkur Qoidalarning 3-ilovasida keltirilgan shaklda rasmiylashtiradigan majburiyat varaqasini imzolaydi.

Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi raisi buyrug'i va joyiga borib baholash dasturi baholash boshlanishidan kamida uch ish kuni oldin buyurtmachiga yuboriladi va baholash komissiyasi a'zolariga tanishtiriladi.

Buyurtmachi baholash komissiyasi a'zolariga o'z faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlardan to'siqsiz foydalanish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Baholash komissiyasi a'zolari joyiga borib baholash dasturiga muvofiq buyurtmachi faoliyatining asosiy turlari amalga oshiriladigan barcha bo'linmalari akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini, buyurtmachi amaldagi holatini taqdim etilgan hujjatlar bilan muvofiqligini, uning ko'rsatilgan vazifalarni bajarish imkoniga ega ekanligini baholaydi.

Joyiga borib baholash jarayonida nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda mazkur Qoidalar 4-ilovasida keltirilgan shaklda nomuvofiqlik bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

Joyiga borib baholash natijalari bo'yicha mazkur Qoidalar 5-ilovasida keltirilgan shaklda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

Rasmiylashtirilgan nomuvofiqlik bayonnomalari dalolatnomaga ilova qilinadi.

Dalolatnoma ikki nusxada tuziladi: bir nusxasi vakolatli organga taqdim etish uchun komissiya raisida qoladi, ikkinchi nusxasi buyurtmachiga beriladi.

Vakolatli organ taqdim etilgan hujjatlar tahlili natijalarini, joyiga borib baholash natijalarini va bildirilgan alohida fikrlarni tahlil qiladi va akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etadi.

Akkreditatsiya komissiyasi joyiga borib baholash bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtirilgan kundan boshlab o'n besh ish kuni muddatida akkreditatsiya qilish yuzasidan bajarilgan ishlar natijalarini ko'rib chiqadi va akkreditatsiya qilish yoki akkreditatsiya qilish jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish haqida qaror qabul qiladi.

Akkreditatsiya qilish jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish haqida qaror qabul qilingan holatda vakolatli organ qaror qabul qilingan kundan boshlab uch ish kuni muddatida buyurtmachini Akkreditatsiya komissiyasi qarori bilan tanishtiradi.

Buyurtmachi aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etib, Akkreditatsiya komissiyasi qarori qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddatda nomuvofiqliklar bartaraf etilganligi to'g'risidagi hujjatlarni vakolatli organga taqdim etishi mumkin.

Qayta baholash o'tkazilganda baholash komissiyasi a'zolari nomuvofiqliklarni bartaraf etish va ko'rsatilgan tavsiyalarni bajarish bo'yicha o'tkazilgan tadbirlar yetarliligini baholaydi hamda baholash natijalari bo'yicha xulosani rasmiylashtiradi.

Akkreditatsiya komissiyasi akkreditatsiya qilish haqida qaror qabul qilganda vakolatli organ qaror qabul qilingan kundan boshlab o'n ish kuni muddatida buyurtmachiga mazkur Qoidalar 6-ilovasida keltirilgan shaklda rasmiylashtirilgan akkreditatsiya attestatini topshiradi. Akkreditatsiya attestati qat'iy hisobda turadigan maxsus blankada rasmiylashtiradi hamda akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlari reyestrda ro'yxatga olinadi.

Akkreditatsiya attestati besh yil muddatga beriladi.

Akkreditatsiya attestatiga Qoidalar 7-ilovasida keltirilgan shaklda rasmiylashtirilgan akkreditatsiya sohasi ilova qilinadi.

### **3. Akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlari faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish**

Inspeksiya nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari va mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Inspeksiya nazorati quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

a) akkreditatsiya qilingan ekspert tashkiloti faoliyati akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash;

b) akkreditatsiya qilingan ekspert tashkiloti faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, ekspert tashkiloti amaldagi hujjatlariga kiritilishini talab qiluvchi o'zgarishlarni aniqlash, bu o'zgarishlar ekspert tashkiloti faoliyatiga ko'rsatadigan ta'sirini baholash;

v) akkreditatsiya sohasida ko'rsatilgan ishlar bajarilishini nazorat qilish.

Inspeksiya nazorati ikki xil ko'rinishda o'tkaziladi:

a) rejali inspeksiya nazorati;

b) rejadan tashqari inspeksiya nazorati.

Rejali inspeksiya nazorati vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan "Akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlari faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish reja-jadvali" asosida yiliga bir marotaba o'tkaziladi.

Ekspert tashkiloti faoliyati o'z akkreditatsiya sohasida ko'rsatilgan ishlarni bajarish bo'yicha belgilangan talablarga va akkreditatsiya mezonlariga nomuvofiqligi haqidagi asoslangan ma'lumotlar hujjat bilan tasdiqlangan faktlari kelib tushgan holatlarda rejadan tashqari inspeksiya nazorati o'tkaziladi.

Inspeksiya nazorati natijalaridan qat'i nazar, rejali inspeksiya nazoratini o'tkazish uchun to'lov belgilangan tartibda ekspert tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

Inspeksiya nazoratini o'tkazish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

a) ekspert tashkilotini joyiga borib baholash va baholash natijalari bo'yicha dalolatnomani rasmiylashtirish;

b) joyiga borib baholash natijalari asosida qaror qabul qilish.

Vakolatli organ joyiga borib baholash natijalari va bildirilgan alohida fikrlarni (mavjud bo'lganda) tahlil qiladi hamda Akkreditatsiya komissiyasi qarori loyihasini tayyorlaydi.

Akkreditatsiya komissiyasi joyiga borib baholash bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtirilgan kundan boshlab besh ish kuni muddatida natijalarni ko'rib chiqadi va qutqaruv qarorlarini qarorlarni qabul qilishi mumkin:

a) akkreditatsiya attestatini tasdiqlash haqida;

b) akkreditatsiya sohasini qisqartirish haqida;

v) akkreditatsiya attestatining amal qilishini o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatga to'xtatib qo'yish haqida;

g) akkreditatsiya attestatining amal qilishini to'xtatib qo'yish, tugatish yoki akkreditatsiya attestatini bekor qilish uchun sudga murojaat qilish haqida.

Vakolatli organ Akkreditatsiya komissiyasi qarori qabul qilingan kundan boshlab uch ish kuni muddatida ekspert tashkilotini qaror bilan tanishtiradi.

Inspeksiya nazoratini o'tkazish natijasida ekspert tashkiloti faoliyatida favqulodda vaziyatlar hamda aholi hayoti va salomatligi uchun boshqa real xavf kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklar aniqlanganda, Akkreditatsiya komissiyasi akkreditatsiya attestati amal qilishini o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatga to'xtatib qo'yish haqidagi qarori qabul qilinadi.

Ekspert tashkiloti akkreditatsiya attestati soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda, Akkreditatsiya komissiyasi akkreditatsiya attestatini bekor qilish uchun sudga murojaat qilish haqidagi qarori qabul qilinadi.

Akkreditatsiya qilingan ekspert tashkiloti akkreditatsiya attestati amal qilish muddati tugashidan uch oy oldin qayta akkreditatsiyadan o'tish uchun vakolatli organga ariza topshirishi mumkin.

#### **4. Akkreditatsiya attestatiga o'zgartirishlar kiritish, qayta rasmiylashtirish va akkreditatsiya attestati dublikatini berish**

Ekspert tashkiloti akkreditatsiya attestatiga akkreditatsiya sohasi kengaytirilganda yoki qisqartirilganda o'zgartirishlar kiritiladi.

Akkreditatsiya attestati quyidagi hollarda qayta rasmiylashtiriladi:

- a) akkreditatsiya attestatini rasmiylashtirishda yo'l qo'yilgan xatoliklar aniqlanganda;
- b) akkreditatsiya attestatida ko'rsatilgan ekspert tashkiloti haqidagi ma'lumotlar o'zgarganda.

Yuqorida ko'rsatilgan holatlarda ekspert tashkiloti vakolatli organga tegishli xat topshiradi. Xatga asoslovchi hujjatlar ilova qilinadi. Vakolatli organ tegishli ma'lumotlarni o'rganib chiqadi va xat kelib tushgan kundan boshlab o'n ish kuni muddatida yangi akkreditatsiya attestatini rasmiylashtiradi. Akkreditatsiya attestati yaroqsiz holga kelganda yoki yo'qolganda uning dublikati beriladi.

Ekspert tashkiloti akkreditatsiya sohasini kengaytirish mazkur Qoida talablariga muvofiq vakolatli organga taqdim etilgan ariza asosida amalga oshiriladi. Ekspert tashkiloti arizaga faqat akkreditatsiya sohasig kengayishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilgan hujjatlarni ilova qiladi.

Ekspert tashkilotining akkreditatsiya sohasini qisqartirish qo'yidagi xollarda hollarda amalga oshiriladi:

- a) ekspert tashkiloti o'z akkreditatsiya sohasini qisqartirish to'g'risidagi xati asosida Akkreditatsiya komissiyasi akkreditatsiya sohasini qisqartirish haqidagi qarori qabul qilinganda;
- b) inspeksiya nazoratini o'tkazish natijasida Akkreditatsiya komissiyasi akkreditatsiya sohasini qisqartirish haqidagi qarori qabul qilingandi.

#### **8. Akkreditatsiya attestatini amal qilishini to'xtatib qo'yish, tugatish yoki akkreditatsiya attestatini bekor qilish**

Akkreditatsiya attestati amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:

- a) ekspert tashkiloti akkreditatsiya attestati amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida xat bilan murojaat qilganda;
- b) ekspert tashkiloti akkreditatsiya mezonlariga rioya qilmaganda;

v) ekspert tashkiloti nomuvofiqlik bayonnomasida ko'rsatilgan nomuvofiqliklarni bartaraf etmaganda.

Amal qilishi to'xtatilgan akkreditatsiya attestati amal qilishi Akkreditatsiya komissiyasi to'xtatilgan akkreditatsiya attestati kuchga kirishi haqidagi qarori asosida akkreditatsiya attestati aslini ekspert tashkilotiga qaytarish orqali qayta tiklanadi.

Akkreditatsiya attestati amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

a) ekspert tashkiloti akkreditatsiya attestati amal qilishini tugatish to'g'risida xat bilan murojaat qilganda;

b) yuridik shaxs tugatilganda;

v) ekspert tashkiloti o'zining akkreditatsiya sohasiga rioya qilmaganda;

g) ekspert tashkiloti akkreditatsiya attestati amal qilishini to'xtatib turishiga olib kelgan holatlarni Akkreditatsiya komissiyasi belgilagan muddatda bartaraf etmaganda;

d) akkreditatsiya attestatig amal qilish muddati tugaganda.

Akkreditatsiya attestati quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

a) ekspert tashkiloti akkreditatsiya attestatini bekor qilish to'g'risida xat bilan murojaat qilganda;

b) akkreditatsiya attestati soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Akkreditatsiya attestati amal qilishi to'xtatilganda, tugatilganda, akkreditatsiya attestati bekor qilinganda, qayta rasmiylashtirilganda, unga o'zgartirishlar kiritilganda yoki dublikat berilganda akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlari reyestriga tegishli yozuvlar kiritiladi.

Akkreditatsiya attestatining amal qilishi to'xtatilganda, tugatilganda yoki akkreditatsiya attestati bekor qilinganda ekspert tashkiloti quyidagilarni bajarishi shart:

a) akkreditatsiyadan o'tgan ekspert tashkiloti akkreditatsiyaga bog'liq bajaradigan ishlarning bajarilishini zudlik bilan to'xtatish;

b) o'z buyurtmachilarini bu haqda ogohlantirish;

v) akkreditatsiya attestatining asl nusxasini uch ish kuni muddatida vakolatli organga qaytarish

#### **1-ilova**

*Sanoat xavfsizligi sohasida ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish bo'yicha vakolatli organ rahbariga*

**Akkreditatsiyadan o'tish (qayta akkreditatsiyadan o'tish, akkreditatsiya sohasini kengaytirish) uchun  
ARIZA**

sanoat xavfsizligi

---

(buyurtmachi tashkilot nomi)

sohasidagi ekspert tashkiloti sifatida akkreditatsiya qilishingizni (qayta akkreditatsiya qilishingizni, akkreditatsiya sohasini kengaytirib berishingizni) so‘raydi.

Ekspert tashkiloti nomi	
Rahbarning F.I.O.	
Yuridik manzili	
Pochta manzili	
Telefon (kodi bilan) Faks e-mail	
Mas’ul vakilning F.I.O.	

Ilova qilinayotgan hujjatlar:

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
(mas’ul rahbar lavozimi)  
M.O’.

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

**1a-ilova**

### **Akkreditatsiya sohalari RO‘YXATI**

<b>T/r (kodlar)</b>	<b>Akkreditatsiya sohalari nomlari</b>
1.	Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatishga doir loyiha hujjatlarini sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o‘tkazish
1.1.	Ko‘mir, kon, ruda va noruda sanoati obyektlari:
1.2.	Neft va gaz sanoati obyektlari:
1.3.	Kimyo, neft-kimyo, neft va gazni qayta ishlash sanoati hamda portlash-yonish xavfi mavjud kimyoviy xavfli ishlab chiqarish obyektlari:
1.4.	Bosimi 0,07 MPa yoki suvning isitish harorati 115° S dan yuqori bo‘lgan jihozdan foydalaniladigan ishlab chiqarish obyektlari:
1.5.	Ko‘chmas asosga o‘rnatilgan yuk ko‘tarish mexanizmlari, eskalatorlar, po‘lat arqonli osma yo‘llar, funikulyorlardan foydalaniladigan ishlab chiqarish obyektlari:
1.6.	Tabiiy va suyultirilgan uglevodorod gazlaridan foydalanuvchi gaz ta’minoti (gaz taqsimlash, gaz iste’moli) obyektlari:
1.7.	Metallurgiya sanoati obyektlari:
1.8.	O‘simlik xomashyosini saqlash va qayta ishlash obyektlari:
1.9.	Foydali qazilma konlarini qidirish va izlash bilan bog‘liq geologiya-razvedka obyektlari (uglevodorod xomashyosi bo‘lmagan)
1.10.	Sanoatda qo‘llaniladigan portlovchi moddalarni ishlab chiqarish, sinash va saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlar
2.	Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida qo‘llaniladigan texnik qurilmalarni sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o‘tkazish
2.1.	Ko‘mir, kon, ruda va noruda sanoatidagi texnik qurilmalar:
2.2.	Neft va gaz sanoatidagi texnik qurilmalar:
2.3.	Kimyo, neft-kimyo, neft va gazni qayta ishlash sanoati hamda portlash-yonish xavfi mavjud va kimyoviy xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi texnik qurilmalar:
2.4.	Bosimi 0,07 MPa dan yuqori bo‘lgan yoki suvning harorati 115° S dan yuqori bo‘lgan sharoitda ishlaydigan texnik qurilmalar:

2.5.	Ko'chmas asosga o'rnatilgan yuk ko'tarish mexanizmlari, eskalatorlar, po'lat arqonli osma yo'llar, funikulyorlar:
2.6.	Tabiiy va suyultirilgan uglevodorod gazlaridan foydalanuvchi gaz ta'minoti (gaz taqsimlash, gaz iste'moli) obyektlarining texnik qurilmalari:
2.8.	O'simlik xomashyosini saqlash va qayta ishlash obyektlarining texnik qurilmalari:
2.9.	Foydali qazilma konlarini qidirish va izlash bilan bog'liq geologiya-razvedka obyektlaridagi texnik qurilmalar (uglevodorod xomashyosi bo'lmagan)
2.10.	Sanoatga mo'ljallangan portlovchi moddalarni ishlab chiqarish, sinash va saqlashda qo'llaniladigan texnik qurilmalar
3.	Xavfli ishlab chiqarish obyektidagi binolar va inshootlarni sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o'tkazish
3.1.	Ko'mir, kon-ruda va noruda sanoatlarida:
3.2.	Neft va gaz sanoati obyektlarida:
3.3.	Kimyo, neft-kimyo va neft va gazni qayta ishlash sanoati hamda portlash-yonish xavfi mavjud kimyoviy xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi bino va inshootlar
3.4.	Bosimi 0,07 MPa dan yuqori bo'lgan yoki suvning isish harorati 115° S dan yuqori bo'lgan qurilmalar joylashgan bino va inshootlar
3.5.	Ko'chmas asosga o'rnatilgan yuk ko'tarish mexanizmlari, eskalatorlar, po'lat arqonli osma yo'llar, funikulyorlardan foydalaniladigan ishlab chiqarish obyektlaridagi bino va inshootlar
3.6.	Tabiiy va suyultirilgan uglevodorod gazlaridan foydalanuvchi gaz ta'minoti (gaz taqsimlash, gaz iste'moli) obyektlaridagi bino va inshootlar
3.7.	Metallurgiya sanoati obyektlaridagi bino va inshootlar
3.8.	O'simlik xomashyosini saqlash va qayta ishlash obyektlaridagi bino va inshootlar
3.9.	Foydali qazilma konlarini qidirish va izlash bilan bog'liq geologiya-razvedka obyektlaridagi (uglevodorod xomashyosi bo'lmagan) bino va inshootlar
3.10.	Sanoatda qo'llaniladigan portlovchi moddalarni ishlab chiqarish, sinash va saqlash bilan bog'liq bo'lgan obyektlardagi bino va inshootlar
4.	Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi va xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o'tkazish
4.1.	Ko'mir, kon, ruda va noruda sanoati obyektlari:
4.2.	Neft va gaz sanoati obyektlari:
4.3.	Kimyo, neft-kimyo, neft va gazni qayta ishlash sanoati hamda portlash-yonish xavfi mavjud kimyoviy xavfli ishlab chiqarish obyektlari
4.4.	Bosimi 0,07 MPa dan yuqori yoki suvning harorati 115° S dan yuqori bo'lgan qurilmalardan foydalaniladigan ishlab chiqarish obyektlari
4.5.	Ko'chmas asosga o'rnatilgan yuk ko'tarish mexanizmlari, eskalatorlar, po'lat arqonli osma yo'llar, funikulyorlardan foydalaniladigan ishlab chiqarish obyektlari
4.6.	Tabiiy va suyultirilgan uglevodorod gazlaridan foydalanuvchi gaz ta'minoti (gaz taqsimlash, gaz iste'moli) obyektlari
4.7.	Metallurgiya sanoati obyektlari
4.8.	O'simlik xomashyosini saqlash va qayta ishlash obyektlari
4.9.	Foydali qazilma konlarini qidirish va izlash bilan bog'liq geologiya-razvedka obyektlari (uglevodorod xomashyosi bo'lmagan)
4.10.	Sanoatda qo'llaniladigan portlovchi moddalarni ishlab chiqarish, sinash va saqlash bilan bog'liq bo'lgan obyektlar

*Izoh: mazkur Ro'yxatda nazarda tutilgan tegishli akkreditatsiya sohasi bo'yicha akkreditatsiya attestatiga ega bo'lgan ekspert tashkiloti tomonidan akkreditatsiya attestatida ko'rsatilgan akkreditatsiya sohasi bo'yicha xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanayotgan*



(foydalanishni mo'ljallayotgan) tashkilot bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiyalash amalga oshirilishi va sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi ishlab chiqilishi mumkin.

**3-ilova**

### MAJBURIYAT VARAQASI

MYen \_\_\_\_\_

(famiyasi, ismi, otasining ismi)

\_\_\_\_\_  
(ish joyi)

\_\_\_\_\_  
(lavozimi)

baholashni o'tkazish talablariga rioya qilish, baholash natijasida olingan ma'lumotlarni boshqalarga oshkor etmaslik, shuningdek baholash ishlariga haqqoniy va xolis yondashish majburiyatini o'z zimmamga olaman.

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(sana)

**4-ilova**

### Nomuvofiqlik bayonnomasi

Sana: _____		Nomuvofiqlik bayonnomasi tartib raqami _____	
Talabi bajarilmagan (rioya etilmagan) normativ hujjat nomi va (yoki) belgisi		Talabi bajarilmagan (rioya etilmagan) normativ hujjatning tegishli bandi	
Mas'ul komissiya vakili _____ (F.I.O.)		Ekspert tashkiloti mas'ul vakili _____ (F.I.O., lavozimi)	
Nomuvofiqlik mazmuni: _____ (Mas'ul komissiya vakilining imzosi)			
Nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun o'tkazilgan tadbir: _____ (Ekspert tashkiloti mas'ul vakilining imzosi) _____ (sana)			
Nomuvofiqlik bartaraf etilganligini tekshirish natijalari: _____ (Mas'ul komissiya vakilining imzosi) _____ (sana)			

**5-ilova**

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT XAVFSIZLIGI DAVLAT QO'MITASI SANOAT XAVFSIZLIGI EKSPERTIZASI TIZIMI

joyiga borib baholash bo'yicha

\_\_\_\_\_  
(ekspert tashkiloti nomi)

20 \_\_\_\_ yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-son

**DALOLATNOMA**

(ekspert tashkiloti haqidagi asosiy ma'lumotlar)

(baholash o'tkazilgan joy (shahar, tuman)  
Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi raisining 20\_\_ yil "\_\_" \_\_\_\_ da \_\_-son  
buyrug'iga asosan:  
komissiya raisi \_\_\_\_\_ va  
(F.I.O., lavozimi)  
komissiya a'zolari \_\_\_\_\_ dan  
(F.I.O., lavozimi)  
iborat tarkibdagi komissiya tomonidan 20\_\_ yil "\_\_" \_\_\_\_ dan 20\_\_ yil "\_\_"  
\_\_\_\_ gacha bo'lgan muddatda

(ekspert tashkiloti nomi)  
baholash ishlari olib borildi.

Baholash jarayonida quyidagilar aniqlandi:

Komissiyatavsiyalari: \_\_\_\_\_

Xulosa: \_\_\_\_\_

Komissiya raisi

(imzo, F.I.O.)

Komissiya a'zolari

(imzo, F.I.O.)

Ekspert tashkiloti rahbari

(imzo, F.I.O.)

6-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SANOAT XAVFSIZLIGI DAVLAT QO'MITASI  
SANOAT XAVFSIZLIGI EKSPERTIZASI TIZIMI**

20\_\_ yil "\_\_" \_\_\_\_ da akkreditatsiya  
qilingan ekspert tashkilotlari reyestrda  
ET-\_\_\_\_-son bilan ro'yxatga olingan.  
Amal qilish muddati 20\_\_ yil  
"\_\_\_\_" \_\_\_\_ gacha

**AKKREDITATSIYA ATTESTATI**

Ushbu akkreditatsiya attestati

\_\_\_\_\_ning

(ekspert tashkilotning yuridik manzili va nomi)

sanoat xavfsizligi ekspertizasini amalga oshiradigan tashkilotlariga qo'yiladigan talablarga  
muvofigligini tasdiqlaydi.

Akkreditatsiya sohasi ushbu akkreditatsiya attestatining ajralmas qismi bo'lgan ilovada ko'rsatilgan.

Sanoat xavfsizligi

davlat qo'mitasi raisi

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(F.I.O.)

M.O'.

**7-ilova**

**ET-\_\_\_\_\_ -sonli Akkreditatsiya attestatiga**

**ILOVA**

\_\_\_\_ varaqdan \_\_\_\_ -varag'i

\_\_\_\_\_  
(ekspert tashkiloti nomi va yuridik manzili)

**AKKREDITATSIYA SOHASI**

T/r	Ish turlari, sanoat tarmog'i, ekspertiza obyektlari	Ish turlarini bajarish bo'yicha tegishli qonun hujjatlari va normativ texnik hujjatlar nomi va (yoki) belgisi
1	2	3

Vakolatli organ rahbari

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(F.I.O.)

**Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:**

1. Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish Qoidalar mazmun va mohiyati nimadan iborat?
2. Ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish qanday bosqichlarda olib boriladi?
3. Ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish uchun arizaga qanday xujjatlar ilova qilinadi?
4. Akkreditatsiya baholash komissiyasi vazifalari nimalardan iborat?
5. Akkreditatsiya baholash komissiyasi a'zolari nomuvofiqliklarni aniqlanganda qanday choralar ko'riladi?
6. Inspeksiya nazorati qanday maqsadlarda o'tkaziladi?
7. Akkreditatsiya komissiyasi baholash bo'yicha dalolatnoma qanday rasmiylashtiradi?
8. Akkreditatsiya attestatiga o'zgartirishlar kiritish, qayta rasmiylashtirish va akkreditatsiya attestati dublikatini berish tartibi qanday bajariladi?
9. Ekspert tashkilotining akkreditatsiya sohasini qisqartirish qanday amalga oshiriladi?
10. Akkreditatsiya attestatining amal qilishini to'xtatib qo'yish, tugatish yoki akkreditatsiya attestatini bekor qilish qanday bajariladi?

## **15-MA'RUZA. XAVFLI ISHLAB CHIKARISH OBEKTLARIDA ISHLAB CHIKARISH NAZORATINI TASHKIL ETISH VA AMALGA OSHIRISH QOIDALARI.**

### **O'quv reja:**

1. Sanoat xavfsizligi talablari
2. Ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish
3. Xavfli ishlab chiqarish obyektida sanoat xavfsizligi holati to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish
4. Ishlab chiqarish nazoratni tashkil etish to'g'risidagi ma'lumotlarni ma'lumotlarni taqdim etish

***Tayanch so'z va iboralar:** Sanoat xavfsizligi, xavfli obyektlar, ishlab chiqarish, Nizom, jismoniy va yuridik shaxslar, ishlab chiqarish nazorati, nazorat tizmi, avariya, noxush xodisalar, xodimlar, jarohatlanishlar.*

### **1. Sanoat xavfsizligi talablari**

“Xavfli ishlab chiqarish obyektida sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi Nizom xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot rahbari «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9 va 18-moddalari hamda ushbu Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqarish nazoratini ta'minlaydi, shuningdek, ishlab chiqarish obyektining ixtisosligini hisobga olgan holda ishlab chiqarish nazorati to'g'risidagi lokal hujjat ishlab chiqilishini tashkil etadi.

Xodimlari soni yigirma kishidan kam bo'lgan xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilotlar xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi hamda shtatida ishlab chiqarish nazorati xizmati mavjud bo'lgan tashkilotlar bilan ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish bo'yicha shartnomalar tuzishi mumkin.

Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda, xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot rahbari xavfli ishlab chiqarish obyektida xodimlari hayoti va sog'lig'ini himoya qilish choralari ta'minlanishi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot rahbari tomonidan ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish vakolati tashkilotning quyidagi xodimlaridan biriga yuklanadi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot rahbarining o‘rinbosarlaridan biriga — agar xavfli ishlab chiqarish obyektida band bo‘lgan xodimlar soni 150 nafardan kam bo‘lsa;

maxsus tayinlangan xodimga — agar xavfli ishlab chiqarish obyektida band bo‘lgan xodimlar soni 150 nafardan 500 nafargacha bo‘lsa;

ishlab chiqarish nazorati xizmati rahbariga — agar xavfli ishlab chiqarish obyektida band bo‘lgan xodimlar soni 500 nafardan 5000 nafargacha bo‘lsa;

bo‘lim boshlig‘iga — texnik rahbar o‘rinbosariga — agar xavfli ishlab chiqarish obyektida band bo‘lgan xodimlar soni 5 000 nafardan 10 000 nafargacha bo‘lsa;

departament (bo‘lim) rahbariga — korxonada texnik rahbari o‘rinbosariga — agar xavfli ishlab chiqarish obyektida band bo‘lgan xodimlar soni 10 000 nafar va undan ko‘p bo‘lsa.

Ishlab chiqarish nazorati xizmati (bo‘limi, departamenti, byurosi) xodimlariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- ishlab chiqarish obyektiga ixtisosligiga muvofiq bo‘lgan oliy texnik ma‘lumotga ega bo‘lish;
- tegishli tarmoqdagi xavfli ishlab chiqarish obyektida kamida 3 yil ish stajiga ega bo‘lish;
- sanoat xavfsizligi bo‘yicha o‘qiganligi va attestatsiyadan o‘tganligini tasdiqlovchi sertifikat yoki guvohnomaga ega bo‘lish.

Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan xodim (xizmat) quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- xavfli ishlab chiqarish obyektida sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta‘minlaydi;
- tegishli xizmatlar tomonidan zarur sinov va ko‘riklar, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obyektida qo‘llaniladigan texnika qurilmalari, binolar va inshootlar diagnostikasi o‘z vaqtida o‘tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

-xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya va noxush hodisalar oldini olishga, shuningdek, ehtimol tutilgan avariya va noxush hodisalar kengayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda ularning oqibatlarini tugatishga shaylikni ta‘minlaydi;

-xavfli ishlab chiqarish obyektida sanoat xavfsizligi xolatini takomillashtirishga hamda baxtsiz hodisalar, avariya va noxush hodisalar oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

-texnologik intizomga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan xodim (xizmat) quyidagi huquqlarga ega:

- kunning istalgan vaqtida xavfli ishlab chiqarish obyektiga to‘sqinliksiz kirish;
- xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilotda sanoat xavfsizligi holatini baholash uchun zarur bo‘lgan hujjatlar bilan tanishish;

-sanoat xavfsizligi deklaratsiyalarini ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqishda ishtirok etish.

Ishlab chiqarish nazorati amalga oshirilishiga mas'ul bo'lgan xodim (xizmat) quyidagi majburiyatlarga ega:

a) xavfli ishlab chiqarish obyekti xodimlari tomonidan sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatilishini ta'minlash;

b) har yili:

-xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot bo'linmalarida ishlab chiqarish nazoratini ta'minlash yuzasidan ishlarni amalga oshirish bo'yicha ish rejani;

-sanoat xavfsizligi holatini tekshirish hamda ish joylarini attestatsiyadan o'tkazish natijalari yuzasidan sanoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

v) sanoat xavfsizligi holati yuzasidan kompleks va maqsadli tekshiruvlar o'tkazish, ish joylaridagi xavfli omillarni aniqlash;

g) xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya va noxush hodisalar kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik hamda ularning oqibatlarini tugatish bo'yicha chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilishini tashkil etish;

d) xavfli ishlab chiqarish obyektida sanoat xavfsizligi ekspertizasi o'tkazilishi bo'yicha ishlarni tashkil etish;

ye) xavfli ishlab chiqarish obyekti da avariya va noxush hodisalar, shuningdek, baxtsiz xodisalar yuzaga kelishining sabablarini tahlil qilish hamda ularni hisobga olish hujjatlari saqlanishini ta'minlash;

j) sanoat xavfsizligi sohasida xodimlarning tayyorgarligi va attestatsiyadan o'tkazilishini tashkil etish;

z) xavfli ishlab chiqarish obyekti da yangi texnologiyalar va uskunalarni joriy etilishida ishtirok etish;

i) normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan sanoat xavfsizligi talablaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni xavfli ishlab chiqarish obyekti xodimlariga yetkazish;

k) xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot raxbariga:

-sanoat xavfsizligini ta'minlash va takomillashtirish yuzasidan tadbirlar o'tkazish;

-sanoat xavfsizligi talablari buzilishini bartaraf etish;

-tegishli malakaga ega bo'lmagan, sanoat xavfsizligi bo'yicha o'z vaqtida tayyorgarlikdan va attestatsiyadan o'tmagan shaxslarni xavfli ishlab chiqarish obyektida ishlashdan chetlashtirish;

-sanoat xavfsizligi talablarini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritish.

Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodim (xizmat) quyidagilar ustidan nazoratni ta'minlaydi:

-sanoat xavfsizligi sohasida faoliyat turlari bo'yicha litsenziyalar, ruxsat beruvchi hujjatlar shartlari bajarilishi;

-sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi yuzasidan xavfli ishlab chiqarish obyektining qurilishi, rekonstruksiya qilinishi, kapital ta'mirlanishi, texnik jihatdan qayta jihozlanishi, konservatsiyalanishi va tugatilishi, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obyektida foydalaniladigan texnik qurilmalar ta'mirlanishi;

-avariyalar va noxush hodisalarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarining bartaraf etilishi;

-tegishli xizmatlar tomonidan xavfli ishlab chiqarish obyektida qo'llaniladigan texnik qurilmalar zarur sinov va texnik ko'rikdan o'z vaqtida o'tkazilishi, nazorat o'lchov vositalari ta'mirlanishi va qiyoslovdan o'tkazilishi;

-qo'llaniladigan texnika qurilmalariga sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqlik sertifikatining mavjudligi;

-sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tarkibiy bo'linmalari yozma ko'rsatmalarining bajarilishi.

## **2. Ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish**

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilotda sanoat xavfsizligini ta'minlash barcha elementlari va jihatlari ishlab chiqarish nazorati xizmati tomonidan doimiy va muntazam o'tkaziladigan tekshiruvlar predmeti xisoblanadi.

Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini tekshirish faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tegishli bo'limlar va xizmatlarni jalb etgan holda ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish bo'yicha ish rejasiga muvofiq davriy maqsadli va kompleks tekshiruvlar yo'li bilan rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini tekshirish rejasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-tekshirilishi zarur bo'lgan faoliyat turlari va sohalari;

-malakasi va tajribasi hisobga olingan holda tekshiruv o'tkazish uchun mas'ul xodimlar ro'yxati;

-tekshiruv o'tkazish sabablari.

- xulosalar va tavsiyalarni taqdim etish tartib.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot tarkibiy bo'linmalari tekshirish quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

Xavfli ishlab chiqarish obyektining tashkiliy tuzilmasi;

-ma'muriy va ish tartib-taomillari;

-moddiy va inson resurslari, uskunalari;

-ish uchastkalari, operatsiyalar va ishlab chiqarish jarayonlari;

-hujjatlar, hisobotlar, ishlab chiqarish nazorati bilan bog'liq ma'lumotlarni ro'yxatga olish va saqlash tartibi.

Sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi bo'yicha tekshiruv natijalari, ishlab chiqarish nazorati xizmati xulosasi va tavsiyalari xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilot rahbariyatiga tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnoma shaklida ko'rib chiqish uchun taqdim etaladi.

Tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnoma ishlab chiqarish nazorati xizmati tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi va tekshirilgan ish joylari uchun mas'ul rahbarlarga yetkazilishi kerak.

Zarur hollarda tashkilot tomonidan tekshiruv natijalari yuzasidan aniqlangan sanoat xavfsizligi talablari buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnomada:

-sanoat xavfsizligi talablari buzilishi, ularga nomuvofiqlar yoki ulardan chetga chiqishning qisqacha tavsifi;

-aniq normalar va qoidalar buzilishiga havola;

-sanoat xavfsizligi talablarining buzilishi, ularga nomuvofiqlilar yoki ulardan chetga chiqishlarni bartaraf etish choralari va ularni bajarish muddatlari ko'rsatiladi.

Tekshiruv natijalari xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot mutaxassislari va rahbariyati tomonidan ko'rib chiqiladi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot rahbariyati sanoat xavfsizligi talablari buzilishi, ularga nomuvofiqliklar yoki ulardan chetga chiqishlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak.

Chora-tadbirlar sanoat xavfsizligi talablaridan chetga chiqish oldini olishni ta'minlovchi boshqaruv qarorlarini qabul qilishni, sanoat xavfsizligi talablari buzilishi, ularga nomuvofiqlilar yoki ulardan chetga chiqishlarni bartaraf etish uchun mas'ul shaxslarni belgilashni hamda ularni bartaraf etish muddatlarini o'z ichiga oladi.

Chora-tadbirlar amalga oshirilgandan keyin ishlab chiqarish nazorati xizmatiga qoida buzilishlari bartaraf etilganligi to'g'risida hisobot taqdim etiladi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot rahbariyati ishlab chiqarish nazorati natijalari mustaqil tahlil qilinishi hamda sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi xolisona baholanishini ta'minlashi kerak. Bunday tahlil va baholash xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot rahbariyati tarkibidagi shaxslar yoki foydalanuvchi tashkilot



rahbariyati tomonidan jalb etilgan vakolatli mustaqil mutaxassislar (ekspertlar) tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

O‘tkazilgan tahlil:

-xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilotning barcha tarkibiy bo‘linmalari (hizmatlari) tomonidan sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini tekshirish natijalarini;

-sanoat xavfsizligining umumiy boshqaruvi samaradorligini baholashni;

-ishlab chiqarish faoliyati va ishlarning tabiiy, texnogen va ijtimoiy shart-sharoitlardagi o‘zgarishlarga muvofiq ishlab chiqarish nazorati samaradorligini ta’minlash bo‘yicha takliflarni o‘z ichiga oladi.

### **3. Xavfli ishlab chiqarish obyektida sanoat xavfsizligi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish**

Ishlab chiqarish nazorati xizmati (xodimi) xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot tomonidan belgilangan tartibda identifikatsiyalash, to‘plash, ro‘yxatdan o‘tkazish, saqlash, kiritish va ro‘yxatdan chiqarishni amalga oshiradi yoki tashkil etadi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yuritilishi sanoat xavfsizligi talablari bajarilishini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilotda qo‘llaniladigan texnik qurilmalar, asbob-uskunalar va boshqa mahsulotlarning sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligi to‘g‘risidagi axborot ko‘rsatilgan ma’lumotlarning tarkibiy elementi bo‘lishi kerak.

Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi holati haqidagi barcha ma’lumotlar xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilotda saqlanadi. Bunda ularning yaroqsiz holatga kelishi va yo‘qotilishining oldini oluvchi shart-sharoitlar ta’minlanishi kerak.

Xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni saqlash muddatlari xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot rahbari buyrug‘i bilan belgilanadi.

Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining tarkibiy bo‘linmalari xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilotlardan xavfli ishlab chiqarish obyektida sanoat xavfsizligi holati hamda ishlab chiqarish nazorati amalga oshirilishi to‘g‘risida ro‘yxatdan o‘tkazilgan ma’lumotlarni so‘rab olishga haqlidir.

### **4. Ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish**

Xavfli ishlab chiqarish obyekti dan foydalanuvchi tashkilotlar yil yakunlari bo'yicha, shuningdek so'rovga ko'ra ishlab chiqarish nazorati tashkil etilishi to'g'risidagi axborotni qonun hujjatlariga muvofiq Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining tarkibiy bo'linmalariga va boshqa vakolatli organlarga taqdim etadi. Ishlab chiqarish nazorati tashkil etilishi to'g'risidagi axborot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

a) sanoat xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil etish tartibi;

b) ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodimning familiyasi, uning lavozimi, ma'lumoti, mutaxassislik bo'yicha ish staji, sanoat xavfsizligi bo'yicha oxirgi attestatsiya sanasi;

v) asosiy potensial xavf manbalari, ehtimol tutilgan avariya oqibatlarining tavsifi bilan xavfli ishlab chiqarish obyektlar soni;

g) sanoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish hamda tekshiruv natijalari, shuningdek, qoida buzilishlarini bartaraf etish va Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tarkibiy bo'linmalarining yozma ko'rsatmalarini bajarish to'g'risidagi ma'lumotlar;

d) xavfli ishlab chiqarish obyekti da avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomasi nusxasi;

ye) xavfli ishlab chiqarish obyektida qo'llaniladigan va majburiy sertifikatlanadigan asbob-uskunalar holati;

j) xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot xodimlarining avariya vaqtidagi harakatlarga shayligini baholash;

z) xavfli ishlab chiqarish obyektida sodir bo'lgan noxush hodisalar va avariya tavsifi, ularning yuz berishi sabablari va ko'rilgan choralar tahlili;

i) xavfli ishlab chiqarish obyekti rahbarlari, mutaxassislari va boshqa xodimlarini sanoat xavfsizligi bo'yicha tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish rejasini.

#### **Mavzuni uzlashtirish uchun savollar:**

1. Sanoat xavfsizligi talablariga nimalar kiradi?
2. Avariya va xalokatlar xodisasiga nimalar kiradi?
3. Ishlab chiqarish nazoratini tashkil etish qanday amalga oshiriladi?
4. Ishlab chiqarish nazorat qilish kimlarning vakolat doirasiga kiradi?
5. Xavfli ishlab chiqarish obyektida sanoat xavfsizligi holati to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish qanday amalga oshiriladi?
6. Ishlab chiqarish nazorati tashkil etilishi to'g'risidagi axborot qanday taqdim etiladi?
7. Xavfli ishlab chiqarish obyektida tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnoma qanday tartibda tuziladi?:
8. Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodim ustidan nazorat qanday amalga oshiriladi?

## **16-MA'RUZA. XAVFLI ISHLAB CHIKARISH OBEKTIDA AVARIYA YUZ BERGAN TAKDIRDA BOSHQA SHAXSLARNING XAYOTI, SOGLIGI VA MOL-MULKIGA XAMDA ATROF MUXITGA ZARAR YETKAZGANLIK UCHUN FUKAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUGURTA KILISH TARTIBI**

### **O'quv rejasi:**

1. Fukarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish obyektlari
2. Fukarolik javobgarligini majburiy sug'urta summasi va mukofoti
3. Fukarolik javobgarligini majburiy sug'urta shartnomasi
4. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi hamda boshqa shaxslar huquq va majburiyatlari
5. Fukarolik javobgarligini majburiy sug'urta tovonini tulash tartibi
6. Fukarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bilan bog'liq izolar ko'rib chiqish tartibi

*Tayanch so'z va iboralar:* Fukarolik javobgarligini majburiy sug'urta, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasi, sug'urta summasi, sug'urta tavon puli, xavfli ishlab chiqarish obyekti, mol- mulki, Nizom

### **1. Majburiy sug'urta qilish obyektlari**

Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tartibi to'g'risidagi Nizom «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida», «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq faoliyati xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lganda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazish xavfi bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar, xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoya qilish shartlarini belgilaydi.

*fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi* — ushbu Nizomda nazarda tutilgan sug'urta holati yuz berganda sug'urtalovchi shartnomada belgilangan to'lovni (sug'urta mukofotini) jabrlanganga ushbu sug'urta holati oqibatida yetkazilgan zararni sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta summasi miqdorida to'lash majburiyatini oladigan sug'urta shartnomasi;

Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan berilgan litsenziyaga muvofiq fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishga haqli bo'lgan sug'urta tashkilotlari sug'urtalovchilar bo'lishi mumkin.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar sug'urtalanuvchilar bo'lishi mumkin.

Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun da'vo bildirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar (jismoniy shaxs, yuridik shaxs yoki davlat) boshqa shaxslar hisoblanadilar.

Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof-muhitga yetkazilgan zararni foydalanuvchi-sug'urta qilinuvchi tomonidan qoplash bo'yicha fuqarolik javobgarligi paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan sug'urtalanuvchining mulkiy manfaatlarini majburiy sug'urta qilish obyektlari hisoblanadi.

Sug'urtalanuvchi quyidagilar oqibatida paydo bo'lgan fuqarolik javobgarligi sug'urta holati deb e'tirof etilmaydi:

a) yadroviy portlash, radiatsiya, radioaktiv zararlanish, agar ular ushbu ishlab chiqarish obyektidan foydalanish bilan bog'liq bo'lmasa;

b) harbiy harakatlar, shuningdek manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlar, qurolli tuzilmalar yoki terrorchilarning harakatlari;

v) ommaviy tartibsizliklar, boshqa fuqarolar bo'ysunmasligining jamoaviy holatlari, ish tashlashlar;

g) yengib bo'lmaydigan kuchlar holatlarining ta'siri: tabiiy ofatlar, stixiyali tushdagi tabiat hodisalari;

d) xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan holatlarning paydo bo'lishi;

ye) qonunchilikda va shartnomada nazarda tutilgan boshqa holatlar.

## **2. Fuqarolik javobgarligini majburiy summasi va mukofoti**

Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda boshqa shaxslar hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazilganligi uchun xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta qilishning eng kam miqdori xavfli ishlab chiqarish obyektining tegishli turi uchun ushbu Nizomga ilovaga muvofiq belgilanadi.

Sug'ura mukofoti sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan tarif stavkalaridan va shartnomada belgilangan sug'urta summasi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Tarif stavkalari ishlab chiqarish sharoitlari va hajmlarini, xavfli ishlab chiqarish obyekti joylashgan joyni, undan foydalanish boshqa omillarini, obyektida xavfli moddalarni muayyan hajmlarda olish, undan foydalanish, uni qayta ishlash va saqlashni, sug'urta tavakkalchiligi darajasini va sug'urta obyekti boshqa shart-sharoitlarini hisobga olgan holda sug'urtalovchi tomonidan belgilanadi.

Sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini bir yo'la yoki teng qismlar bilan har chorakda to'laydi.

### **3. Fukarolik javobgarligini majburiy sug'urta shartnomasi**

Sug'urta shartnomasi sug'urtalanuvchi sug'urtalovchi tomonidan belgilangan shaklga muvofiq rasmiylashtirilgan yozma arizasi asosida rasmiylashtiriladi. Sug'urtalanuvchi arizada sug'urtalovchi tomonidan qo'yilgan masalalarga muvofiq aniq va to'liq ma'lumotlarni ko'rsatishi shart.

Sug'urta to'g'risidagi arizaga sug'urtalanuvchi, jumladan, sanoat xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi talablaridan, sug'urtalanuvchi tomonidan foydalaniladigan xavfli ishlab chiqarish obyektig identifikatsiyasidan iborat bo'lgan sanoat xavfsizligi ekspertizasi xulosasini ilova qiladi.

### **4. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi hamda boshqa shaxslar huquq va majburiyatlari**

Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

a) sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urta tavakkalchiligi darajasini aniqlash maqsadida o'z hisobidan sug'urta obyektining mustaqil ekspertizasini amalga oshirish;

b) shartnoma tuzishda va sug'urta shartnomasi amal qiladigan davrda sug'urta tavakkalchiligini baholash;

v) yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash maqsadida qo'shimcha tekshirishlar o'tkazish;

g) vakolatli organlardan zarar yetkazilganligi sababli avariya texnik jihatdan tekshirish materiallarini, axborot va hujjatlarni, tibbiy xulosalarni, yo'qotilgan mol-mulk qiymati, amalga oshirilgan ishlar qiymati to'g'risida fikrga ega bo'lish imkonini beradigan schyotlarni, shuningdek boshqa zarur materiallarni so'rash va olish;

d) sug'urtalanuvchi tomonidan taqdim etilgan axborotlarni tekshirish, sug'urta shartnomasi talablari va shartlarining sug'urtalanuvchi tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

ye) sug'urtalanuvchidan sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini talab qilish.

Sug'urtalovchi quyidagilarga majbur:

a) sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta hodisasi boshlanishi tavakkalchiligini kamaytirish tadbirlari amalga oshirilgan taqdirda, sug'urta hodisasi boshlanishi tavakkalchiligini kamaytirish darajasini hisobga olgan holda sug'urtalanuvchi arizasi bo'yicha sug'urta shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish;

b) zararlarni kamaytirish maqsadida sug'urtalanuvchi sug'urtalovchi tomonidan qoplanishi kerak bo'lgan xarajatlarini to'lash, agar bunday xarajatlar sug'urtalovchi ko'rsatmalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bo'lsa yoki amalga oshirilgan bo'lsa. Ko'rsatib o'tilgan xarajatlarni to'lash sug'urtalovchi tomonidan u tegishli xarajatlar to'g'risidagi dalolatnomani olgan sanadan boshlab bir oy mobaynida, biroq sug'urta to'lovi to'langandan keyin amalga oshiriladi. Bunday xarajatlar, hatto agar tegishli choralar muvaffaqiyatsiz bo'lganda ham va sug'urta shartnomasi bo'yicha boshqa zararlarni to'lash bilan birga ular shartnomada belgilangan sug'urta summasidan ortiq (biroq 20 foizdan ortiq emas) bo'lganda ham to'lanadi;

v) sug'urtalanuvchi mulkiy ahvoli, xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanishning holati, shartlari va xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda sug'urta shartnomasini tuzish bilan bog'liq ravishda ma'lum bo'lib qolgan boshqa maxfiy axborotni oshkor qilmaslik, qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Sug'urtalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

a) sug'urta holatini tekshirishda qatnashish;

b) sug'urta holatlarini tekshirish natijalari bo'yicha qaror yuzasidan shikoyat qilish;

v) fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlari to'g'risida bepul axborot olish;

g) fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish masalalari bo'yicha o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish.

Sug'urtalanuvchi quyidagilarga majbur:

a) sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasini tuzishda, xabar qilingan o'ziga ma'lum bo'lgan jiddiy o'zgarishlar va holatlar to'g'risida, agar ushbu o'zgarishlar sug'urta tavakkalchiligi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sug'urtalovchiga darhol xabar qilish;

b) sug'urtalovchiga xavfli ishlab chiqarish obyektida sodir bo'lgan har qanday avariya to'g'risida, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan sug'urtalanuvchiga o'zlari hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof muhitga yetkazilgan zararni to'lash to'g'risida da'vo bildirishga olib kelishi mumkin bo'lgan avariya har qanday oqibatlarini to'g'risida, boshqa shaxslar zararni to'latish to'g'risidagi barcha e'tirozlari va da'volari haqida xabar qilish, avariya holati va sabablarini tavsiflovchi barcha hujjatlarni taqdim etish;

v) tegishli sud qarori olingan kundan boshlab 3 ish kuni mobaynida sug'urtalovchiga sud qarori bilan belgilangan xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lganda yetkazilgan zararni to'lash majburiyati to'g'risida xabar qilish;

g) avariya sodir bo'lganda, bo'lishi mumkin bo'lgan zararlarni kamaytirish uchun vujudga kelgan holatlarda oqilona va qulay choralar ko'rish. Sug'urtalanuvchi bunday choralarni

ko'rayotganda, agar ular sug'urtalanuvchiga xabar qilingan bo'lsa, sug'urtalovchining ko'rsatmalariga amal qilishi kerak;

d) sug'urtalovchi oldindan roziligini olmasdan boshqa shaxslar tomonidan bildirilgan talablarni bajarish bo'yicha biron-bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaslik.

Sug'urta shartnomasida tomonlar kelishuviga ko'ra qonunchilikka muvofiq tomonlar boshqa huquq va majburiyatlari nazarda tutilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi tomonidan ushbu Nizom qoidalari buzilgan taqdirda ular qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

Boshqa shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

a) fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish masalalari bo'yicha sug'urta to'lovi olish;

b) sug'urta hodisasini tekshirishda qatnashish;

v) sug'urta hodisalarini tekshirish natijalari bo'yicha qaror yuzasidan shikoyat qilish;

g) fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlari to'g'risida bepul axborot olish;

d) fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish masalalari bo'yicha o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish.

21. Boshqa shaxslar quyidagilarga majbur:

a) maxsus organlar tomonidan berilgan xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya oqibatida zarar ko'rilganligi va uning miqdorini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni taqdim etish;

b) sug'urtalovchiga uning tomonidan boshlangan sug'urta hodisasini mustaqil ekspertizadan o'tkazishda ko'maklashish.

## **5. Fukarolik javobgarligini majburiy sug'urta tovonini tulash tartibi**

Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda sug'urtalanuvchi sug'urtalovchini avariya sodir bo'lishi natijasida:

a) boshqa shaxslar hayoti va sog'lig'iga;

b) boshqa shaxslar mol-mulkiga va atrof muhitga zarar yetkazilganda, xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya sodir bo'lgan vaqtdan boshlab 3 ish kuni mobaynida bu to'g'rida yozma ravishda xabardor qiladi.

Sug'urta qoplovini to'lash miqdori sug'urtalovchi tomonidan avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish dalolatnomasi, sud qarorlari va sug'urta hodisasi boshlanish sabablari va holatlari, shu jumladan boshqa shaxslarga yetkazilgan zarar miqdori ko'rsatilgan boshqa materiallar asosida belgilanadi.

Sug'urta tovonini to'lash tomonlar imzolagan va sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar asosida tuzilgan sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma asosida amalga oshiriladi

Sug'urta tovonini to'lash sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan belgilangan sug'urta puli doirasida amalga oshiriladi.

Agar bitta sug'urta shartnomasi bo'yicha ularga nisbatan turlicha sug'urta puli belgilangan bir necha xavfli ishlab chiqarish obyektlari sug'urta qilingan bo'lsa, u holda muayyan sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta tovonini to'lash avariya sodir bo'lgan xavfli ishlab chiqarish obyekti bo'yicha belgilangan sug'urta puli doirasida amalga oshiriladi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagilar qoplanmaydi:

a) ma'naviy zarar;

b) sug'urtalanuvchi bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan shaxslarga, ular O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga binoan shartnoma (kontrakt)ga muvofiq mehnat majburiyatlarini bajarayotganda yetkazilgan zarar;

v) sug'urtalanuvchi mulkiy huquqqa, xo'jalik yurituv huquqiga yoki tezkor boshqarish huquqiga yoxud boshqacha qonuniy asosda unga tegishli bo'lgan mol-mulkka yetkazilgan zarar;

g) sug'urtalanuvchining neustoyka (jarima, penya) to'lash, uning kafolatli va shunga o'xshash majburiyatlarni bajarishi, shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi bilan bog'liq holda ko'rgan zararlari;

d) yo'qotilgan foyda.

Sug'urta tovonini bevosita zarar ko'rganga to'lanadi. Ushbu Nizomda nazarda tutilgan xarajatlar sug'urtalanuvchiga to'lanadi.

Sug'urta tovonini to'lash sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

Sud qarori yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilingan taqdirda sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi masalani hal etishni, agar dastlabki qaror bo'yicha ijobiy yoki salbiy xulosa chiqarish mumkin bo'lmasa, sudning uzil-kesil qarori qabul qilinadigan vaqtgacha kechiktirishi mumkin.

Yetkazilgan zarar shuningdek boshqa shaxslar tomonidan qoplanadigan hollarda sug'urtalovchi faqat sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta tovonini va boshqa shaxslar tomonidan qoplanadigan pul o'rtasidagi tafovutni to'laydi. Sug'urtalanuvchi sug'urtalovchini zararni jabrlanganga qoplash uchun boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirilgan — o'ziga ma'lum bo'lgan to'lovlar to'g'risida xabardor qilishi shart.

Sug'urtalanuvchi sud qarorini ijro etish asosida unga nisbatan sug'urta shartnomasi tuzilgan xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanish natijasida yetkazilgan zararni qoplagan taqdirda sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta tovonini to'lashni u amalga oshirgan zarar



to'voni doirasida, lekin sug'urta shartnomasi bo'yicha belgilangan sug'urta summasidan ko'p bo'lmagan miqdorda amalga oshiradi.

Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish huquqi qonunchilik va shartnoma bilan belgilanadi. Sug'urtalanuvchi zararni to'lash yuzasidan talab qilish huquqining sug'urta tovonini to'lagan sug'urtalovchiga o'tishi qonunchilik va shartnoma bilan tartibga solinadi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha paydo bo'ladigan nizolar sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Nizoli masalalar bo'yicha kelishuvga erishish mumkin bo'lmagan taqdirda ularni hal etish qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy sudga ko'rib chiqish uchun beriladi.

**1-ilova**

**Fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta summalarining eng kam miqdorlari**

<b>Xavfli ishlab chiqarish obyektining tipi</b>	<b>Sug'urta pulining eng kam miqdori (bazaviy hisoblash miqdorlarida)</b>
Birinchi	250000 (ikki yuz ellik ming)
Ikkinchi	50000 (ellik ming)
Uchinchi	10000 (o'n ming)

Xavfli ishlab chiqarish obyektlari uchun sug'urta puli eng kam miqdorlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida sug'urta shartnomasi tuzilgan kunda belgilangan bazaviy hisoblash miqdorlari asosida hisoblab chiqariladi.

**Mavzuni uzlashtirish uchun savollar:**

1. Fuqarolik majburiy sug'urta qilish tartibi to'g'risida Nizomi mazmun va mohiyati nimalardan iborat?
2. Majburiy sug'urta qilish obyektlariga nimalar kiradi?
3. Sug'urta summasi qanday belgilanadi?
4. Sug'urta mukofoti qanday belgilanadi?
5. Sug'urta shartnomasi qanday tuziladi?
6. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
7. Boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
8. Sug'urta to'voni (sug'urta puli)ni qanday tartibda to'lanadi?
9. Nizolar qanday tartibda ko'rib chiqadi

**17- MA'RUZA. SANOAT OBEKTLARIDA YONG'IN XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH**

**O'quv rejasi:**

1. Yong'in xavfsizligi bo'yicha umumiy ma'lumotlar

2. Sanoat korxonalarida yong'in va portlash sabablari
3. Ishlab chiqarishni yonish-portlash va yong'in xavfliligi bo'yicha kategoriyalari
4. Bino va inshootlarning yong'inga chidamliligi va uni oshirish yo'llari
5. O't o'chirgichlar, o't o'chirish qurilmalari va mashinalari
6. Yong'in muhofazasini tashkil etish va yong'inni o'chirish

**Tayanch so'z va iboralar-** yong'in, alanga, portlash, o't uchirgichlar, yong'in xavfsizligi, ko'pik, fizikaviy- kimyoviy jarayonlar, bino va inshootlar, kategoriya, daraja, obyekt, yonuvchi moddlar, bino va inshootlar.

## 1. Yong'in xavfsizligi bo'yicha umumiy ma'lumotlar

*Yong'in* – bu maxsus manbadan tashqarida sodir bo'ladigan va katta material zarar hamda talofatlar keltirib chiqaradigan nazoratsiz yonish jarayonidir.

*Yonish* – murakkab fizik-kimyoviy jarayon bo'lib, yonuvchi modda yoki material bilan havo tarkibidagi kislorod o'zaro reaksiyasi ta'sirida yuzaga keladi. Yonish sodir bo'lishi uchun albatta, yonuvchi material, kislorod va yonish manbasi bo'lishi lozim. Agar havo tarkibida kislorod miqdori 14% dan kam bo'lsa, yonish jarayoni susayadi, kislorod miqdori 10% bo'lganda esa tutash, burqisish yuzaga keladi. Kislorod miqdori 8% bo'lganda esa tutash ham to'xtaydi.

*Yong'in xavfsizligi* -deganda, belgilangan meyorlar va talablar asosida obyektida yong'in sodir bo'lish xavfi hamda uning xavfli va zararli omillarini inson hayotiga ta'siri cheklangan, obyektidagi materiallar to'liq himoyalangan holati tushuniladi.

Yong'in xavfli va zararli omillariga asosan quyidagilarni kiritishimiz mumkin: ochiq alanga, atrof-muhit va yong'inda qolgan buyumlar yuqori harorati, yonish vaqtida hosil bo'ladigan turli xil zaharli gaz va bug'lar, tutunlar, kislorod kam konsentratsiyada bo'lishi, qurilish konstruksiyalari va materiallar qulab tushayotgan qismlari, yong'in vaqtida sodir bo'ladigan portlash, portlashdagi to'liq zarbasi, portlash ta'sirida uchib ketgan materiallar hamda zararli moddalar va boshqlar.

Yuqorida keltirilgan omillar xavfilik darajasi birinchi navbatda yong'in davomiylik vaqtiga bog'liq bo'ladi va u quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$T_c = N/V \quad (1)$$

bunda.  $N$  – yonuvchi moddalar miqdori,  $\text{kg}/\text{m}^3$ ;  $V$  – moddalar yonish tezligi,  $\text{kg}/\text{m}^3$  soat.

Agar binoda turli xil qattiq va suyuq materiallar hamda moddalar mavjud bo'lsa, yong'in davomiylik vaqtini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$T = \frac{S_r}{6S_0} \left( \frac{g_1}{n_1} + \frac{g_2}{n_2} + \dots + \frac{g_m}{n_m} \right) \quad (2)$$

bunda,  $g_1, g_2 \dots g_m$  – turli xil yonuvchi mahsulotlar miqdori,  $\text{kg}/\text{m}^2$ ;  $S_r$  – bino yuzasi,  $\text{m}^2$ .  $S_0$  – binodagi derazalar yuzasi,  $\text{m}^2$ ;  $6$  – bino yuzasi bino derazalari yuzasiga nisbati,  $S_x/S_0=4\dots 10$ ;  $n_1, n_2, \dots, n_m$  – modda va materiallar yonish tezligini hisobga olish koeffitsiyenti,  $\text{kg}/\text{m}^2$ soat.

Ushbu koeffitsiyent benzin uchun - 15; rezina, orgsteklo uchun - 35; avtomobil shinasi uchun - 40; yog'och materiallar uchun- 65 ga teng deb qabul qilinadi.

Yong'in xavfsizligi tizimiga qo'yilgan talablar:

1. Yong'in oldini olish tizimi – yong'in sodir bo'lish sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar va texnik vositalar majmuidan iboratdir.

2. Yong'inga qarshi himoya tizimi – yong'in o'chirish jihozlari va texnikalaridan, yong'in xavfli omillaridan himoya qiluvchi shaxsiy va jamoa himoya vositalari, yong'in signalizatsiyasi va yong'in o'chirish tizimi avtomatik qurilmalaridan foydalanish, obyektning konstruksiyalari va materiallariga yong'indan himoyalovchi tarkibli bo'yoqlar bilan ishlov berish, tutunga qarshi himoya tizimlari, evakuatsiya uo'llari bo'lishini ta'minlash, binoning yong'in mustahkamliligi darajasini to'g'ri tanlash kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

## **2. Sanoat korxonalarida yong'in va portlash sabablari**

Yong'in kelib chiqishini oldini olish tadbirlaridan eng asosiysi, uning sabablarini puxta bilish va shunga mos holda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishdan iboratdir.

Yong'in asosiy sabablariga quyidagilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin yong'in xavfsizligi bo'yicha texnologik jarayonlarini buzish, ularga amal qilmaslik; materiallarni saqlash qoidalariga rioya qilmaslik; elektr jihozlari va qurilmalarini noto'g'ri o'rnatish yoki ularni zo'riqtirish; isitish tizimlaridan noto'g'ri foydalanish; bug' qozonlari va issiqlik generatorlaridagi avtomatik qurilmalar nosozligi; ishlab chiqarish binolari havosi tarkibidagi gaz, bug' hamda changlarni meyorlashtirilmaganligi va boshqa shu kabilar.

*Yong'in manbasini ikki turga ajratish mumkin, YA'ni*

- ochiq (alanga, uchqun, qizigan buyumlar va b.)

-yashirin (kimyoviy reaksiyalar natijasida hosil bo'ladigan issiqlik miqdori, mikrobiologik jarayonlar adsorbsiyasi, adiabatik siqilishlar, ishqalanish, zarba va b.).

Yong'inni o'chirish mohiyati, yuqorida ta'kidlangan uchta yonish jarayoni tashkil etuvchilarini o'zaro ta'sirini to'xtatishdan iboratdir.

Harorat o'zgarishi natijasida material erishi, bug'lanishi ro'y beradi. Harorat oshgandan so'ng oksidlanish jarayoni yuzaga keladi va oksidlanish reaksiyasi natijasida ajralib chiqadigan issiqlik ta'sirida harorat tez o'sadi. Tutoqish, o't olish haroratida esa butun material tutashi kuzatiladi va nihoyat alanganish boshlanadi. Bu vaqtda tashqi manba olinganda ham yonish davom etadi. Tutoqish, o't olish harorati yonuvchi modda eng past harorati bo'lib, bunda buyum ustida gaz va bug'lar hosil bo'ladi hamda ular tashqi manba ta'sirida alanganadi. Lekin ularni hosil bo'lish tezligi, manbasiz yonish jarayonini kechishi uchun kam hisoblanadi. Alanganish

haroratida esa yonuvchi material tashqi manba ta'sirisiz ham yonadi. Shu sababli, har doim o't olish harorati alanganish haroratidan kichik bo'ladi.

Materialga issiqlik (yonish manbasi) ta'sir etgan vaqtdan alanganish davrigacha bo'lgan vaqt oralig'i *induksiya* davri deb ataladi.

Ayrim moddalar yoki materiallar ma'lum haroratda o'z-o'zidan alanganish xususiyatiga ega bo'ladi. Ularning bu xususiyati havo ta'sirida, suv ta'sirida va materiallar (moddalarning) o'zaro ta'sirida yuzaga kelishi mumkin.

Alanganish haroratiga bog'liq holda yong'inga xavfli suyuqliklar tez alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklarga bo'linadi. suyuqliklar tez alanganuvchilar bug'lari 45°S haroratda, yonuvchi suyuqliklar esa 45°S dan yuqori haroratda alanganadi. O'z-o'zidan alanganish harorati turli xil materiallar va moddalarda turlicha bo'ladi, masalan, kerosin 250–265°S, benzin A-66 255°S, dizel yoqilg'isi DZ- 240°S va h.k.

Barcha qurilish materiallari yonish xususiyati bo'yicha quyidagi uch turga bo'linadi:

- yonmaydigan materiallar – tashqi yong'in manbasi ta'sirida yonmaydi;
- qiyin yonuvchi materiallar – tashqi manba ta'sirida yonib, manba olingach mustaqil yonmaydi;
- yonuvchi materiallar – tashqi yong'in manban olingach, mustaqil yonish xususiyatiga ega bo'ladi.

Tez yonuvchi va yonuvchi suyuqliklar bug'lanish natijasida portlovchi aralashma muhit hosil qiladi. Bundan tashqari ayrim changlarga havo bilan aralashmasi ham portlashga xavfli hisoblanadi. Ular yonish va portlash xavfliligi bo'yicha portlashga xavfli aerazol holatida hamda yonishga xavfli aerogel turlarga bo'linadi.

### **3. Ishlab chiqarishni yonish-portlash va yong'in xavfliligi bo'yicha kategoriyalari**

Ishlab chiqarish unda ishlatiladigan yoki saqlanadigan materiallarning yonish xususiyati bo'yicha 5 ta kategoriyaga ajratiladi:

A- kategoriyadagi portlash - yonishga xavfli ishlab chiqarish bo'lib, unga bug'lar alanganish harorati 28°S dan kam bo'lgan va havo tarkibida 10 % gacha portlashga xavfli havo yoki materiallar bo'lgan hamda suv, kislorod, havo yoki o'zaro ta'sirda alanganuvchi materiallar ishlatiladigan ishlab chiqarish kiradi.

B - kategoriya portlash - yonishga xavfli ishlab chiqarish. Bunga bug'larning alanganish harorati 28 - 61°S gacha bo'lgan suyuqliklar, havo tarkibida 10 % gacha portlashga xavfli bo'lgan gaz va changlar bo'lgan, shuningdek 5 % gacha pastki portlash miqdori  $N_{pv} > 65 \text{ g/m}^3$  bo'lgan, ishlab chiqarishdagi mavjud changlar kiradi.

V - kategoriya yonishga xavfli ishlab chiqarish, alanganish harorati  $61^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo'lgan suyuqliklar ishlatiladigan va  $N_{\text{pe}} > 65 \text{ g/m}^3$  miqdordagi yonuvchi chang va gazlar mavjud havo muhiti bo'lgan, shuningdek qattiq yonuvchi materiallar ishlatiladigan ishlab chiqarishlardir.

G - kategoriya yong'in xavfli ishlab chiqarish, yonmaydigan materiallarga issiqlik yoki alanga ta'sirida ishlov berishda qo'llaniladigan ishlab chiqarishlar kiradi.

D - kategoriya yong'inga va portlashga xavfsiz ishlab chiqarish. Bunda yonmaydigan materiallarga sovuq holatda ishlov beriladi (yig'ish, ajratish, yuvish sexlari).

Yong'inga xavfli zonalar – bu bino yoki ochiq maydon yonuvchi moddalar saqlanadigan maydoni. Ular 4 sinfga bo'linadi:

Yong'inga xavfli zonalar -bino yoki ochiq maydon yonuvchi moddalar saqlanadigan qismidir. Ular 4 tasinfga bo'linadi, ya'ni P-I, P-II, P-IIa va P- III.

P-I sinf - zonaga gaz va bug'lar  $61^{\circ}\text{C}$  dan yuqori haroratda portlash ehtimoli bor suyuqliklar saqlanadigan binolar kiradi;

P-II sinf - zonalarga yonishga moyil chang va gazlar ajralib chiqadigan ishlab chiqarish binolari kiradi;

P-IIa sinf - zona esa qattiq va tolasimon yonuvchi materiallar ishlatiladigan ishlab chiqarish binolari;

P-III sinf-zonaga - qattiq yonuvchi materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan hamda bug'lari portlash harorati  $61^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo'lgan suyuqliklar ishlatiladigan yoki saqlanadigan ishlab chiqarish binolari va maydonlari kiradi

#### **4. Bino va inshootlarning yong'inga chidamliligi va uni oshirish yo'llari**

Yong'inga chidamlilik deganda, materiallar va konstruksiyalar yong'in sharoitida o'z mustahkamligini saqlash xususiyati tushuniladi. Qurilish konstruksiyalari yong'in ta'sirida o'z xususiyatini va mustahkamligini yo'qotish vaqti yong'inga chidamlilik chegarasi deyiladi.

Barcha bino va inshootlar konstruksiyasi yong'inga chidamliligi bo'yicha 5 darajaga bo'linadi:

I daraja yong'inga chidamlilikdagi binolarga barcha konstruksiyalari yonmaydigan, yuqori yong'inga chidamlilik chegarasiga (0,5–2,5 soat) ega bo'lgan binolar kiradi.

II daraja yong'inga chidamlilikdagi binolarga konstruktiv elementlari yonmaydigan, yuqori chidamlilik chegarasiga (0,25–2,0 soat) ega binolar kiradi.

III daraja yong'inga chidamlilikdagi bino va inshootlar yonmaydigan va qiyin yonuvchi materiallardan tayyorlanadi.

IV daraja yong'inga chidamlilikdagi binolarga barcha konstruksiyalari qiyin yonuvchi

materiallardan tashkil topgan binolar kiradi.

V *darajadagi* binolarga esa barcha konstruksiyalari yonuvchi materiallardan tashkil topgan binolar kiradi.

Talab etilgan yong'inga chidamlilik darajasi bino va inshootlarning konstruksiyasi, vazifasi, necha qavatligi, texnologik jarayonlarni yong'inga xavfliligi va yong'inni avtomatik o'chirish vositalarini mavjudligiga bog'liq holda belgilanadi.

Yog'och va boshqa yonuvchi materiallar yong'inga chidamlilik darajasi bir necha yo'llar orqali oshirilishi mumkin, jumladan: quruq tuz suvdagi aralashmasi bilan materiallarga yuza ishlov berish; yong'indan himoyalovchi bo'yoqlar, suyuq shisha, tuproqli aralashma va boshqa shu kabilar bilan yuza ishlov berish; tuproqli gips bilan suvash, gips tolali plitalar o'rnatish, asbestotsement materiallar qoplash. Yong'indan himoyalovchi qoplamalar atmosferaga, namlikka va nam bo'lmagan muhitga chidamli bo'lishi mumkin.

## **5. O't o'chirgichlar, o't o'chirish qurilmalari va mashinalari**

Eng keng tarqalgan o't *o'chirish moddalariga* suv, suv bug'i, uglekislota, namlagichlar, kimyoviy va havo-mexanik ko'piklar, galoid tarkibli uglevodorodlar, kukun tarkibli aralashmalar, uglerod ikki oksidi, brometil birikmalar, inert gazlar va boshqa mexanik vositalar (qum, tuproq, brezent va h.k.) kiradi.

*O't o'chirish moddalari quyidagicha tasniflanadi: yong'inni o'chirish usuliga ko'ra* – sovutuvchi (suv va qattiq uglekislota); suyultiriluvchi, ya'ni yong'in zonasidagi kislorod miqdorini kamaytirish (uglekislota gazi, suv bug'i yoki inert gaz aralashmasi); izolatsiyalovchi (ko'pik yoki kukun pardasi).

*Elektr o'tkazuvchanligi bo'yicha* – elektr o'tkazuvchi (suv, suv bug'i va ko'pik); elektr o'tkazmaydigan (gazlar va kukunlar);

Suvni o't o'chirish xususiyati yonuvchi moddani yonish haroratidan past haroratgacha sovutishga asoslangan. Suv hajmi bug'lanish davrida 1700 va undan oshiq martagacha ortadi hamda bug' yonish zonasidan kislorodni siqib chiqaradi.

Uglekislota (is gazi) va uglerod ikki oksidi rangsiz hamda havodan 1,5 marta og'ir gaz. U yong'in muhitida parda hosil qilib yong'in zonasiga kislorod kirishini to'xtatadi. Undan sig'implardagi yengil yonuvchi va yonuvchi suyuqliklar yong'inini, elektr jihozlari yong'inlarini va muzeylar, arxivlar kabi suvdan hamda ko'pikdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagan binolardagi yong'inlarni o'chirishda foydalaniladi.

Ko'piklar kam issiqlik o'tkazuvchanlik, yetarli darajada qo'zg'aluvchanlik, issiqlikni qaytarish samarasi katta, tutun zichligini kamaytirish xususiyatiga va kam mexanik mustahkamlikka ega bo'lgan o't o'chiruvchi moddalar hisoblanadi.

Inert gazlar, (azot, argon, geliy, tutun va chiqindi gazlar) asosan yong'indan saqlanish maqsadida neft mahsulotlari sig'imlarini payvandlashdan oldin to'ldirib ishlov berishda ishlatiladi.

Mexanik vositalar (brezent, voylok, qum, tuproq va b.) yong'inni boshlanish davrida, ua'ni uchqunlanish fazasida uchirish maqsadida foydalaniladi.

Sanoatda OV-5, OVP-10 rusumli qo'l o't o'chirgichlari, OVP- 100, OVPU-25 rusumli yuqori karrali statsionar o't o'chirgichlar ishlab chiqariladi. Ularni zaryadlashda PO-1 ko'pik hosil qiluvchidan foydalaniladi.

Ishlab chiqarish binolari uchun talab etiladigan o't o'chirgichlar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$n_o = m_o S, \quad (17.1)$$

bunda, S – ishlab chiqarish xonasi yuzi,  $m^2$   $m_o - 1m^2$  maydonga meyor bo'yicha belgilangan o't o'chirgichlar soni.

Bu ko'rsatkich materiallar ombori, garajlar, chorvachilik binolari, bug'xonalar, tegirmonlar, oshxona va magazinlar uchun  $100 m^2$  maydonga 1 ta, elektr payvandlash sexlari, temirchilik sexlari, laboratoriyalar uchun  $50 m^2$  maydoniga 2 ta qilib qabul qilinadi.

O't o'chirish qurilmalari yong'inni boshlang'ich fazada to'liq bartaraf etish va yong'in bo'linmalari kelguncha yong'in tarqalishini cheklash maqsadida ishlatiladi. Bundan tashqari, o't o'chirishda ATs-30(66), ATs- 40(131), ATs-40(130YE) rusumli mashinalar va MR-600, MR-900, BMP-1600 rusumli motopompalardan ham keng foydalaniladi.

Yong'inga qarshi suv ta'minoti yilning istalgan davrida yong'in joyiga 3 soat davomida suv yetkazib berishi lozim.

Bino va inshootlardagi tashqi yong'inlarni o'chirish uchun zarur suv hisobiy sarfi ishlab chiqarish kategoriyasi, bino yong'inga chidamlilik darajasi va bino hajmiga bog'liq holda tanlanadi.

Yong'inga qarshi sun'iy suv havzalari korxonada hududidagi yong'inga xavfli binolar oldiga, I va II darajali yong'inga chidamlilikdagi binolardan 10 m, III, IV va V darajali yong'inga chidamlilikdagi binolardan 30 m uzoqlikda quriladi. Bitta suv havzasi xizmat qilish radiusi yong'in avtonasoslari va avtotsisternalardan foydalanilganda – 200 m, ko'chma motopompalar va qo'l nasoslaridan foydalanilganda – 100 m, bir o'qli, pritsepli motopompalar ishlatilganda – 150 m qilib qabul qilinadi. Bitta sig'imda suv tegilmaydigan zaxira qismi  $100 m^3$  gacha bo'lishi lozim.

Tashqi va ichki yong'inni o'chirish uchun talab etiladigan suv sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{uo} = 3,6gT_{ey} n_{uo}, \quad (17.2)$$

bunda,  $g$  – ichki va tashqi o‘t o‘chirishga sarflanadigan solishtirma suv sarfi,  $j/s$ ;  $T_{yo}$  – yong‘in vaqti, soat;  $n_{yo}$ , – bir vaqtdagi yong‘inlar soni.

Suvning tegilmaydigan zaxira qismi:

$$W_{yo} - Q_{yo}(Q_x + 0,5Q_t), \quad (17.3)$$

bunda,  $Q_t$  – texnologik maqsadlarga sarflanadigan suv hajmi,  $m^3/soat$ ;  $Q_x$  – xo‘jalik maqsadlarida ishlatiladigan suv sarfi,  $m^3/soat$ .

## 6. Yong‘in muhofazasini tashkil etish va yong‘inni o‘chirish

Yong‘inni o‘chirishda professional va ko‘ngilli o‘t o‘chirish jamiyatlari amalda faoliyat ko‘rsatadi. Professional yong‘in muho-fazasi harbiylashtirilgan va harbiylash- tirilmagan turlarga bo‘linadi.

Tashkilotlar, korxonalar va xo‘jaliklarda yong‘in muhofazasini tashkillashtirish va obyektlar yong‘inga qarshi holatini ta‘minlash ushbu tashkilotlar rahbarlariga yuklatiladi.

Xo‘jalik yoki korxonalar ma‘muriy-texnik xodimlari o‘zlariga tegishli obyektlarni ko‘rish va ulardan foydalanish davrida yong‘inga qarshi barcha tadbirlarni to‘liq amalga oshirishini ta‘minlashlari, yuqori yong‘in muhofazasi tashkilotlari ko‘rsatmalari hamda qarorlarini bajarilishini nazorat qilib borishlari, yong‘in-qorovul muhofazasini, yong‘in-texnik komissiyasini va ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalarini tashkil etishlari, ularning ish faoliyatlarini doimiy nazorat qilib borishlari zarur.

Yong‘inni aniqlashning avtomat vositalari (YOAAV) va yong‘inni o‘chirish avtomat vositalari (YOO‘AV), agar yong‘in tashkiloti barcha ishlariga ta‘sir etishi hamda katta moddiy zarar keltirishi mumkin bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Bunday obyektlarga energetik qurilmalar, markaziy gaz stansiyalari, yengil yonuvchi va yonuvchi suyuqliklar stansiyalari, xomashyo omborlari hamda yoqilg‘i materiallarini solishtirma sarfi  $100 \text{ kg}/m^3$  dan ortiq bo‘lgan binolar kiradi.

YOO‘AV lari yong‘in joyini aniqlash va trevoga signalini berish hamda yong‘inni o‘chirish qurilmasini ishga tushirish moslamalaridan iborat bo‘ladi. Yong‘in aloqasi va signalizatsiyasi yong‘inni o‘z vaqtida sezish, aniqlash va yong‘in o‘chiruvchilarga xabar berish uchun ishlatiladi. Ularga tele va radio aloqa, yong‘in signalizatsiyasi qurilmalari, elektrik signallar, qo‘ng‘iroqlar va transport vositalari signallari kiradi.

### Mavzuni uzlashtirish uchun savollar:

1. Yong‘in va yonish jarayoni deb nimaga aytiladi?
2. Yong‘in xavfsizligi deganda nima tushiniladi?



3. Sanoat korxonalarida yong'in va portlash nima sababdan hosil bo'ladi?
4. Ishlab chiqarishni yonish-portlash va yong'in xavfliligi bo'yicha qanday kategoriyalarga ajritiladi?
5. Barcha bino va inshootlar yong'inga chidamliligi bo'yicha qanday darajalarga bo'linadi?
6. Bino va inshootlarning yong'inga chidamliligi va uni oshirish yo'llari nimalardan iborat?
7. O't o'chirgichlarning qanday turlarni bilasiz?
8. O't o'chirish qurilmalari qanday turlari mavjud?
9. Yong'in muhofazasi qanday tashkil etiladi?
10. Yong'inni o'chirishda suv taminoti qanday tashkil etiladi?

## **18- MA'RUZA. SANOAT OBEKTLARIDA ELEKTR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH**

### **O'quv rejasi:**

1. Elektr tokining inson tanasiga ta'siri
2. Ishlab chiqarish binolari elektrdan zararlanish xavfliligi bo'yicha tasniflanishi
3. Elektr tokidan saqlanish va shaxsiy himoya vositalari
4. Elektr qurilmalarini yerga ulash va nollashtirish
5. Statik elektr zaryadlari
6. Atmosfera elektr zaryadlari va ulardan himoyalaniish

**Tayanch so'z va iboralar:** *Elektr toki, elektr yeyi, inson tanasi, termik, kimyoviy, biologik, texnik, tashkiliy, statik, yerga ulash, nullashtirish, shaxsiy himoya vositalari, elektr zaryadlar, atmosfera,*

### **1. Elektr tokining inson tanasiga ta'siri**

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi rivojlanish darajasini elektr energiyasiz tasavvur qilish qiyin.

Lekin elektr energiyasi inson mehnatini yengillashtirib ish unumdorligini oshishiga olib kelish bilan bir qatorda, uning hayoti uchun xavfli ham hisoblanadi. Ishlab chiqarishda uchraydigan boshqa xavf manbalaridan elektr xavfi keskin farq qiladi. Chunki, ularni faqatgina maxsus jihozlar va asbob-uskunalar bilangina aniqlash mumkin.

Elektr tokidan jarohatlanish asosan quyidagi holatlarda yuz berishi mumkin:

- I. Elektr yoyi orqali tok ta'siri.
2. Jihozlar korpusining metall qismlarida bexosdan tok sodir bo'lishi natijasida.
3. Katta o'lchamdagi mashinalarni elektr uzatmalariga ruxsat etilgan miqdordan kam masofada yaqinlashuvi.

Yuqoridagi holatlarga bog'liq holda elektr tokidan jarohatlanish sabablarini quyidagi ikki guruhga, ua'ni *tashkiliy va texnik sabablarga ajratish mumkin.*

*Tashkiliy sabablar-* ishchilarni elektr xavfsizligi bo'yicha o'qitilmaganligi va tegishli uo'riqnomalardan o'tkazilmaganligi, ishchilarni shaxsiy himoya vositalari bilan

ta'minlanmaganligi, elektr qurilmalarini muhandis-texnik xodimlar tomonidan qoni-qarsiz nazorat qilinishi; elektr qurilmalariga profilaktik ta'mirlash ishlarini sifatsiz olib borilishi, ish joylarida elektr qurilmalari va jihozlari bilan ishlash qoidalari hamda ko'rsatmalarining bo'lmasligi kiradi.

*Texnik sabablar*-esa tok o'tkazuvchi qismlarda ishonchli to'siqlarni bo'lmasligi, elektr qurilmalari, jihozlari va o'tkazichlarini noto'g'ri o'rnatilishi, elektr qurilmalarini o'rnatishda binolarning elektr xavfsizligi bo'yicha kategoriyalarini hisobga olinmasligi, himoya va saqlash qurilmalarining bo'lmasligi yoki ularni noto'g'ri o'rnatilishi misol bo'ladi.

Ishlab chiqarishdagi elektr qurilmalarida sodir bo'la- digan baxtsiz hodisalarning tahlili, asosan ushbu baxtsiz hodisalar elektr qurilmalari bilan ishlashga nomutaxassis ishchilarni qo'yilishi, himoya vositalari bilan ta'minlash va undan foydalanish masa-lalariga e'tiborsiz munosabatda bo'lish oqibatida sodir bo'layot-ganligini ko'rsatadi. Shu sababli elektr qurilmalaridan foydalanishda baxtsiz hodisalarning oldini olish «Elektr qurilmalarini o'rnatish qoidalari - (PUE)» ga to'liq rioya etilishini talab qiladi.

*Elektr xavfsizligi deb*- insonlarni elektr toki, elektr yoyi, elek- tromagnit maydoni va statik elektr tokining xavfli, zararli ta'siridan himoya qilishga qaratilgan tashkiliy va texnik tadbirlar hamda vositalar tizimiga aytiladi.

Elektr tokining inson tanasiga ta'siri bir necha omillarga, jum- ladan, tok kuchiga, inson tanasining elektr toki qarshiligiga, kuchlanish miqdoriga, tok turiga va chastotasiga, tokni ta'sir etish vaqtiga, tokning inson tanasi bo'ylab o'tish uo'liga hamda insonning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Elektr toki insonga uch xil, ua'ni *kimyoviy, issiqlik va biologik ta'sir ko'rsatadi*. Kimyoviy ta'sirda inson tanasidagi qon va boshqa organik suyuqliklar buzilishi mumkin. Issiqlik ta'sirida esa tananing ayrim qismlarida kuyish hosil bo'ladi. Biologik ta'sirda tananing tirik hujayralarini qo'zg'alishi va uyg'onishi oqibatida muskul- larni ixtiyorsiz ravishda tortishishi, qisqarishi yuzaga keladi.

Yuqoridagilarga mos holda, elektr tokining inson tanasiga ta'siri elektr zarba, elektr kuyish va elektr shikastlanish ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ushbu ta'sirlar ichida elektr zarba eng xavfli hisoblanadi va u elektr tokining inson tanasidagi muhim a'zolari: yurak, o'pka, asab sistemasi va boshqa shu kabi a'zolari orqali o'tishi natijasida yuzaga keladi.

Elektr kuyishlar quyidagi ikki xil ko'rinishda bo'ladi: bevosita yoki bilvosita. Bevosita kuyish inson tanasining elektr qurilma-laridagi tok o'tkazuvchi qismlarga tegib ketishi natijasida yuz beradi. Bilvosita kuyish elektr simlarining qisqa tutashuvi oqibatida erigan metall parchalarining sachrashi yoki elektr yoylaridagi uchqunlar ta'sirida yuz beradi.

Elektr tokining inson tanasiga ta'sirini belgilovchi omillar orasida tok kuchi miqdori asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Tok kuchini inson tanasiga ta'sir darajasiga qarab quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Sezilarli tok (2 mA gacha).
2. Qo'yib yubormaydigan tok (10...25 mA).
3. Fibrillatsion tok (50 mA dan yuqori).

Elektr tokidan shikastlanishda inson tanasining qarshiligi muhim rol o'ynaydi. Inson tanasining elektr toki ta'siriga qarshiligi terining holatiga (quruq yoki ho'1, dag'al yoki mayin, jarohatlangan yoki jarohatlanmagan), elektr simi bilan bog'lanish yuzasiga va darajasiga, tok kuchi va tok chastotasiga, tokning inson tanasi orqali o'tish uo'liga hamda ta'sir vaqtiga bog'liq bo'ladi. Inson tanasining yelektr tokiga qarshiligi 1000 Ot. dan 100000 Ot. gacha bo'lishi mumkin. Odamning tok ta'siriga qarshiligi 30 sek. dan keyin taxminan 25%, 90 sek. dan keyin esa 70 % ga kamayadi.

Inson uchun 10 tA. gacha bo'lgan o'zgaruvchan tok, 50 tA. gacha bo'lgan o'zgarmas tok xavfsiz hisoblanadi, shuningdek 0,05 A tok kuchi xavfli va 0,1 A tok kuchi halokatli hisoblanadi.

## **2. Ishlab chiqarish binolari elektrdan zararlanish xavfliligi bo'yicha tasniflanishi**

Elektr tokidan shikastlanish ko'pchilik hollarda elektr qurilmalari ishlayotgan muhitga bog'liq bo'ladi. O'tkazgich- larning va elektr qurilmalarining izolatsiyalari agressiv bug' va gazli muhitlarda ishdan chiqadi, shuningdek, yuqori namlikdagi ish joylarida inson tanasining elektr tokiga ta'siri keskin kamayadi. Barcha ishlab chiqarish binolari elektr xavfsizligi bo'yicha quyidagi uch guruhga ajratiladi:

Yuqori xavflilikdagi binolar. Bunday ishlab chiqarish binolariga quyidagi sharoitdagi ishlab chiqarish binolari kiradi: tok o'tkazuvchi (metall, yer, beton) polga ega, yuqori namlik yoki tok o'tkazuvchi changli muhit, havoning harorati +30 dan yuqori, elektr qurilmalarining metall qismlariga yoki inshootlarning metall konstruksiya- lariga elektr simlarini tegib qolish xavfi bor bo'lgan sharoitdagi binolar kiradi.

O'ta xavfli binolar – havoning nisbiy namligi 100% ga yaqin bo'lgan muhit, kimyoviy muhit, yuqori xavflilikdagi binolar uchun belgilangan shartlarning bir vaqtda ikkitasi yoki bir nechtasi mavjud bo'lgan sharoitdagi binolar.

Yuqori xavflilikda bo'lmagan binolar, uni yuqori xavflilikdagi yoki o'ta yuqori xavflilikdagi binolarning belgilari bo'lmagan binolar.

### **3. Elektr tokidan saqlanish va shaxsiy himoya vositalari**

Elektr tokidan himoya qilish vositalari asosiy va qo‘shimcha vositalarga bo‘linadi.

*Asosiy vositalar*- 1000 V dan ortiq kuchlanishli elektr moslamalariga xizmat ko‘rsatishda foydalaniladigan izolatsiyali shtangalar, tok o‘lchovchi kleshalar, kuchla-nishni ko‘rsatuvchi asboblar, himoyalovchi qurilmalar va turli ko‘rinishdagi jihozlar hamda moslamalar kiradi. Kuchlanishi 1000 V gacha bo‘lgan elektr moslamalariga xizmat ko‘rsatayotganda esa izolatsiya qilingan dastlabki asboblar: buragichlar, ombir va tishlagichlar, dielektrik qo‘lqoplar hamda izolatsiyalangan kleshalardan foydalaniladi. Qo‘shimcha vositalarga kuchlanish 1000 V dan ortiq bo‘lganda ishlatiladigan dielektriketiklar, kalishlar, o‘shamalar va izola-siyalangan tagliklar kiradi.

Tarmoqdagi yoki elektr qurilmalari kuchlanishini tekshirishda quyidagi asboblardan foydalaniladi:

– 500V gacha kuchlanishga ega elektr tarmoqlaridagi kuchlanish TI-2, MIN-1, UIN-10, IN-92 rusumli asboblar yordamida aniqlanadi.

– 1000 V dan yuqori kuchlanishga ega elektr tarmoqlari va qurilmalarini tekshirishda neon chiroqli indikatorlardan foydalaniladi. 10 kV gacha bo‘lgan elektr o‘tkazgichlardagi kuchlanishni tekshirishda tok o‘lchovchi kleshalar ishlatiladi.

Bulardan tashqari, elektr tokidan himoya qilish vositalariga belbog‘lar, bog‘ichli kovushlar, muhofaza arqonlari, teleskopli minoralar va narvonlar ham kiradi.

Belbog‘lar 225 kg, kovushlar esa 135 kg yuk bilan 5 daqiqa davomida sinab ko‘rilgach, foydalanishga ruxsat etiladi.

Elektr xavfsizligini ta‘minlashda ko‘rgazmali belgilar («plakatlar») ham muhim rol o‘ynaydi. Ular asosan to‘rt guruhga bo‘linadi, ua’ni hushyorlikka chaqiruvchi, ruxsat beruvchi, taqiqlovchi va eslatuvchi belgilar.

### **4. Elektr qurilmalarini yerga ulash va nollashtirish**

Elektr tokidan himoya qilishning ishonchli va keng tarqalgan vositalaridan biri elektr qurilmalarini yerga ulash va nollashtirish hisoblanadi.


*Elektr qurilmalarini yerga ulashda* qurilmaning *eyelektr* toki ta‘sirida bo‘lmagan metall qismi, masalan, korpusi (1), yerga ko‘milgan elektrodlarga (3) ulanadi. Shu sababli yerga ulash tizimi elektrodlar va elektr qurilma bilan elektrodni bir-lashtiruvchi o‘tkazgichlardan (2) iborat bo‘ladi (1-chizma).

Yerga ulash elektrodлари *sun'iy* (aynan shu maqsadda maxsus yerga ko'milgan ro'lat truba yoki boshqa turdagi metall buyumlar) va *tabiiy* (boshqa maqsadlarda yerga o'rnatilgan metall buyumlar) ko'rinishda bo'lishi mumkin.

*Tabiiy elektrodlar*- suv quvurlari, bino va inshootlarning temir beton konstruksiyalarini yerga ko'milgan detallari misol bo'la oladi. Gaz va neft quvurlaridan yerga ulash elektrodi sifatida foydalanish taqiqlanadi.

*Sun'iy elektrodlar*- sifatida ro'lat trubalar, burchaksimon ro'latlar, armaturalar va temir polosalardan foydalanish mumkin. Bunday elektrodلarning uzunligi 2...3 m, qalinligi 3,5 mm.dan kam bo'lmasligi zarur.

Elektrodlarni bir-biriga ulashda ko'ndalang kesimining o'lchami 4x12mm bo'lgan simlar yoki diametri 6 mm.dan kam bo'lmagan ro'lat simlardan foydalaniladi.



18.1-chizma. Elektor qurilmalarini yerga ulash: 1-elekt qurilmasi; 2-elektrodlarni birlashtiruvchi sim; 3-elektrod.


Elektr uskunalari va jihozlari quyidagi hollarda yerga ulanadi: 1. 380 V va undan yuqori kuchlanishdagi o'zgaruvchan tok hamda 440 V va undan yuqori kuchlanishdagi o'zgarvas tok bilan ishlovchi barcha uskuna va jihozlar, 42 V dan 380 V gacha kuchlanishdagi o'zgaruvchan tok va 110 V dan 440 V gacha kuchlanishdagi o'zgarvas tok bilan ishlovchi elektr jihozlari. 42 V va undan kichik kuchlanishdagi o'zgaruvchan tok hamda 110 V va undan kichik kuchlanishdagi o'zgarvas tok bilan ishlovchi portlashga moyil elektr jihozlari va payvandlash transformatorlarining ikkilamchi o'ramlari. Bundan kam kuchlanishdagi elektr jihozlarini yerga ulash shart emas.

Standart talablari bo'yicha quvvati 100 kVt gacha bo'lgan elektr qurilmalarining yerga ulash qarshiligi 10 Ot. gacha, quvvati 100 kVt dan ortiq bo'lgan elektr qurilmalari uchun esa 4 Ot. gacha bo'lishi talab etiladi.

Elektr qurilmalari yerga ulash tizimlarining ish holatini tekshirishda elektrodlar va o'tkazgichlarning holati ko'zdan kechirilib, qarshiligi o'lchanadi. Tashqi tekshirish har olti oyda bir marta, yuqori va o'ta xavfli elektr uskunalarida esa har uch oyda bir marta o'tkazilishi zarur. Elektrodlar va o'tkazgichlarning qarshiligi esa har yili kamida bir marta o'tkazilishi kerak. Yerga

ulash qurilmalarining qarshiligini o‘lchashda ampermetr va voltmترلardan yoki MS-08 rusumli megometrlardan foydalanish mumkin (2-rasm).

Elektr qurilmalarini nollashtirishda ushbu qurilmaning elektr toki ta’sirida bo‘lmagan metall qismi nol faza bilan birlashtiriladi. Bundan tashqari elektr xavfsizligini oshirish maqsadida himoya ajratgichlaridan ham keng foydalaniladi. Himoya ajratgichlarning asosiy vazifasi elektr toki urish xavfi sodir bo‘lganda elektr zanjirini avtomatik ravishda darhol uzishdan iborat. Himoya – ajratgichlarining ishga tushish vaqti 0,2 sekunddan oshmasligi zarur.



18.2-rasim. Yerga ulash qarshiligini o‘lchash shakli: a–«amper-voltmetr» usulida; b-MS-08 megometri yordamida.

## 5. Statik elektr zaryadlari

Tuzilishi va tarkibi jihatidan bir xil bo‘lmagan ikki materialning o‘zaro ishqalanishi natijasida va ayrim suyuqlik yoki gazlarning quvurlarda katta tezlikda harakatlanishi oqibatida statik elektr zaryadlari hosil bo‘ladi. Masalan, avtomobil beton yo‘lda harakatlanayotganida, uning g‘ildiraklari yo‘l uzra sirranishi natijasida yoki qum va tosh zarralarining avtomobilga urilishi natijasida – 3000V, benzinni ro‘lat quvurlarda katta tezlikda harakatlanishida – 3600V, tezligi 15 m/s bo‘lgan tasmali uzatmalarda – 80000V, tasmali transportyorlarda – 45000Vgacha statik elektr zaryadlari hosil bo‘lishi mumkin. Statik elektr zaryadining miqdori materiallarning tarkibiga, ishqalanuvchi qismlarning yuzasiga, zichligiga, solishtirma elektr qarshiligiga, texnologik jarayonning intensivligiga va muhitning mikroiklim holatiga bog‘liq bo‘ladi.

Statik elektr zaryadlari ta’sirida turli xil jarohatlanishlar, yong‘inlar va portlashlar kelib chiqishi mumkin. Yuqori miqdorda statik elektr zaryadlari hosil bo‘ladigan muhitda inson organizmining muskullari keskin qisqarishi, uzoq vaqt statik elektr zaryadlari ta’sirida ishlash oqibatida esa nerv faoliyatining buzilishi, tayyorlanadigan mahsulot sifatining pasayishi kuzatiladi.

Statik elektr zaryadlarining hosil bo‘lishini va to‘planishini turli xil yo‘llar bilan oldini olish mumkin, jumladan, ish joyi mikroiklim holatini meyorlashtirish, uningni xona havosi nisbiy

namligini 70% dan kam bo'lmashligiga erishish; asosiy materiallarga antistatik materiallar qo'shish; muhit havosini ionizatsiyalash; ishqalanuvchi yuzalarga teskari belgili zaryadlarni kiritish va boshqa statik elektr zaryadlarining xavfli va zararli ta'siridan himoyalashning asosiy o'llaridan yana biri jihozlar va sig'implarning metall qismlarini yerga ulashdir. Yerga ulashda elektrod sifatida ro'lat trubalardan, burchaksimon ro'latlar va armaturalardan foydalanish mumkin. Statik elektr zaryadlari hosil bo'lish ehtimoli bor bo'lgan statsionar mexanizmlar va sig'implarning yerga ulash qurilmalarini qarshiligi 100 Om.dan, texnologik jarayonda ishtirok etayotgan uskuna, qurilma va jihozlar tizimlari uchun esa bu ko'rsatkich 10 Om. dan kichik bo'lishi zarur.

## **6. Atmosfera elektr zaryadlari va ulardan himoyalash**

Yashin va momaqaldiroq vaqtda kuchli elektr zaryadlari hosil bo'lib, ularning kuchlanishi 2V dan 8 mln V gacha, tok kuchi esa 200000 A gacha yetishi va bunday zaryadlar binolarga, insonlarga va hayvonlarga katta zarar yetkazishi, shuningdek, turli yong'inni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday vaqtda yashinning ta'siri birlamchi (to'g'ri urish) va ikkilamchi (elektrostatik va elektromagnit induksiyalari ko'rinishida) bo'lishi mumkin. Shu sababli, binolar va inshootlarga yashin qaytargichlar o'rnatilishi zarur.

Yashin qaytargichlar uch elementdan: yashin qabul qilgich, tok o'tkazgich va yerga ulash tizimidan tashkil topadi. Ular sterjen, antena va to'r ko'rinishida bo'ladi. Yashin qaytargichning eng oddiy konstruksiyasi tom tepasiga o'rnatilgan yashin qabul qilgich va yerga ulangan sterjendan iboratdir. Bunday sterjen bino atrofida yumaloq asosli ikki konus ko'rinishidagi himoya maudonini tashkil etadi. Uning radiusi yashin qabul qilgich balandligidan bir yarim marta katta bo'ladi (3-chizma).

Yashin qaytargich o'lchamini chizma tarzida aniqlashda dastlab binoning konturi masshtab bo'yicha chiziladi, keyin esa yashin qabul qilgich balandligi belgilanib, ushbu masshtabda ikkilamchi konus chiziladi. Agar bino o'zining barcha qismlari bilan konus ichiga joylashsa, yashin qaytargichning tanlangan balandligi binoni yashindan yetarli darajada himoyalashga yaroqli hisoblanadi, aks holda chizmada yashin qabul qilgich balandligi kattaroq qilib olinadi va ikkilamchi konus qayta chizilib, tekshiriladi.

Yashin qabul qilgichlar uzunligi 1,0...1,5m, kesimi 100 mm<sup>2</sup> dan kichik bo'lmagan ro'lat sterjenlardan tayyorlanib trubasimon, temir-beton yoki yog'och tayanchlarga berkitiladi. Katta uzunlikdagi binolarda kesimi 35 mm<sup>2</sup> dan kichik bo'lmagan va ikki sterjen orasiga tortilgan «tross»lar ishlatiladi. Tok o'tkazuvchi - diametri 6 mm. dan kichik bo'lmagan ro'lat sterjenlardan yoki simlardan, elektrodlar esa diametri 10 mm. dan kichik bo'lmagan ro'lat sterjenlardan

tayyorlanadi. Yashin qaytargichdagi barcha birikmalar payvandlanib birlashtiriladi. Boltli birikmalarga faqat vaqtinchalik yerga ulash qurilmalarida foydalanishga ruxsat etiladi.

Barcha bino va inshootlar yashin urish xavfi bo'yicha 3 kategoriyaga bo'linadi. Birinchi kategoriyadagi obyektlarga V-I va V-II sinfidagi portlashga xavfli sanoatbinolari; ikkinchi kategoriyaga esa V-Ia, V-Ib, V-IIa sinfidagi ishlab chiqarish binolari; uchinchi kategoriyaga portlashga xavfli R-1, R-2, R-2a sinfidagi binolar kiradi.

Yashin qaytargichlarning himoya zonasi uning o'lchamlariga bog'liq bo'lib, u binoning balandligi, eni va uzunligiga bog'liq holda aniqlanadi. Himoya zonalari ikki turga bo'linadi:

-A - ishonchlilik darajasi 99,5 % dan yuqori;

-V - ishonchlilik darajasi 95% dan yuqori.

Bir-biriga yaqin joylashgan ikki yoki bir necha binolarni yashindan himoyalash uchun antena yoki

«to'rsimon» yashin qaytargichlardan foydalaniladi

#### **Mavzuni uzlashtirish uchun savollar:**

1. Elektr toki inson tanasiga qaanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Elektr tokiga tushib qolishning tashkiliy va texnik sabablari nimalardan iborat?
3. Ishlab chiqarish binolari elektrdan zararlanish xavfliligi bo'yicha qanday tasniflanadi?
4. Elektr tokidan saqlanish va shaxsiy himoya vositalari nimalardan iborat?
5. Asosiy shaxsiy himoya vositalari nimalar kiradi?
6. Elektr qurilmalarini yerga ulash va nollashtirish qanday amalga oshiriladi?
7. Statik elektr zaryadlari qanday sodir bo'ladi?
8. Atmosfera elektr zaryadlari qanday sodir bo'ladi va ulardan himoyalash usullari nimalardan iborat?
9. Yashin qaytargichlar ishlash prinsiplari nimalardan iborat?
10. Tarmoqdagi yoki elektr qurilmalarining kuchlanish qanday tekshiriladi?

### **20-21 MA'RUZA. KIMYOVIY XAVFLI OBEKTLARDA AVARIYA SODIR BO'LGANDA XAVFSIZLIK CHORA TADBIRLAR**

#### **Ma'ruza rejasi:**

1. Kimyoviy xavfli obyektlarda himoya choralari.
2. Kimyoviy xavfli obyektlarda kimyoviy nazorat va razvedka olish borish.
3. Xavfli kimyoviy moddalardan aholini himoya qilish va tibbiy yordam ko'rsatish usullari.
4. Kimyoviy xavfli obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etish usullari va vositalari.
5. Xavfli kimyoviy moddalardan ifloslangan zonalarda maxsus tozalash tadbirlarini tashkil etish



*Tayanch soʻz va iboralar: kimyoviy xavfli obyektlar, avariya, kimyoviy moddalar, shakllanish, tashkiliy-texnik, kimyoviy muhit, suyuq, bugʻ, gaz, tibbiy yordam koʻrsatish, shaxsiy himoya vositalari, umumjamoaviy himoya vositalari*

## **1. Kimyoviy xavfli obyektlarda himoya choralari.**

Kimyoviy avariylarning oʻziga xosxususiyati – bu zararli omillari, shakllanish va taʼsiri yuqori darajada ekanligi va tezkor himoya choralari koʻrishni talab qiladi. Shu sababli, xodimlarni va aholini xavfli kimyoviy moddalardan himoya qilish imkon qadar tezlik bilan tashkil etiladi.

Kimyoviy xavfli obyektlarda avariya yuz berganda xavfli kimyoviy moddalardan himoya qilish – bu jabrlanganlar sonini kamaytirish yoki minimallashtirish hamda atrof-muhitga salbiy taʼsirini oldini olish yoki kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan tashkiliy-texnik tadbirlar majmuidir.

Kimyoviy xavfli obyektlarda himoya choralari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- obyektning xavfsiz ishlashi ustidan kunlik kimyoviy nazorat;
- voqeani aniqlash va avariya sodir boʻlgan hududni kimyoviy razvedka qilish;
- xodimlar va jamoatchilikni shikastlanish xavfi toʻgʻrisida ogohlantirish (xabarnoma);
- kimyoviy muhitni baholash va bashorat qilish;
- shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish;
- xavf ostida boʻlgan hududlardan aholini vaqtincha evakuatsiya qilish;
- jabrlanganlarga qidirish va tibbiy yordam koʻrsatish;
- avariyalarning obyekt infratuzilmasi va atrof-muhitdagi salbiy qibatlarini bartaraf etish yoki minimallashtirish.

## **2. Kimyoviy xavfli obyektlarda kimyoviy nazorat va kimyoviy razvedka.**

Kimyoviy xavfli obyektlarda sodir boʻlgan avariya paytida xavfli kimyoviy moddalar xavfli konsentratsiyasini shakllanishi, sexlarda oʻrnatilgan kimyoviy priborlarni kunlik kimyoviy nazoratlar jarayonida ifloslangan havoning tarqalishi yoʻnalishi toʻgʻrisida birlamchi maʼlumotlar yigʻiladi.. Ushbu maʼlumotlarga asoslanib va meteorologik vaziyatni hisobga olgan holda kimyoviy razvedka tashkil etiladi.

Kimyoviy razvedka avariya sodir boʻlgan hududdagi kimyoviy vaziyatni aniqlashga qaratilgan boʻlib, bular quyidagilar:

- xavfli kimyoviy moddalar bilan ifloslanish chegaralari va zonasini aniqlash uchun avariya hududini razvedka qilish;

-chiqadigan (to'kilgan) xavfli kimyoviy moddalar miqdori va atrof muxit ifloslanish darajasini baholash;

-xavfli kimyoviy moddalarning suyuq, bug' va gazzimon moddalarining tarqalish yo'nalishlarini aniqlash.

Kimyoviy ifloslangan hududlarda razvedka ishlarini olib borish uchun ko'chma o'lchov vositalardan foydalaniladi. Bularga gaz analizatorlari, indikator plyonkalari, indikator naychalari kiradi.

Ulochov vositalari ichida eng keng tarqalgan vositasi – bu indikatorli naychalari bo'lib, bular, GX seriyali gaz detektorlari vaUG-2 va UG-3 universal gaz analizatorlari kiradi.

UG-2 quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: shtok, indikator trubkasi, havo qabul qilish moslamasi, indikator kukuni bo'lgan ampulalar, shkala, kamar va rezina naychasidan iborat. Ularning ishlash prinsipi xavfli kimyoviy modda indikator orqali o'tganda naydagi rang (kalorimetrik) o'zgarishiga asoslangan. Indikator naychalari shunday sezuvchanlikka ega bo'lib, xavfli kimyoviy moddalarni ularning ruxsat etigan konsentratsiya qiymatlari darajasida aniqlashga imkon beradi.

Tekshirilayotgan havoning aniq belgilangan hajmi indikator naychasidan o'tganda, indikator naychasidagi rangli qatlami uzunligi tekshirilayotgan havodagi xavfli kimyoviy moddalarning konsentratsiyasiga mutanosibdir.

UG-2 gaz detektorlari kamchiliklari shundaki, operator indikator naychasini ishlashga tayyorlash uchun vaqt ko'pligi va aniqlay oladigan xavfli kimyoviy moddalar ro'yxati cheklanganligi.

Harbiy kimyoviy razvedka ulchov asbobi – VPXRning takibiy tuzilishi: qo'l nasosi, nasadka, qopqoqlar, suvga qarshi filtr, isitish patronlar, fonar, isitgich, shtir, lopatka, kassetasi indikator trubkasidan iborat. VPXR fosfor organik birikmalarini, shuningdek, gidrosink kislotasi, siyanogen xlorid, fosgen (difosgen) kabi xavfli kimyoviy moddalarni aniqlash uchun ishlatiladi. Asbob indikator naychalarini ishlatishga asoslangan.

### **3. Xavfli kimyoviy moddalardan aholini himoya qilish va tibbiy yordam ko'rsatish usullari**

Xavfli kimyoviy moddalardan aholi himoyaqilish uchun jamoviy himoya inshshotlaridan va shaxsiy himoya vositalaridan foydalaniladi. Shuningdek kimyoviy ifloslangan hududlardan aholini evakuatsiya qilish usullari orqali xavfli kimyoviy moddalardan axolini himoya qilish mumkin.

Xavfli kimyoviy moddadardan jamoaiy va shaxsiy himoya vositalari orqali himoya qilish usuli radiatsiyaviy ifloslanishdan himoya qilishdek amalga oshiriladi. Aholini va xodimlarni

vaqtincha evakuatsiya qilish zararlanishning oldini olish yoki kamaytirish uchun aholini kimyoviy ifloslanish ehtimoli bo'lgan hududdan olib chiqishni nazarda tutadi.

Kimyoviy xavfli obyektida avariya rivojlanishining tezligini hisobga olgan holda, aholini eng samarali vaqtincha evakuatsiya qilish xavfli kimyoviy moddalarning birlamchi buluti yaqinlashguncha amalga oshirilishi lozim. U iloji boricha shamol yo'nalishiga perpendikulyar ravishda marshrutlar bo'ylab tashkil etilishi kerak.

Kimyoviy modda tarqalgan joyning o'zida birinchi yordam ko'rsatish boshlanadi. Bunda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- organizmga zahar tushishini favqulodda to'xtatish (zararlanganlarni ifloslanish zonasidan olib chiqish sanitar tozalash va shaxsiy himoya vositalarini bilan ta'minlash);

- organizmdan zaharni tez chiqarilishi (qayd qildirish);

- organizmning funksional tizimlarini tiklash (reanimatsiya choralari);

- xavfli kimyoviy moddalar bilan o'tkir zaharlanishda avtonom kislorod bilan nafas olidirish;

- xavfli kimyoviy moddalar bilan zaharlanishni oldini olish va davolash uchun dorivor (antidot) preparatlarni qo'llash.

Tibbiy muassasalarda evakuatsiya qilinganidan keyin jabrlanganlarga qo'shimcha tibbiy yordam ko'rsatiladi.

*Ammiak* bilan zaxarlanganda quyidagi birinchi yordam ko'rsatiladi. Ammiak,- bu bo'g'uvchi va neyrotrop ta'sirga ega moddadir. O'tkir hidli, suvda yaxshi eriydigan gaz. Portlash va yonuvchan, doimiy olov manbai borligida yonadi, bug'lari havoda portlovchi aralashmalar hosil qiladi. O'rtacha zararli dozasi -  $7,57 \text{ min g./m}^3$

Ta'sir alomatlari: asab tizimi, miyaga ta'sir qiladi, qonaylanishni va muvozanat buzadi, og'riqni hisini kamayadi, uyqusizlik, bosh og'rig'i paydo bo'ladi, o'tkir zaharlanishda ko'z qorachig'i xiralashdi va ko'rish qobiliyati pasayadi.

Birinchi yordam choralari: zaxarlangan insoni ifloslanish zonasidan olib chiqish va 10 daqiqa davomida ko'z va terini suv bilan yuvish, kiyimlarni almashtirish. Bo'g'izga gorchichnik qo'yish, agar nafas olish buzilgan bo'lsa, sun'iy nafas berish kerak.

Xlor bilan zaxarlanganda quyidagi birinchi yordam ko'rsatiladi.

*Xlor*,  $Cl_2$  – gazi bo'g'uvchi vosita. Yashil simonsariq, suvda kam eriydi. Kuchli oksidlovchi. Havodan og'irroq. U asosan yer osti yo'llari yer to'lalarda, past tekislarda to'planadi. Portlash va yonuvchanlik xususiyatiga ega. Vodorod bilan aralashmasi portlaydi, yonmaydi lekin ko'pgiga organik moddalarning yonishiga yordam beradi. O'rtachazararlidozasidarajasi -  $0,6 \text{ gmin./m}^3$

Zararli alomalari, nafas olish yo‘llarini qichitish, o‘pka shishini keltirib chiqarish tomoq va tomoqning qizarishi, bronxit, nafas qisilishi, ovozning pasayishi. Nafas olish tizimi shikastlanishi, modda qonga tushush ishi natijasida erkin aminokislotlar va ayrim oksidlarning faolligi pasayadi.

Birinchi yordam choralar: jabrlangan insonni toza havoga olib chiqish. Namlangan kislorod berish, sun‘iy nafas berish, tinchlantirish, isitish,. Shilliq qavatni va terini 2% li soda eritmasi bilan 15 daqiqadavomidayuvish talab etiladi.

*Oltinugurt oksidi* – o‘tkir hidli, rangsiz gaz bo‘lib yonmaydi. Ushbu moda oltinugurtli rudalarni yondirganda hosil bo‘lib, sulfat kislota ishlab chiqarishda asosiy xom –ashyo hisoblanadi. Bundan tashqari, to‘qimachilik sanoatida oqartiruvchi, oziq-ovqat sanoatida konservatsiya qiluvchi moda sifatida ishlatiladi. U suvda, spirtida, sirka va sulfat kislotalarda xloroformda va efirda yaxshi eriydi. Oltinugurt angidridi nafas yo‘llarini ishdan chiqarib, ko‘zni xiralashtiradi. Kichik konsentratsiyada inson kuchsiz yo‘talishi, tomoqda va ko‘krakda og‘riq paydo bo‘lishi, ko‘zdan yosh oqish, katta dozada esa qayd qilish, hushdan ketish alomatlari kuzatiladi. «V» va «M» - rusumli filtrlovchi sanoat gaz niqoblari va fuqarolar hamda bolalar gaz niqoblaridan foydalaniladi

#### 1- jadval

#### Ba‘zi bir kuchli ta‘sir etuvchi zaharli moddalarning (KTZM) fizik- kimyoviy va zaharli xususiyatlari

T/r	KTZM	Zichligi, g/sm <sup>3</sup>	Qaynash har orati, °C	Zaharlixususiyati				
				Zaharlan- son-sentra- ml	Ta‘sir etish vaqti	O‘limga olib kelish miqdori, ml/l	Ta‘sir	Degazatsiya- modda
1.	Ammiak	0,68	-33,4	0,2	6 s	7	30min	suv
2.	Xlor	1,56	-34,6	0,01	1 s	0,1-0,2	1s	so‘ndirilganohak
3.	Fosgen	1,42	8,2	0,05	10min	0,4-0,5	10min	Ishqorlimoddlarv
4.	Oltinugurt didi	1,46	-10	0,4-0,5	50min	1,4-1,7	50min	so‘ndirilganohak, klisuv
5.	Isgazi	-	-190	0,22	2,5s	3,4-5,7	30min	-
6.	Uglerod IV sulfadi	1,26	46	2,5-1,6	1,5s	10	1,5s	natriy sulfid
7.	FosforIII xloridi	1,53	74.8	0,08-	30min	0,15-1,0	30min	ishqorli-ammiakli
8.	Vodorod ftorid	0,98	19,4	0,4	10min	1,5	5min	ishqorli- klisuv
9.	Sinil kislota	0,7	25,6	0,02-0,04	30min	0,1-0,2	15	ishqorli- klisuv

#### 4. Kimyoviy xavfli obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etish usullari va vositalari.

Avvalo avariya va ularning oqibatlarini bartaraf etishda zararli kimyoviy moddalar tarqalishini (oqishini) cheklash va to'xtatish, kimyoviy ifloslanishni lokalizatsiya qilish, tuproq va yer osti suvlari ifloslanishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rish talab etiladi.

Xavfli kimyoviy moddalarning chiqarilishini (oqishini) cheklash va to'xtatib qo'yish xavfli moddalar keng tarqalishining oldini olish, tuproq va magistral suv manbalari ifloslanishning oldini olish zarur.

Xavfli kimyoviy moddalarning tarqalishini cheklash, to'kilgan moddani to'sish, xavfli kimyoviy moddalarni tabiiy chuqurliklarga (chuqurlarga, zovurlarga, zovurlarga) tushirish, maxsus sepgichlar orqali amalga oshiriladi. Ishlarni bajarishda zararli kimyoviy moddalarning daryolar, ko'llar, yer osti kommunal xizmatlari, binolar va inshootlarning podvallari va boshqalar ichiga kirib ketishining oldini olish kerak.

Bug'simon gaz fazasining tarqalish chuqurligini cheklash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- suv pardalari yordamida bug'simon gaz fazasini yutish;
- suyuqlik fazasini ko'p miqdordagi adsorbsion materiallar qatlami (tuproq, qum, cüruf, ko'mir va uning changlari, kengaygan loy, talaş) bilan singdirish;
- suyuqlik fazasini ko'piklar, plyonka materiallari bilan ajratish;
- xavfli kimyoviy moddalarni kimyoviy faol reagentlar eritmaları bilan zararsizlantirish.

Ifloslangan havo bulutining tarqalishi yo'nalishidagi serak dispersli suv pardalari odatda o't o'chirish mashinalari (motor nasoslari) va boshqa yuqori bosimli agregatlar yordamida yaratiladi; ular kamida 0,6 MPa suv oqimi bosimini ta'minlashi kerak. Pastroq bosimlarda, qoida tariqasida, xavfli kimyoviy moddalarning bug'simon gaz fazasini o'zlashtirishga qodir bo'lgan suv tomchilarining kerakli dispersiyasiga erishilmaydi.

Suv pardalarini yaratishda suvga zararli kimyoviy moddalar turiga mos keladigan neytrallashtiruvchi moddalar qo'shiladi.

Portlovchi inhalatsiyaning xavfli moddalarini bug'langanda, ifloslangan havo bulutining odamlar uchun xavf tug'dirmaydigan balandlikka ko'tarilishini ta'minlaydigan kesilgan yong'in pardalari o'rnatilishi mumkin.

Suyuq xavfli kimyoviy moddalar to'kilgan qatlam ustiga so'riydigan adsorbentlar to'kish (surish) orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda adsorban qatlami kamida 10-15 sm bo'lishi kerak, ifloslangan quyma material va tuproqning ustki qatlami kesib olinib maxsus idishlarga yig'iladi va keyinchalik degazatsiya ishlari bilan tozalanadi.

Atrof muhit sharoitlari joyida gazni yo'q qilishga (zararsizlantirishga) imkon beradigan hollarda, ifloslangan adsorban yoki tuproq yig'ilmaydi va olib tashlanmaydi. Ularni gazzizlantirish

(zararsizlantirish) joyida suyuq formulalar yoki qattiq gazzsizlantirish (zararsizlantirish) moddalari bilan ishlov berish orqali amalga oshiriladi. Yonuvchan moddalar (gidrazin va boshqalar) bilan avariylar yuz berganda, eng katta ifloslangan joylar yoqi borilishi mumkin. Buning uchun tuproq yoqilg'i (kerosin) bilan quyiladi va olovga qo'yiladi.

Xavfli kimyoviy moddalarning suyuq moddasi ko'pik bilan ajratish ularning bug'lanishini kamaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, gazni degazatsiya (zararli kimyoviy moddalar bilan reaksiyaga kirishadigan, toksik bo'lmagan yoki uchuvchan bo'lmagan moddalarni hosil qiluvchi neytrallashtiruvchi qo'shimchalar) uvchi ko'pik ishlatilishi musmkinka kiritilishi mumkin, Ko'pikni ishlatish yong'in uchirish xizmati tomnidan amalga oshiriladi.

Xavfli kimyoviy moddalarning bug'lanish tezligini kamaytirishning eng qulay usulib suyuqlik moddasi, kuchli suv oqimi bilan blokrovka qilash yoki neytrallashtiruvchi modda eritmalari bilan suyultirishdir. Suv yoki neytrallashtiruvchi moddalarning eritmalari avariya manbasiga kichik dispersli yoki yengil reaktivlar orqali yetkazib berilishi mumkin. "zontik" shaklida yetkazib berilgan kichik dispersli reaktiv ham suyuq moddaning ham yutilishning gazzsizlanishini (zararsizlantirilishini) va shu bilan birga xavfli kimyoviy bug'larning gazzsizlanishini (zararsizlantirilishini) ta'minlaydi. Yilni reaktiv konsentrlangan kislotalarni, oksidlovchilarni va suv bilan qattiq reaksiyag kirishadigan boshqa moddalarni zararsizlantirish uchun ishlatiladi.

### **5. Xavfli kimyoviy moddalardan ifloslangan zonalarda maxsus tozalash tadbirlarini tashkil etish**

Zararli yadro omillar, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi maxsus qurollar yoki radiatsiya va kimyoviy xavfli texnogen avariylar natijasida radiatsiya va kimyoviy moddalardan zaxarlanishi oqibatida insonlar o'limi va uskunalar yoroqsiz xolatga kelib qolish xolatlari sodir bo'ladi. Insonlarning ish qobiliyati, umuman korxonalarining faoliyati pasayadi.

Insonlar va hayvonlarga radioaktiv, zaharli, favqulodda kimyoviy xavfli moddalar va patogen bakteriyalar ta'sirini oldini olish (sezilarli darajada zaiflashtirish) va normal hayotiy faoliyatni ta'minlash uchun maxsus tozalash ishlari amalga oshirish kerak.

Maxsus tozalash – bu radioaktiv va toksik moddalarni, shuningdek bakteriya ta'sirini tanadan, inshootdan formalardan (kiyimlardan), shaxsiy himoya vositalaridan, qurol-yaroqlardan, jihozlardan, mol-mulkdan va boshqa moddiy qadriyatlardan zararsizlantirish yoki olib tashlashga qaratilgan tadbirlar majmuidir. Shaxsiy tarkibdagi qo'shinlar va aholiga yetkazilgan zararni oldini olish maqsadida obyektlar

Dezinfeksiya, avvalambor, mexanik olib tashlashni, shuningdek zararli moddani kimyoviy va fizik usullar bilan zararsizlantirishni va inson salomatligi va hayotiga tahdid soladigan patogen

bakteriyalar va mikroblarni yo‘q qilishni o‘z ichiga oladi. Dezinfeksiya quyidagi ishlarni o‘z ichiga oladi:

- gazni yo‘qotish;

- zararsizlantirish;

-jihozlarni, yer uchastkalari va undagi narsalarni zararsizlantirish, odamlarni sanitarizatsiya qilish.

Maxsus tozalash ishlari, zararsizlantirish yoki ularni ifloslangan joydan va turli xil narsalardan olib tashlash uchun amalga oshiriladi.

Degazatsiya- bu zaharli moddalarni zararsizlantirish yoki ularni ifloslangan yuzadan, texnikalardan, inshootlardan, kiyimlardan ifloslanishni qabul qilinadigan darajada kamaytirish yoki butunlay yo‘q qilish.

Kimyo va boshqa sohalarda juda ko‘p miqdordagi moddalar ishlatiladi, ularning ba’zilari toksik moddalar hisoblanib, ularni xavfli toksik kimyoviy moddalar deb ataladi, Texnogen avariyalarda bunday moddalar atrof muhitni ifloslantirish va insonlar hayotiga xavf to‘g‘diradi.

Degazatsiya tabiiy va sun‘iy ravishda degazatsiya qiluvchi eritmalar va retseptur yordamida amalga oshiriladi. "O‘zini gazsizlantirish" yoki "tabiiy gazni yo‘qotish" atamasi zaharli bo‘lgan mahsulotlar o‘z-o‘zidan parchalanishini yoki bug‘lanish, gidroliz, atmosferadagi kislorod bilan oksidlanish, shuningdek yuvish natijasida obyektlardagi ifloslanish darajasining o‘z-o‘zidan pasayishini anglatadi. Ammo o‘z-o‘zini gazsizlantirishni keltirib chiqaradigan jarayonlar sekin kechadi, shuning uchun obyektlarni dezinfeksiyalashning kerakli to‘liqligi infeksiyadan ko‘p vaqt o‘tgach, o‘nlab soat yoki hatto kunlarda o‘lchanadi. Obyektlarning xavfsizligi talablari juda qattiq bo‘lganligi sababli, eritmaları va retseptrlardan foydalangan holda zararli gazlardan tozalash uchun degazatsiya qilish kerak bo‘ladi

Qisman degazatsiya – narsalarning bevosita inson tegadigan joylari xavfli kimyoviy moddalardan tozalanadi. To‘liq degazatsiya – maxsus texnik vositalar yordamida ifloslanmagan joydan tashqarida zaharli moddalar bilan ifloslangan uskunalar, qurol-yarog‘, asbob-uskunalarining barcha sirtlari degazatsiya qilish amalga oshiriladi. Xavfli kimyoviy moddalardan ifloslanishni tozalash usullari mexanik, fizikaviy yoki kimyoviy usullarda amalga oshiriladi

*Mexanik usuli-* bu hududni va jismlarni ifloslantirigan xavfli kimyoviy moddani mexanik va jismoniy usul bilan tozalash. Masalan, ifloslangan tuproq qatlami kesilib, maxsus belgilangan ko‘milgan joylarga olib ketiladi yoki qum, tuproq, shag‘al, maydalangan tosh bilan qoplanadi.

*Fizik usuli-* xavfli kimyoviy modda bilan ifloslangan hududni, jismlarni erituvchi bug‘lantiruvchi va qaynatuvchi moddalar bilan tozalash.

*Kimyoviy usuli-* hududni va jismlarni ifloslantirgan modda degazatsiya qiluvchi moddalarga ta’siriga asoslangan. Ushbu ta’sir natijasida toksik bo‘lmagan yoki kam toksik

parchalanadigan mahsulotlar yoki birikmalar hosil bo‘ladi. Ushbu usuli floslangan sirtlarni (hududlarni, yo‘llarni) degazatsiya qiluvchi moddalar va ularning eritmalari bilan yuvushni o‘zichiga oladi.

Xavfli kimyoviy moddalarni tozalayotgan kimyoviy moddalar juda faoldir va shuning uchun ular bilan yuzaniga ishlov berilayotgan ehtiyotkorlik bilan ishlashni va moslamalarni o‘zlari quruq holda artib, tegishli moylash materiallari bilan yog‘lanishi kerak. Hududni zararsizlantirish juda mashaqqatli jarayondir, shuning uchun, qoida tariqasida, avvalo korxonada yoki muassasaning butun maydoni dezinfeksiya qilinmaydi, faqat odamlar, hayvonlar va jihozlarning harakatlanishi mumkin bo‘lgan joylarda. Qolgan qismlar panjara belgilari bilan o‘raladi.

Degazatsiya qilish quyidagicha amalga oshiriladi: zararlangan hudud 1 m<sup>2</sup> maydon uchun 1 kg miqdorida oqartuvchi kukun bilan qoplanadi va 3-4 sm chuqurlikda shudgorlanadi, Qattiq tuproq, asfalt, beton yuzalardagi ifloslangan joylar ham xlor sepiladi, so‘ngra 20 daqiqadan so‘ng yuvib tashlanadi. Shamolli ob-havo sharoitida, aksincha qilinadi. Kiyim-kechak, poyafzal, shaxsiy himoya vositalarini gazdan tozalash asosan qaynatish, bug‘ aromatik aralashmasi bilan ishlov berish, yuvish va shamollatish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Qaynatish va yuvish jarayonida soda yoki SF-2 kukuni ishlatiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfli kimyoviy moddalar bilan ifloslangan bo‘lsa, ularning qadoqlash bilan himoyalangan yuzasi qismi olib tashlanadi, qolgan qismini ehtiyotkorlik bilan pishirishni o‘zichiga oladi. Suvning zararsizlantirish koagulyatsiya, so‘ngra filtrlash yoki qaynatish orqali amalga oshiriladi. Engi shonchli usul – filtrlar yordamida suvni gazdan tozalashdan iborat.

Sanitar tozalash, to‘liqligi ustidan tibbiy nazorat namunalarni olish va xavfli kimyoviy modda ko‘rsatkichini o‘tkazishdan iborat. Kimyoviy tadqiqotlar va laboratoriya tadqiqotlari natijalariga ko‘ra xavfli modda ifloslanishini kompleks tekshirish, oziq-ovqat, suv va tibbiy asbob-uskunalaridan foydalanish imkoniyatlarini baholashga imkon beradi.

#### **Mavzuni uzlashtirish uchun savollar:**

1. Qanday obyektlar xavfli kimyoviy obyektlarga kiritilgan?
2. Kimyoviy xavfli obyektlar xavfsizligini ta‘minlashda qanday chora tadbirlar olib boriladi?
3. Kimyoviy xavfli obyektlarda kimyoviy nazorat va razvedka olish borish kim tomonidan va qanday tashkil etiladi?
4. Kimyoviy xavfli moddalarni aniqlash uchun qanday priborlar ishlatiladi?
5. Kimyoviy xavfli obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etish usullari va vositalari nimalardan iborat?
6. Xavfli kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi kutilayotgan joydan aholini qandiy qilib evakuatsiya qilinadi?
7. Xavfli kimyoviy moddalar bilan zararlanganlarga qanday qilib birinchi tibbiy yordam ko‘rsatiladi?
8. Xavfli kimyoviy moddalardan sanitar tozalash qanday amalga oshiriladi
9. Degazatsiya nima uning turlari va qanday usullarda amalga oshiriladi



### III. AMALIY MASHG‘ULOTLAR

#### 3.1. Amaliy mashg‘ulotni bajarishda umumiy xavfsizlik talablari

Amaliy xavfsizlik texnikasi bo‘yicha ish joyidagi yo‘riqnomani o‘tgan talabalarga amaliy ishini bajarishga ruxsat etiladi. Amaliy mashg‘ulotlar yo‘riqnomasidan o‘tilganligi haqida jurnalga qayd etilishi va unga talaba va yo‘riqnoma o‘tgan o‘qituvchi tomonidan imzo qo‘yilishi shart.

Talaba laboratoriya xonasidagi o‘t o‘chirish vositalarini, bo‘luvchi elektr shitini joylashishini, shamollatish va elektr uskunalarini qo‘shish (o‘chirish), tibbiy dori qutisi va shaxsiy himoya vositalarini (ko‘zoynaklar, elektr o‘tkazmaydigan qo‘lqop va botinkalar) joyini bilishi kerak.

Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish davomida elektr toki, toksik gazlar, agressiv suyuqliklar (aralashmalar), zaharli moddalar, shovqin, cheti uchli buyum kabi xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari paydo bo‘lishi mumkin.

Talabalar mehnat xavfsizligi qoidasini buzganligi uchun javobgarlikka tortiladi.

Amaliy mashg‘ulotni bajarishga mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomadan o‘tgan va oldindan tayyorgarlik ko‘rgan va ishning mazmuni bilan tanishgan talabalarga ruxsat etiladi. Ishni boshlashgacha ish joyidan boshqa buyumlarni va ishda foydalanilmaydigan jihozlarni yig‘ishtirish lozim.

Elektr taqsimlash qutisi va o‘t o‘chirish vositalari joylashgan joyga o‘tish mumkinligi, shaxsiy himoya vositalarini mavjudligi va foydalanishga yaroqliligi tekshiriladi. Ish joyini keraksiz (sumka, papka, xalta va boshqa.) buyumlar bilan band qilib tashlamaslik kerak.

Faqat o‘qituvchi tomonidan berilgan ishni bajarish.

Ishni bajarish vaqtida quyidagi asosiy qoidalarga rioya etish kerak.

1. Amaliy mashg‘ulotda har qanday ishni aniq, tartibli, shoshmasdan bajarish talab etiladi.
2. Ishlayotgan qurilmalarni, ishga qo‘shilgan elektr isitkichlarni va elektr o‘lchash uskunalarini qarovsiz qoldirmaslik.
3. Nosoz yoki nosozligi mavjud va sozligi shubhali uskunalardan foydalanmaslik.
4. Nosoz va keraksiz uskunalarni ish joyidan tozalash.

Uskunalardagi har qanday nosozlik yoki ishni bajarishdagi noaniqliklar haqida zudlik bilan o‘qituvchiga xabar qilish. Yonuvchi moddalar yonganda yong‘in manbaiga qum sepish yoki o‘t o‘chirgichdan foydalanish, sodir bo‘lgan holat haqida zudlik bilan o‘qituvchini xabardor qilish.

Baxtsiz hodisa ro‘y berganda (har qanday jarohat) shikastlanganga yordam berish va o‘qituvchiga xabar berish.

Barcha uskunalarni elektr manbaidan o‘chirish. Ish joyini tartibga keltirish.

Foydalanilgan materiallar va o'lchash jihozlarini belgilangan joyga qo'yish (o'qituvchi ko'rsatmasi bo'yicha).

### **3.2. Amaliy mashg'ulotlarga umumiy uslubiy ko'rsatmalar**

Ko'rsatmada keltirilgan amaliy mashg'uloti ikki soatlik auditoriya mashg'ulotiga va oldindan tayyorlangan talabalarga mo'ljallangan. Ishni talabalar bir vaqtda alohida topshiriq bo'yicha bir necha guruhlariga bo'linib bajarishlari ham mumkin.

Mashg'ulotni bajarish uchun talabalarga zarur uslubiy ko'rsatmalar, zarur hollarda qo'shimcha meyoriy materiallar, jihozlarga texnik hujjatlar beriladi.

Aaaliy mashg'ulotni bajarishdan oldin talabalar o'rnatilgan tartibda oldin bajargan topshiriq hisobotini quyidagi ko'rinishda taqdim etish tavsiya etiladi.

### **3.3. Amaliy mashg'ulotni bajarish bo'yicha hisobot**

1. Ishning maqsadi va vazifasi.
2. Tekshirish usullari, o'lchash prinsiplarining qisqacha yozma izoh qismi.
3. O'lchash natijalari jadvali.
4. Hisoblashlar.
5. Grafiklar.
6. Ish bo'yicha xulosalar.- Ishni bajardi: -guruh talabasi F.I.SH. Tekshirdi F.I.SH.

### **3.4. Amaliy mashg'ulotni o'tkazish amaliyoti**

1. Amaliy mashg'ulotni bajarishga ruxsat etishdan oldin o'qituvchi talabalarga xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnoma o'tib ularni "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani laboratoriyasidagi xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligi bilan tanishtiradi. Berilgan yo'riqnoma "Yo'riqnoma jurnali"ga qayd etilib yo'riqnomani olgan talaba va yo'riqnomani o'tkazgan o'qituvchi tomonidan imzolanadi.

2. Talabalar jihoz va uskunalar butunligi va saqlanishi uchun javobgar sanaladi. Ularni nosozligi aniqlanganda talaba zudlik bilan tajribani to'xtatishi, jihozni elektr setidan o'chirishi va mashg'ulotni olib borayotgan o'qituvchiga bu haqda xabar berishi zarur.

3. Talaba amaliy mashg'ulotni bajarishga uni o'tkazish uslubi bilan tanishgandan, texnika xavfsizligi qoidasini o'qigandan va uslubiy ko'rsatmada belgilangan tartibda o'qituvchi ruxsatini olgandan so'ng kirishishi lozim.

4. Amaliy mashg'ulotni tugatgandan so'ng ish joyi, jihozlar, uskunalar tartibga keltiriladi.

5. Amaliy mashg'uloti bo'yicha hisobot: amaliy mashg'ulotlar qurilmasi va uskunalari sxemalarini, tajribaga bog'liq grafiklar va to'ldirilgan jadvallar, kerakli hisoblashlar, xulosalar va tavsiyalarni o'z ichiga olishi kerak.

6. Talaba har bir amaliy mashg'ulot bo'yicha hisobotni berilgan muddatda yozishi va himoya qilishi lozim.

7. Amaliy mashg'ulotini qoldirgan talaba uni qo'shimcha mashg'ulotlar soatida bajaradi.

8. Amaliy mashg'ulotlarini topshirishga amaliy mashg'ulotni ko'zda tutilgan kalendar rejaga muvofiq bajargan talabalarga ruxsat etiladi.

## VIII. FOYDALANILGAN ASOSIY ADBIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: "O'zbekiston", 2008. 2. "Mehnat kodeksi". O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2005 y., 37-38-son.

2. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. –T.: 1999 y., 9-son.

3. "Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2006 y., 39-son.

4. "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi Uzbekiston Respublikasi qonuni, 2009.

5. "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, –T.: 2007 y., 50-51-son.

6. "Sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2006 y., 41-son.

7. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2007 y., 40-son.

8. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. –T.: 2002 y., 1-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarini sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonun. № URK.-57. 28.09.2006. Qonunchilik palatasi tomonidan 2006 yil 25 avgustda qabul qilingan.

10. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Ho'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida" №717-1. 24.12.1998.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning behatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida № 323 Qarori. 10.07.2004 y.

12. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori № 286, 06.06.1997, –T.: 1997.

13. "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 37-38-son.

14. "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, -T.: 2009 y., 16-son.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabr, «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida 271-son qarori

16. O'zbekiston respublikasi sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2009 yil 24 avgustdagi "Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi 167-son buyrug'i

17. Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish Qoidalari

18. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2018 yil 2 oktabr, "Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish va ekspertiza xulosasini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 784-son qarori

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020 yil 19 maydagi «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi o'zbekiston respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 291-son qarori

20. Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi Nizom

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktabrdagi "Sanoat va radiatsiya xavfsizligi sohasidagi ayrim faoliyat turlarini litsenziyalashni va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 782-son qarori

22. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 y., 16 yanvar, №11.

23. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga ko'ramiz. — T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.

24. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.

Xolbayev B.M., Raximov O.D., Maxmatqulov N.I. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik (1-qism). – T.: «Voriz–nashriyot», 2020. 304 b.

25. O'. Yo'ldoshev va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish. -T.: Mehnat, 2005.

26. Nigmatov I., Tojiev M.X. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi" Darslik.-T.: Iqtisod-MoliY. 2011. -260 b.

27. Хоменко А.О. Промышленная безопасность. Электронный образовательный текстовый ресурс. Екатеринбург- 2018

#### **Elektron resurslar.**

1. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz). - OO'MTV sayti

2. [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz) - OO'MTV sayti

3. [www.mintrud.uz](http://www.mintrud.uz) - "Mehnat" vazirligi sayti.

4. [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)- Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti.
5. [www.mchs.gov.uz](http://www.mchs.gov.uz)- Favqulodda vaziyatlar vazirligi sayti.
6. [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz)- Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi sayti.
7. [www.standart.uz](http://www.standart.uz)- “Standartlashtirish”, agentligi sayti.
8. LexUz- O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi.
- . [www.ohranatruda.ru](http://www.ohranatruda.ru)- Oxrana truda, texnika bezopasnosti pojarnoy bezopasnosti.

## MUNDARIJA

I. Kirish.....		3
II. Ma’ruzar to‘plami.....		6
1	1-ma’ruza. Sanoat xavfsizligi faniga kirish.....	6
2	2-ma’ruza. O‘zbekiston respublikasining “havfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunning mahiyati.....	14
3	3-ma’ruza. Xavfli ishlab chiqarish obektlarini indentifikatsiya qilish tartibini o‘rganish.....	20
4	4-ma’ruza. Xavfli sanoat obektlarini deklaratsiya qilish.....	25
5	5-ma’ruza Vazirlar maxkamasining 2008 yil 10 dekabrda 271-sonli karori asosida “xisob-tushuntirish xati”ni tuzish tartibi.....	32
6	6-ma’ruza Sanoat xavfsizligi ekspertizasi tizimi.....	38
7	7-ma’ruza. Portlovchi va zaharli moddalarni yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalash tartibi.....	47
8	8-ma’ruza. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo‘ladigan sohalardagi faoliyatni litsenziyalash tartibi.....	54
9	9-ma’ruza. Xavfli sanoat obektlarini risk (tavakal) taxlili.....	60
10	10-ma’ruza. Xavfli sanoat obektlarini davlat reyestridan o‘tkazish tartibi.....	67
11	11-ma’ruza. Texnogen xavf yukori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi. (txyuzdk).....	73
12	12-ma’ruza. O‘zbekiston respublikasida putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish.....	80
13	13-ma’ruza. Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qkilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o‘tkazish.....	87
14	15-ma’ruza. Xavfli ishlab chikarish obektlarida ishlab chikarish nazoratini tashkil etish va amalga oshirish qoidalari.....	100
15	16-ma’ruza. Xavfli ishlab chikarish obektida avariya yuz bergan takdirda boshka shaxslarning xayoti, sogligi va mol-mulkiga xamda atrof muxitga zarar yetkazganlik uchun fukarolik javobgarligini	

	majburiy sugurta kilish tartibi .....	107
16	17-ma'ruza. Sanoat obektlarida yong'i xavfsizligini ta'minlash.....	113
17	18- ma'ruza. Sanoat obektlarida elektr xavfsizligini ta'minlash.....	121
18	20-21 ma'ruza. Kimyoviy xavfli obektlarda avariya.sodir bo'lganda xavfsizlik chora tadbirlar.....	128
	III. Amaliy mashg'ulotlar.....	135
19	3.1. amaliy Mashg'ulotni bajarishda umumiy xavfsizlik talablari.....	135
20	1- amaliy mashg'ulot. Xavfli ishlab chiqarish obektlarini indentifikatsiya qilish tartibini o'rganish.....	139
21	2- amaliy mashg'ulot. Ishlab chiqarish obektlarini deklaratsiya qilish tartibini o'rganish.....	144
22	3- amaliy mashg'ulot.Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish tartibini o'rganish.....	149
23	4- amaliy mashg'ulot. Portlovchi va zaharli moddalar bog'liq faoliyatini litsenziyalash tartibini o'rganish.....	152
24	5- amaliy mashg'ulot. Xavfli sanoat obektlarini davlat resteridan o'tkazish tartibini o'rganish.....	156
25	6- amaliy mashg'ulot. Xavfli ishlab chikarish obektlari risk taxlili.....	160
26	7- amaliy mashg'ulot. Ishlab chiqarish obektlaridagi xodimlar va mol mulkini majburiy sug'irta qilish tartibi o'rganish.....	163
27	8- amaliy mashg'ulot. Texnogen xavf yukori bulgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi.....	167
28	9- amaliy mashg'ulot. Uzbekiston respublikasida putur yetkazmaydigan nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish....	172
29	10- amaliy mashg'ulot. Sanoat xavfsizligi soxasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya kilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish.....	176
30	12- amaliy mashg'ulot. Dozimetrik asboblar turlari va klassifikatsiyasini o'rganish.....	180
31	13- amaliy mashg'ulot. Umumjamo'a himoya inshootlari turlarini, tuzilishi va ulardagi texnik kurilmalarga kuyiladigan talablarni o'rganish.....	185
32	14- amaliy mashg'ulot. Shaxsiy ximoya vositalarini tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish.....	192
33	15-amaliy mashg'ulot. Sanoat korxonalarida shamollatish tizimini tashkil etish.....	197
34	16- amaliy mashg'ulot. Sanoat korxonalarida zararli changlar va zaxarli moddalarni tahlil qilish.....	202
35	17- amaliy mashg'ulot. Kuchli ta'sir etuvchi zaxarli moddalar (ktezm) ning atrof-muxitni zaxarlash ko'lamini aniqlash.....	206
36	18- amaliy mashg'ulot. Sanoat korxonalarda yong'in xavfsizligini tahlil qilish.....	210
37	19- amaliy mashg'ulot. Sanoat korxonalarida elektr xavfsizligini tahlil qilish.....	216

38	20- amaliy mashg'ulot. Radioaktiv moddalar va ionlashtiruvchi nurlanishlar turlarini va xususiyatlarini o'rganish.....	220
39	21- amaliy mashg'ulot. Odam organizmida nurlanish kasalligi rivojlanishi, shakli va og'irlik darajasi xolatlarini o'rganish.....	223
40	22- amaliy mashg'ulot. Ishlab chiqarish korxonalarida ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish.....	228
IV.Semenar mashgulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.....		233
V. Mustakil talim va mustakil ishlar buyicha ko'rsatma va asviyalar.....		237
VI. Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish.....		239
VIII. «Sanoat xavfsizligi» fani bo'yicha ma'ruza, amaliy seminar ashg'ulotlarini ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishning konseptual asoslari		275
IX. Glossariy.....		287
VIII. Foydalanilgan asosiy adbiyotlar.....		290